

ARTUR KONAN DOYL



BOSKOM
VODIYSINING SIRI

SHERLOK XOLMS

HAQIDA HIKOYALAR

84	2B48
D-67	K. Doyl
Sherlock Holmes 2.	
2019y	24/50

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан
кечкиртирилмаган ҳолда топширилиши шарт

Шарҳи берилмалар миқдори _____

1/11 - 1907. 20a
 1/11 - 454-20a
 1/11 - 634. 21a
 1/11 - 1114. 21a
 1/11. 821 - 1903. 21a
 1/11 - 1904-21a.
 1/11. 59. 21a
 1/11. 40-21a
 1/11. 1802. 21a
 1/11 - 51 - 22

84
D 67

BOSKOM
VODIYSINING SIRI
SHERLOK
XOLMS
HAQIDA HIKOYALAR



«DAVR PRESS»
Toshkent
2019

Tarjimon:
Vahob Ro'zimatov

Artur Konan Doylning «Sherlok Xolms haqida hikoyalar»i nafaqat Yevropada, balki butun dunyoga mashhur. Va ayni paytda yurtimiz kitobsevarlariga ham yaxshi tanish. Bu birinchi to'plamda yozuvchining detektiv, ilmiy fantastika, sarguzasht voqealar hayotiy dalillarga boy hikoya va qissalari joy olgan. «Boskom vodiysining siri» hikoyasidagi sirli voqealar odamlarni dahshatga soladi. Faqat bugina emas, mashhur izquvarlar Sherlok Xolms va doktor Uotsonning qator jinoyatlarni fosh qilishdagi bir-biridan qiziqarli sarguzashtlarini mazkur kitobdan bilib olishingiz mumkin. Detektiv voqealarga boy mazkur to'plam Siz aziz kitobxonlar iltimosiga ko'ra kichik hajmda 3 tom ko'rinishda to'liq variantda chop etilmoqda. Qo'lingizdagi mazkur kitob biz tuhfa etmoqchi bo'lgan to'plamning ilk tomi, ya'ni siz kutgan hikoyalarning debochasidir. O'ylaymizki, mazkur to'plam sizga manzur bo'ladi.

Barcha huquqlar amaldagi qonunlarga asosan himoyalangan.

«DAVR PRESS» nashriyot-matbaa uyining yozma ruxsatisiz ushbu nashrni qisman yoki to'liq holda, boshqa ommaviy axborot vositalarida elektron yoki mexanik ko'rinishda ko'chirib bosish, magnit tashuvchi vositalarda tarqatish qat'iy taqiqlanadi.

2848
Заневома Ахмед

MALLALAR UYUSHMASI

Bu voqea o'tgan yili kuzda bo'lgan edi. Sherlok Xolmsning huzurida allaqanday juda semiz, o'rta yoshlardagi qizg'ishmalla kishi o'tirardi. Men ichkariga kirmoqchi bo'ldim-u, lekin ikkovlarini qizg'in suhbat ustida ko'rib, chiqib ketishga shoshildim. Ammo Xolms meni xonaga surgab olib kirib, eshikni berkitdi.

– Kelganingiz ayni muddao bo'ldi, azizim Uotson, – dedi u muloyimgina.

– Sizlarga xalal bermay dedim. Nazarimda, banddek ko'rindingiz.

– Ha, bandman. Juda ham bandman.

– Narigi xonaga chiqib kutib tura qolsam bo'lmasmikin?

– Yo'q, yo'q... Mister Uilson, – dedi u semiz kishiga murojaat qilib, – bu jentlmen muvaffaqiyatli chiqqan tadqiqotlarimning ko'pchiligida menga ancha-muncha do'stona yordam ko'rsatgan. Aminmanki, sizning ishingizda ham foydasi tegsa kerak.

Semiz kishi o'tirgan yeridan sal qo'zg'alib menga bosh irg'adi, uning semizlikdan qisilib ketgan kichkina ko'zlari menga sinchkovlik bilan tikildi.

– Mana bu yerga, divanga o'tiring, – dedi Xolms. U kresloga o'tirdi va o'yga toladigan vaqtlaridagi odatiga ko'ra ikkala qo'lining uchlarini chirmashtirdi.

– Bilamanki, azizim Uotson, – dedi u, – siz mening hamma g'ayrioddiy narsalarga, kundalik hayotimizning maromini buzadigan hamma narsaga ishqiboz ekanligimni ma'qullaysiz. Agar sizda shu g'ayrioddiy voqealarga ishqibozlik bo'lmaganda mening kamtarona sarguzashtlarimni shu qadar zavq-shavq



bilan yozib bormas edingiz... Zotan, sidqidildan aytishim kerakki, sizning ba'zi hikoyalaringizda mening faoliyatim bir qancha bo'yab ko'rsatiladi.

Rostini aytganda, sizning sarguzashtlaringiz menga hamisha nihoyatda qiziq bo'lib tuyulardi, – deb e'tiroz bildirdim men.

– Kuni kechagina sizga eng zo'r xayol kuchi ham kundalik hayotimizda uchraydigan g'ayrioddiy va alomat hodisalarni tasavvur etishdan o'jiz, degan edim, shekilli.

– Men o'sha zahotiyiq, bu fikringiz unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak, degan edim.

– Shunga qaramay, doktor, meni haq deyishga majbur bo'lasiz, aks holda, sizni shu qadar son-sanoqsiz, ajoyib va g'aroyib faktlarga ko'mib tashlaymanki, fikrimga qo'shilishga majbur bo'lib qolasiz. Mana, aqalli hozir menga mister Jebez Uilson aytib bergan voqeani olaylik. Bu voqea bo'lib o'tgan vaziyat mutlaqo sodda, oddiy, holbuki, umrim bino bo'lib bunday voqeani eshitgan emasman... Mumkin bo'lsa, mister Uilson, hikoyangizni takrorlasangiz. Buni sizdan do'stim doktor Uotson hikoyaning boshini eshitsin, debgina iltimos qilayotganim yo'q, men o'zim ham har bir ikir-chikir tafsiloti bilan mumkin qadar yaxshiroq tanishib chiqsam. Odatda, menga biron hodisani hikoya qila boshlaganlarida shunga o'xshagan minglab hodisalar esimga tushadi. Ammo e'tirof etishga men hech qachon bunga o'xshagan voqeani eshitgan emasdim.

Semiz mijoz biroz g'ururlangannamo ko'ragini kerib, pal-tosining ich cho'ntagidan g'ijimlangan kir gazeta oldi-da, uni tizzasiga yozib qo'ydi. U bo'ynini cho'zib bosilgan e'lonlarga ko'z yugurtirarkan, men boshdan-oyoq razm solib, Sherlok Xolmsga taqlidan, uning kiyimi va tashqi qiyofasiga qarab kim ekanini bilib olishga tirishdim. Afsuski, mening kuzatishlarim deyarli hech qanday natija bermadi. Bir ko'rishdayoq uning o'ziga bino qo'ygan, befarosat, tepsa tebranmas, oddiygina bir mayda do'kondor ekanini payqash mumkin edi. Katak kulrang shimi beo'xshov, kirgina qora syurtugining tugmalari solinmagan, qora nimchasi ustida tilla suvi yuritilgan yo'g'on mis



zanjir yiltirar, uning uchida jevak o'rnida parma bilan teshilgan allaqanday bir to'rtburchak temir parchasi osilib turar edi... Nimdoshgina silindri va g'ijim baxmal yoqali, o'ngib ketgan qo'ng'ir paltosi yonginasidagi stulda yotardi. Xullas, bu odamga qancha razm solmay, uning qizg'ish sochidan boshqa ko'zga tashlanadigan joyini ko'rmadim. Uning qandaydir xunuk bir voqeadan sarosimada ekanligi ko'rinib turardi.

Mening mashg'ulotim Sherlok Xolmsning sinchkov nazari-dan chetda qolmadi.

– Albatta, har kimga ayonki, – dedi u tabassum bilan, – bizning mehmonimiz bir vaqtlar jismoniy mehnat bilan shug'ullangan, u burnaki ishaydi, frankmasonlardan¹, Xitoyda bo'lgan, so'nggi oylarda ko'p xat yozishga to'g'ri kelgan. Bu ayon-oshkor faktlardan boshqa hech narsani payqay olmadim.

Mister Jebez Uilson kreslodan sapchib turdi va shahodat barmog'ini gazetadan olmay, oshnamga tikilib qoldi.

– Siz bularning hammasini qanday qilib bilib oldingiz, mister Xolms? – deb so'radi u. – Masalan, siz mening jismoniy mehnat bilan shug'ullanimni qayoqdan bilasiz? Ha, darhaqiqat, men o'z faoliyatimni kemasoz duradgorlikdan boshlaganman.

– Buni qo'llaringiz aytib turibdi, muhtaram ser. O'ng qo'lingiz chap qo'lingizdan kattaroq. Siz shu qo'lingiz bilan ishlaganingiz uchun uning mushaklari baquvvatroq bo'lib qolgan.

– Burnaki iskashimni-chi? Frankmasonligimni-chi?

– Frankmasonligingizni payqash qiyin emas, chunki siz jamiyatingizning qat'iy nizomiga amal qilmay yarim doira va doira² tasviri bor ilgakli tugma taqib yuribsiz.

¹Frankmasonlar (qisqartirilgan shakli – masonlar) – qachonlardir bir qadar taraqqiyparvar ahamiyatga ega bo'lgan yashirin jamiyatning a'zolari. Sherlok Xolms davrida bu jamiyatga asosan mayda do'kondorlar, fermerlar va shu kabilar kira boshlagan edilar.

² Yarim doira va doira – masonlik belgilari. Ilgari bu belgilari maxfiy edi, ammo hozirgi masonlar qadimiy nizomni buzib, bu belgilarni ko'pincha jevablari va ilgakli tugmalariga taqib yuradilar.



– E, ha! Bu esimga ham kelmabdi... Ko‘p ezishga to‘g‘ri kelganini qanday payqadingiz?

– Yiltirab ketgan o‘ng yengingiz bilan chap yengingizning tirsagi atrofidagi taqir bo‘lib qolgan movut yana nimadan guvohlik bera olishi mumkin?

– Xitoyda bo‘lganimni-chi?

– O‘ng bilagingizda ko‘rinib turgan baliqcha tasviri Xitoydagina chekilgan bo‘lishi mumkin! Men tatuirofkalarni o‘rganganman, ular haqida hatto maqolalar yozganman. Baliq tangachalarini nafis pushti bilan bo‘yash odati faqat Xitoygagina xos. Soatingizning zanjiridagi Xitoy tangasini ko‘rganimdan so‘ng Xitoyda bo‘lganingizga uzil-kesil ishonch hosil qildim.

Mister Jebez Uilson qah-qahlab kulib yubordi.

– Shunaqa deng?! – dedi u. – Men avvaliga siz bularni alaqanday alomat yo‘llar bilan topasiz, shekilli, deb o‘ylagan edim, endi bilsam, osongina topayotgan ekansiz.

– Fikrimcha, Uotson, bunday xulosaga qanday yo‘l bilan kelganimni tushuntirib xato qildim shekilli, – dedi Xolms, – o‘zingizga ma‘lumki, «Omne ignotum pro, magnifico»³, agar men rostgo‘y bo‘lsam, kamtarona shuhratimga putur yetadiganga o‘xshaydi... E‘lonni topdingizmi, mister Uilson?

– Topdim, – deb javob berdi u yo‘g‘on, qizil barmog‘ini gazeta ustunining o‘rtasiga nuqib turarkan. – Hamma ish shundan boshlandi. O‘zingiz o‘qib ko‘ring, ser.

Men gazetani olib, o‘qidim:

MALLALAR UYUSHMASI. Lebanonlik (AQSH Pensilvaniya) marhum Iezekiya Xopkinsning vasiyatiga binoan Uyushmaga yana bir kishi ishga olinadigan bo‘ldi. Haftasiga muayyan ish uchun to‘rt funt sterling naqd maosh beriladi. Es-hushi joyida, zehni o‘tkir, yigirma bir yoshdan kam bo‘lmagan har bir malla tusli kishi bu ishga yaroqli topilishi mumkin. Uyushmaning Flit-strit, Popskoortdagi idorasiga, dushanba kunlari soat o‘n birda shaxsan Dunkan Rossga murojaat qilinsin.

³ «Hamma noma‘lum narsalar bizga ajoyib bo‘lib ko‘rinadi» (lotincha).



– Jin ursin, bu nima degani o‘zi? – deb yubordim men, ana shu g‘alati e‘lonni ikki bor o‘qib chiqarkanman.

Xolms sassizgina kuldi-da, kresloda o‘tirgan joyida g‘ujanak bo‘lib oldi, bu uning rosa huzur qilayotganidan dalolat berguchi edi.

– Chakana e‘lon emas-a, nima deysiz? – dedi u.

– Xo‘sh, mister Uilson, hikoyangizni davom ettirib, o‘zingiz haqingizda, uyingiz haqida, bu e‘lon sizning hayotingizda qanday rol o‘ynagani haqida gapirib bering. Siz esa, doktor, mumkin bo‘lsa, bu qaysi gazeta ekanini, qachon chiqqanini yozib qo‘ysangiz.

– «Ertalabki xronika». 1890-yil 27-apreldagi soni. Rop-pa-rosa ikki oy burun chiqqan ekan.

– Juda soz. Davom ettiring, mister Uilson.

– Ilgari aytganimdek, mister Sherlok Xolms, – dedi Jebez Uilson peshonasini artib. – Siti yaqinidagi Seks-Koburg-skverda kichkinagina bo‘nak kassam bor. Ishlarim ilgari ham uncha yaxshi emas edi, so‘nggi ikki yil davomida esa undan keladigan daromad amal-taqal bilan tirikchilik o‘tkazib turishgagina yetardi. Bir vaqtlar ikki yordamchim bor edi, hozir esa bit-ta: unga haq to‘lashim og‘ir edi-yu, ammo u mening ishimni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun yarim maosh evaziga ishlashga rozi bo‘ldi.

– O‘sha qimmatli yigitchaning oti nima? – deb so‘radi Sherlok Xolms.

– Nomi Vinsent Spolding, uni yigitcha deb bo‘lmaydi. Yoshi nechadaligini aytish qiyin. Undan epchilroq yordamchini topishim mahol. Uning mensiz ham kuni o‘tib, ikki barobar ortiq pul topa olishini ham juda yaxshi tushunaman. Modomiki, u mamnun ekan, unga o‘z manfaatlarimga putur yetkazadigan fikrlarni uqtirishimning nima hojati bor?

– Darhaqiqat, nima hojati bor? Nazarimda, juda omadin-giz kelgan ekan: siz yordamchingizga uning bajaradigan ishi-ga boshqalarga qaraganda ikki barobar kam haq to‘larkansiz. Bizning davrimizda bunday betama xizmatchilar kamdan-kam uchraydi.



O, yordamchimning kamchiliklari ham bor! – dedi mister Uilson. – Surat olishga bunaqangi ishqiboz odamni hech qachon uchratmagan edim. Ish vaqtida apparatini shaqillatgani-shaqillatgan, keyin esa xuddi quyon iniga urib ketgandek yerto'laga sho'ng'iydi-da, plastinkalarni doriga solib ochiltiradi. Uning katta nuqsoni shu. Umuman esa chakki xizmatchi emas.

– U hozir ham xizmatingizni qilib turgan bo'lsa kerak?

– Ha, ser. O'sha-yu amal-taqal qilib ovqat pishirib, uyni supurib-sidirib turadigan o'n to'rt yashar qizaloq, boshqa hech kimim yo'q, xotinim o'lib ketgan, bolalarim ham yo'q. Uchalovimiz tinchgina turmush kechirayotibmiz, ser, uyning chirog'ini yoqib, ijara haqini to'lab turamiz – ko'rgan-kechirganimiz shu... Bu e'lon bizni yo'ldan adashtirdi, – deb gapini davom ettirdi mister Uilson. – Bugun roppa-rosa sakkiz hafta bo'ladi Spolding qo'lida shu gazeta bilan idoramga kirib kelganiga.

– Qani endi meni ham Xudo malla qilib yaratgan bo'lsa, mister Uilson.

– Nega? – deb so'radim men.

– Mana, – dedi. – Mallalar uyushmasida yangi o'rin tayin qilindi. Bu o'rinni egallagan odam hazilakam daromadga ega bo'lmaydi. U yerda ishga kirmoqchi bo'lgan talabgorlardan ko'ra bo'sh o'rinlar ko'proq bo'lsa kerak, vasiylar ham pullarni nima qilishlarini bilmay rosa boshlari qotayotgandir. Agar sochimning rangi o'zgarib qolganida bormi, albatta, o'sha serdaromad o'rinni egallardim.

– Mallalar uyushmasi nima degani o'zi? – deb so'radim men.

– Bilasizmi, mister Xolms, men yurimsak emasman, ish ketidan quvmayman, ish o'zi meni qidirib keladigan bo'lgani uchun ba'zan haftalab ostona hatlab ko'chaga chiqmayman. Shuning uchun ham olamda bo'layotgan ishlardan bexabar qolaman, yangiliklarni hamisha maroq bilan eshitaman...

– Siz nahotki Mallalar uyushmasi haqida hech qachon eshitmagan bo'lsangiz? – deb so'radi taajjub bilan Spolding ko'zlari chaqchayib.



– Hech qachon.

– Bu meni juda ham taajjublantiradi, chunki siz o'sha bo'sh o'rinni egallashga haq-huquqi bo'lganlardan birisiz-ku.

– Bu qancha daromad keltirishi mumkin? – deb so'radim.

– Yiliga ikki yuz funt sterlingga yaqin, ortiq emas, juda ham yengil ish, buning ustiga ayni vaqtda har qanday boshqa ish bilan ham bermalol shug'ullanaversa bo'ladi.

Tabiiyki, quloqlarimni ding qildim. Chunki mening muassasam so'nggi vaqtlarda juda oz daromad keltirmoqda, yiliga qo'shimcha ikki yuz funt esa ancha kunimga yarashi mumkin edi.

– Bu Uyushma haqida bilganlaringizni aytib bering, – dedim.

– O'zingiz ko'rib turibsizki, – deb javob berdi Spolding menga e'lonni ko'rsatib. – Mallalar uyushmasida bo'sh o'rin bor ekan, mana bu manzili, tafsilotlarini bilmoqchi bo'lsangiz shunga murojaat qilishingiz mumkin. Bilishimcha, bu Uyushmaga Iezekiya Xopkins degan amerikalik bir dovdir tabiatli millioner asos solgan. Uning o'zi qizg'ish-malla tusli bo'lib, dunyodagi hamma mallalarga xayrixoh ekan. U o'layotganida o'z vasiylariga katta mablag' qoldirib, bu mablag'ni sochlari to'q malla tusdagi odamlarning qismatlarini yengillatishga ishlatishni vasiyat qilgan ekan. Aytishlaricha, bu baxtiyor odamlarga tuppa-tuzuk maosh to'lasharmish, ulardan deyarli hech qanday ish talab qilishmasmish.

– Axir malla odamlar million-million-ku, – dedim men, – ularning har biri ham bo'sh o'rinni egallagisi keladi.

– Siz o'ylaganchalik ko'p emas, ular, – deb javob berdi u. – Ko'rib turibsizki, e'lon faqat londonliklarga, shunda ham katta kishilarga qaratilgan. O'sha amerikalik Londonda tug'ilib, yoshligini shu yerda o'tkazgan, o'zi tug'ilib o'sgan shaharga valine'matlik qilmoqchi bo'lgan. Bundan tashqari, eshitishimga qaraganda, Mallalar uyushmasiga sochlari och-mallarang yoki to'q-mallarang shaxslarning murojaat qilishlari foydasiz – u yerda sochlari yorqin, ko'zni qamashtiradigan, qizg'ish-malla tusdagi kishilarnigina ishga olisharkan. Agar siz bu taklifdan



foydalanmoqchi bo'lsangiz, mister Uilson, Mallalar uyushmasining idorasiga kirib borsangiz kifoya. Ammo bir necha yuz funt deb asosiy mashg'ulotingizdan alahsirab yurishingizning ma'nosi bormikan?.. O'zlarangiz ko'rib turibsizlarki, jentlmnlar, mening sochim yorqin, serjilo tusga ega bo'lgan to'q-mallarang soch, mallalar raqobat qilib qolganlarida ham baribir men bu bo'sh o'rinni egallasam kerak, deb o'ylagan edim. Vinsent Spolding bu ishdan har tomonlama xabardor bo'lganligi uchun menga katta yordam berishi mumkin edi, shuning uchun ham darchalarni kechgacha yopib, meni Uyushma binosiga kuzatib borishini buyurdim.

U bugun ishdan ozod bo'lganiga juda sevinib ketdi. Biz idorani berkitib, e'londa ko'rsatilgan manzilga qarab jo'nadik.

U yerda shunday bir tomoshani ko'rdimki, mister Xolms, bunday tomoshani endi sira ham ko'rolmasam kerak. Shimoldan, janubdan, sharqdan, g'arbdan kimningki sochi sal-pal malla tusli bo'lsa, e'lonni o'qiboq Sitiga yopirilib kelaveribdi. Flit-stritda mallalar tirband bo'lib ketgan. Pops-koort esa apelsinfurushning g'altak aravasiga o'xshar edi. Men hech qachon Angliyada shuncha bordir, deb o'ylamagan edim.

Bu yerda mallarang tusning har xil turlari bor, poxolrang, limonrang, qizg'ishrang, g'ishtrang, irland setterlari tusidagi, safro tusidagi, loy tusidagi ranglar bor, ammo Spolding aytganidek, chinakam yorqin, qizg'ish-mallarang tusdagi boshlar bu yerda juda oz edi. Shunga qaramay, bu yerga to'plangan olomonni ko'rib, umidim puchga chiqay deb qoldi. Spolding esa bo'sh kelmadi. Qanday evini qilganini bilmayman-u, u jon-jahdi bilan tiqilib-suqilib meni xaloyiq orasidan olib o'tdi, biz idora zinapoyasi oldiga yetib bordik.

Odamlar turnaqator tizilib zinapoyadan chiqib-tushib turar edi; ba'zilar umid-ishtiyoq bilan chiqib borishar, ba'zilar esa ma'yuslik bilan tushib kelishar edi. Biz oldinga yorib o'ta-o'ta tez orada idoraga kirib bordik...

– Siz juda qiziq duch kelib qolibsiz! – dedi Xolms, mijozi xotirlab olish uchun bir chimdim burnaki iskab indamay qolar-kan.



– Marhamat, hikoyangizni davom ettiring.

– Idorada ikkita yog‘och stul bilan oddiygina qarag‘ay stoldan boshqa hech narsa yo‘q, unda mendan ham mallaroq kichkina bir odam o‘tirardi. U stol oldiga kelgan nomzodlarning har qaysisi bilan bir-ikki og‘iz so‘zlashib, ularning har qaysisidan qanday bo‘lmasin bir nuqson topardi. Aftidan, bo‘sh o‘rinni egallash uncha oson emas edi. Biroq biz o‘z navbatimizda stolga yaqinlashib borar ekanmiz, kichkina odam meni boshqa nomzodlarga qaraganda anchagina xushmuomalaroq qarshi olib ichkariga kirgan zahotimizoq biz bilan xoli gaplashish uchun eshikni ichkaridan berkitib qo‘ydi.

– Bu kishi mister Jebez Uilson, – dedi yordamchim. U Uyushmadagi bo‘sh o‘rinni egallamoqchi edi.

– U bu o‘ringa juda munosib, – deb javob berdi haligi odam.
– Men ko‘pdan beri bunday ajoyib sochni ko‘rishga muyassar bo‘lmagan edim!

U bir qadam orqaga tashlab, boshini bir tomonga qiyshaytirdi-da, sochlarimga shu qadar uzoq tikilib qoldiki, men juda o‘ng‘aysizlandim. Keyin birdan oldinga tashlanib qo‘llaringa yopishdi-da, qizg‘in tabrikladi.

– Men hardamxayollik qilsam insofdan bo‘lmas, – dedi u.
– Biroq ishonamanki, ba‘zi ehtiyot choralarni ko‘rsam meni kerchirasiz.

U ikkala qo‘li bilan sochimni changallab shunday tortdiki, og‘riqdan dodlab yubordim.

– Ko‘zlaringizdan yosh chiqib ketdi, – dedi u sochimni qo‘yib yuborib. – Demak, hammasi joyida. Kechirasiz, ehtiyot bo‘lmasak bo‘lmaydi. Chunki bizni ikki marta parik kiyib kelib, yana bir marta sochini bo‘yab kelib aldashgan. Sizga ba‘zilarining shunday vijdonsizlarcha ishlatgan hiyla-yu nayranglarini aytib berishim keraki, odamlarga nisbatan nafratingiz oshib ketadi.

U deraza oldiga borib, bo‘sh o‘rin band qilinganligini qichqirib aytdi. Pastdan oh-voh, o‘kinch sadolari eshitildi, xaloyiq



har tomonga tarqalib ketdi, tez orada bu atrofda meni yollayotgan haligi odam bilan ikkovimizdan boshqa malla qolmadi.

– Mening otim mister Dunkan Ross, – dedi u, – men ham saxovatli valine'matimiz qoldirgan o'sha fondan nafaqa olaman. Siz uylanganmisiz, mister Uilson? Oilangiz bormi?

Men befarzand, so'qqabosh odam ekanligimni aytdim. Uning chehrasida qayg'u izlari ko'rindi.

– Yo rabbiy! – dedi u tundlik bilan. – Axir bu juda ham jiddiy to'siq-ku! Afsuslar bo'lsinki, siz uylanmagan ekansiz! Fond mallalarni boqish uchungina emas, ularning nasl-nasabini ko'paytirib, tarqatish uchun barpo qilingan edi. Afsus, bo'ydoq ekansiz-da!

Bu so'zlarni eshitarkanman, tarvuzim qo'ltig'imdan tushib ketdi. Mister Xolms, nega desangiz, meni olishmas ekan, deb xavotirga tushib qoldim, ammo u o'ylab ko'rib yo'lini topishini aytdi.

– Sizdan boshqa har qanday odam bo'lganda ham qoidadan chekinmasdik, ammo shunday sochi bor odamni qo'llab-quvvatlash mumkin. Yangi vazifangizni qachondan e'tiboran ado eta boshlashingiz mumkin?

– Bu biroz mushkulroq, chunki men boshqa bir muassasada bandman, – dedim.

– Bunisidan tashvishlanmang, mister Uilson! – dedi Vinset Spolding. – U ishni sizsiz o'zim ham eplayveraman.

– Bu yerda qaysi soatlarda band bo'laman? – deb so'radim men.

– O'ndan ikkigacha.

Bo'nak kassalarida asosiy ish kechqurunlari, ayniqsa, maosh berilishi arafasida payshanba, juma kunlari bo'ladi, shuning uchun uncha-muncha pul ishlasak chakki emas, degan qarorga keldim. Qolaversa, yordamchim ishonchli odam, kerak bo'lganda bimalol o'rnimda ishlayveradi.

– Bu soatlar menga to'g'ri keladi, – dedim. – Qanday maosh to'laysizlar o'zi?

– Haftasiga to'rt funt.

– Qiladigan ishim nimadan iborat bo'ladi?



– Muayyan ishdan iborat bo‘ladi.

– Muayyan ish deganingiz nima?

– Ish vaqtida siz idoramizda yoki, aqalli, idoramiz joylashgan binoda bo‘lishingiz kerak. Bordi-yu, biron marta ish vaqtida ketib qolarkansiz, bu xizmatdan umrbod mahrum bo‘lasiz. Vasiyat qiluvchi ayniqsa shu moddaga qattiq rioya qilishni talab etgan. Agar biron marta ish vaqtida idoramizdan chiqib ketsangiz, talablarimizni bajarmagan hisoblanasiz.

– Agar gap kuniga to‘rt soat vaqt haqida ketayotgan bo‘lsa, idoradan chiqib ketishni xayolimga ham keltirmayman, – dedim.

– Shuni bilib qo‘yingki, – deb takrorladi mister Duncan Ross, – biz keyin hech qanday avf-o‘tinchlaringizga quloq solmaymiz. – Hech qanday kasal, hech qanday ish bahona bo‘lolmaydi. Xizmat vaqtida idorada bo‘lishingiz shart – bo‘lmasa xizmatdan ketasiz.

– Ishim nimadan iborat bo‘ladi?

– Siz «Britaniya nomusi»ni ko‘chirib yozasiz. Birinchi tomi – mana shu shkafda. Siyoh, patqalam, qog‘oz bilan bosma qog‘ozni o‘zingiz olib kelasiz, biz esa sizga stol bilan stul beramiz. Ertadan ish boshlay olasizmi?

– Albatta, – deb javob berdim.

– Unday bo‘lsa, xayr, mister Jabez Uilson. Shunday yaxshi o‘rinni egallashga muvaffaq bo‘lganingiz bilan sizni yana bir marta tabriklashga ruxsat eting.

U menga bosh silkidi. Xonadan chiqib, omadim kelganidan quvongancha yordamchim bilan uyga qarab jo‘nadim. Men bu hodisa haqida kun-uzzukun o‘yladim, kechga borib hafsalam pir bo‘layozdi, chunki miyamga, bu ishlarning hammasi shunchaki bir qalloblik bo‘lsa kerak, degan fikr keldi, ammo bu tadbirdan maqsad nima ekanligini o‘ylay-o‘ylay sira tushunolmadim. Shunday vasiyatnomaning borligiga, «Britaniya qomusi»ni ko‘chirib yozishga odamlar shu qadar ko‘p pul to‘lashga rozi ekanliklariga aql bovar qilmasdi. Vinsent Spolding jon dili bilan menga dalda berishga urinardi, ammo men yotganimda bu ishdan voz kechishga qat‘iy qaror qildim. Biroq ertalab miyam-



ga, har ehtimolga qarshi u yerga bir borib ko'ray-chi, degan fikr keldi. Bir penniga⁴ siyoh sotib olib, g'oz pati bilan yetti taxta katta qog'ozni ko'tarib Pops-koortga jo'nadim. Taajjubki, u yerda hamma ishlar joyida edi. Juda sevinib ketdim. Stol ishlashim uchun tayyor qilib qo'yilgan, mister Dunkan Ross meni kutib turgan ekan. U menga «A» harfidan boshlashni buyurib chiqib ketdi, ammo vaqt-vaqti bilan idoraga qaytib kirib, ishlayotgan-ishlamayotganimdan xabar olib turardi. Soat ikkida u men bilan xayrlasharkan, shuncha ko'p ko'chirib yozganimni maqtadi-da, orqamdan idoraning eshigini berkitib oldi.

Kunlar shu yo'sinda o'taverdi, mister Xolms. Shanba kuni xo'jayinim stolga bir haftalik haqim – to'rtta oltin soverenni⁵ olib kelib qo'ydi. Ikkinchi hafta ham shunday o'tdi, uchinchi hafta ham. Men u yerga har kuni roppa-rosa o'nda borib, roppa-rosa ikkida qaytardim. Bora-bora mister Dunkan Ross idoraga faqat ertalablari kiradigan, keyinroq esa mutlaqo kirmaydigan bo'lib qoldi. Shunga qaramay, tabiiy, men xonadan bir daqiqaga ham chiqishga jur'at qilolmasdim. Chunki uning kelmasligiga amin emasdim, shunday foydali ishdan ajralib qolishdan qo'rquydim ham.

Sakkiz hafta o'tdi, men Abbatlar, Artilleriya, Arxitektura, Attika haqidagi maqolalarni ko'chirib tez orada «B» harfiga o'taman, deb umid qilgan, edim. Ancha-muncha qog'oz sarf qilgan edim, ko'chirib yozganlarim rafga arang sig'ardi. Ammo ishim birdan adoyi tamon bo'ldi-qoldi.

– Tamom bo'ldi-qoldi?

– Ha, ser. Bugun ertalab. Odatdagidek, soat o'nda ishga borsam, eshik qulflog'liq, unga bir parcha karton qoqib qo'yilibdi. Mana u, o'zingiz o'qib ko'ring.

U bizga qo'yin daftarchaning bir varag'icha keladigan karton uzatdi. Kartonda quyidagi so'zlar yozilgan edi:

**MALLALAR UYUSHMASI 1890-YIL, 9-OKTABRDA
TARQATIB YUBORILDI.**

⁴ Penni – chaqa pul (to'rt tiyin miqdorida).

⁵ Soveren – oltin tanga (o'n so'm miqdorida).



Sherlok Xolms ikkovimiz bu qisqa yozuvga ham, Jebez Uilsonning ma'yus qiyofasiga ham uzoq tikilib o'tirdik, nihoyat, o'zimizni tiyolmay qah-qahlab kulib yubordik.

– Buning hech kuladigan joyi yo'q – deya qichqirib o'rnidan sapchib turgan mijozimiz qizg'ish sochlarining taglarigacha qizarib ketdi. – Agar siz yordam berish o'rniga mendan kulmoqchi bo'lsangiz, yordam so'rab boshqa odamga murojaat qilaman.

– Yo'q, yo'q! – deb xitob qildi Xolms, uni yana kresloga o'tqazarkan. – Sizning ishingizdan o'la qolsam ham voz kechmayman. Bu ishning yangiligidan dilim bahra oladi. Ammo uning, meni kechirasiz, har qalay, qandaydir alomat jihati bor... Eshikka qoqib qo'yilgan bu yozuvni topganingizdan keyin nima chora ko'rdingiz?

– Hang-mang bo'lib qoldim, ser. Nima qilishimni bilmadim. Qo'shni idoralarning hammasiga kirib chiqdim, lekin u yerdagilarning birontasi ham hech narsa bilmas ekan. Nihoyat pastki qavatda yashaydigan uy egasining oldiga kirib, Mallalar uyushmasiga nima bo'lganini bilmaysizmi, deb so'radim. U bunaqa tashkilotni sira ham eshitmaganman, deb javob berdi. Shundan keyin undan, mister Dunkan Ross kim bo'ladi, deb so'radim. U, bu ismni birinchi eshitishim, deb javob berdi. «Men to'rtinchi raqamli kvartirangizni ijaraga olgan jentlmenni aytyapman», – dedim.

«Mallani aytyapsizmi?»

«Ha».

«Uning oti Uilyam Morris. U yurist, joyimni vaqtincha ijaraga olgan edi – uning doimiy idorasi ta'mirlanayotgan ekan. Kecha ko'chib ketdi».

«Uni qayerdan topsa bo'ladi?»

«Doimiy idorasidan. Manzilini tashlab ketgan. Mana: «King-Eduard-strit, 17, avliyo Pavel jomesining yaqinida».

Men o'sha manzilga qidirib bordim, mister Xolms, u yer yog'och oyoq ustaxonasi ekan; u yerdagilarning birontasi ham hech qachon na mister Uilyam Morrisning nomini, na mister Dunkan Rossning nomini eshitgan ekan.



– Shundan keyin nima qildingiz? – deb so‘radi Xolms.

– Keyin Seks-Koburg-skverga, uyimga qaytib keldim, yordamchim bilan maslahatlashdim.

U menga hech qanday yordam berolmadi. U, kutib tura turingchi, pochta orqali biron xabar berishar, dedi. Menga bu to‘g‘ri kelmaydi, mister Xolms. Men shunday ajoyib joyni osonlikcha qo‘ldan berib qo‘ymoqchi emasman. Sizning mushkul ahvolga tushib qolgan kambag‘al odamlardan o‘z maslahatingizni ayamasligingizni eshitib yurardim, shuning uchun to‘ppa-to‘g‘ri oldingizga kelaverdim.

– To‘g‘ri qilgansiz, – dedi Xolms. – Siz aytgan hodisa – ajoyib hodisa, men u bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lganimdan baxtiyorman. So‘zlaringizni eshitib shunday xulosaga keldimki, bu ish birinchi qarashda tuyulishi mumkin bo‘lganidan ko‘ra jiddiyoq.

– Ha, hazilakam ish emas! – dedi mister Jabez Unlson.

– Men haftasiga tushib turgan mo‘maygina to‘rt funtdan mahrum bo‘ldim.

– Shaxsan siz to‘g‘ringizda gapiradigan bo‘lsak, – dedi Xolms, – bu g‘ayrioddiy Uyushmadan nolishingiz o‘rinsiz. Aksincha, fahmlashimcha, siz u tufayli o‘ttiz funtcha boylik orttiribsiz, bundan tashqari, «A» harfidan boshlanadigan narsalar haqida chuqur bilim orttirganingizni aytmasa ham bo‘ladi.

– To‘g‘ri, darhaqiqat shunday, ser. Ammo men ularni qidirib topmoqchi edim, ularning kimligini, agar bu qilmishlarini hazil deb bilsa, nega men bilan shu tariqa hazillashganliklarini bilmoqchi edim. Bu ermak ularga juda qimmatga tushdi: ular o‘ttiz ikki funtlaridan ajradilar.

– Biz bularning hammasini aniqlashga urinib ko‘ramiz. Ammo avval sizga bir necha savol berishga ruxsat etsangiz, mister Uilson. O‘sha e‘lonni ko‘rsatgan yordamchingiz sizda qachondan beri xizmat qiladi?

– O‘sha vaqtda bir oycha bo‘lib qolgan edi.

– Siz uni qayerdan topgan edingiz?

– U mening oldimga gazetada e‘lon berganimdan keyin kelgan edi.



– E'loningizni o'qib, o'shaning o'zigina kelganmidi?
– Yo'q, o'ntacha odam keldi.
– Nima uchun o'shaning o'zinigina oldingiz?
– Qarasam chaqqonroq, haqni ham kam oladigan.
– Yarim maosh olib ishlashga rozi bo'lganiga uchdingizmi?
– Ha.
– O'sha Vinsent Spolding deganingizning qiyofasi qanaqa?
– Kichik jussali, g'o'labir, serharakat. O'ttizga borib qolgan bo'lsa ham iyagida bironta tuk yo'q. Peshonasida kislota kuydirgan oppoq dog' bor.

Xolms qaddini rosladi. U juda hayajonlangan edi.

– O'zim ham shundaydir deb o'ylagan edim! – dedi u.
– Uning quloqlaridagi zirak taqadigan teshiklarga ko'zingiz tushmadimi?

– Ko'rganman, ser. U menga, qulog'imni bolaligimda allaqanday lo'li xotin teshgan, deb tushuntirdi.

– Hm! – deb qo'ydi Xolms va chuqur o'y surgancha o'zini kresloning suyanchig'iga tashladi.

– U hali ham siznikidami?

– Ha, albatta, ser, uni hozirgina ko'rdim.

– Uyda yo'qligingizda u ishlaringizni durust eplab turadimi?

– Nolisam bo'lmas, ser. Zotan, ertalablari bo'nak kassamda deyarli hech qanday ish bo'lmaydi.

– Bas, mister Uilson. Bir-ikki kundan keyin bu voqea to'g'risidagi fikrimni sizga bajonu dil xabar qilaman. Bugun shanba... Umid qilamanki, dushanba kuni biz hamma gapdan voqif bo'lsak kerak.

– Xo'sh, Uotson, – dedi Xolms mijozimiz ketgach, – siz bularni nima deb o'ylaysiz?

– Hech narsa deb o'ylayotganim yo'q, – deb ro'y-rost javob berdim men.

– Bu ish menga g'oyatda sirli tuyulyapti.

– Taomil shuki, – dedi Xolms, – hodisa qancha g'alati bo'lsa, uning sirli tomonlari shu qadar kam bo'ladi. Olomon orasidan oddiy qiyofali odamni topish nechog'li qiyin bo'lsa,

2848

173anruoma Aka



oddiygina jinoyatlarni aniqlash ham shu qadar mushkul. Ammo bu hodisani mumkin qadar tezroq bartaraf qilish kerak.

– Xo‘sh, endi nima qilmoqchisiz? – deb so‘radim.

– Chekmoqchiman, – deb javob berdi u.

– Bu uch marta trubka chekkuncha o‘nlab mag‘zini chaqsa bo‘ladigan masala, shuning uchun meni o‘n daqiqacha gapga solmay tursangiz.

U ozg‘in tizzalarini yig‘ishtirib qirg‘iy burniga yaqin olib borgancha kresloda g‘ujanak bo‘lib oldi va ko‘zlarini yumib, allaqanday g‘alati bir qushning tumshug‘iga o‘xshagan qora sopol trubkasini tishlagancha uzoq o‘tirdi. Men uni, uxlab qoldi, deb o‘ylab o‘zim ham mizg‘iy boshlagan edimki, qat‘iy bir qarorga kelgan odamdek o‘rnidan sakrab turdi-da, trubkasini kaminga qo‘ydi.

– Sarasate⁶ bugun Sent-Jems-Xollda chaladi, – dedi u. – Siz bunga nima deysiz, Uotson? Bemorlaringiz bir necha soatgina sizensiz tura olisharmikan?

– Bugun bo‘shman. Ishim uncha ko‘p vaqtni olmaydi.

– Unday bo‘lsa, shlyapangizni kiying, ketdik. Men avval Sitiga borishim kerak. Yo‘l-yo‘lakay biron joyda ovqatlanarmiz.

Biz metroda Oldersgetgacha borib, u yerdan ertalab eshitgan voqealarimiz yuz bergan Seks-Koburg-skverga yayov jo‘nadik.

Seks-Koburg-skver oqsuyaklarga xosroq, g‘aribgina xilvat bir maydoncha. To‘rt qator kir-iflos ikki qavatli g‘isht uylarning derazalari o‘t-alaf bosgan kichkinagina bog‘chaga qaragan, bog‘chaning o‘rtasida bir necha tup irvoqqina lavr butalari qurum bosgan havo bilan kurashib Jon talashib yotibdi. Zarhal yuritilgan uchta shar va muyulishga osilgan oq harflar bilan «Jebez Uilson», deb yozilgan jigarrang lavha malla mijozining muassasasi shu yerda ekanligini bildirib turardi.

Sherlok Xolms eshik oldida to‘xtab, yumilinqiragan mijjalari orasidan chaqnoq ko‘zlarini unga tikdi. Keyin ko‘cha-

⁶ Sarasate (1844 – 1908) – mashhur ispan skripkachisi va kompozitori.



dan asta yurib borib, uylarni diqqat bilan koʻzdan kechirgancha yana muylulishga qaytib keldi. Boʻnak kassasining oldida hasasi bilan toshkoʻchani uch marta qattiq urib koʻrdi, soʻngra eshikka yaqin borib, uni taqillatdi. Eshikni shu ondayoq soqol-moʻylovi qirtishlab olingan chaqqon yigit ochdi-da, bizni ichkariga taklif qildi.

– Tashakkur, – dedi Xolms. – Men faqat Strendga qanday borsa boʻladi, deb soʻramoqchi edim.

– Uchinchi koʻchaga borganda oʻngga burilasiz, keyin toʻrtinchi koʻchaga borganda chapga, – deb darhol javob berdi mister Uilsonning yordamchisi va eshikni taq etib yopdi.

– Epchil yigit ekan! – deb qoʻydi Xolms, – biz yana koʻcha boʻylab borarkanmiz. – Meningcha, u epchilikda London boʻyicha toʻrtinchi oʻrinda tursa kerak, doshoraklikda esa uchinchi oʻrinda boʻlsa ham ajab emas. Uning toʻgʻrisida uncha-muncha maʼlumotlar bor.

– Nazarimda, – dedim men, – mister Uilsonning yordamchisi Mallalar uyushmasida hazilakam rol oʻynamasa kerak. Aminmanki, siz undan yoʻlni faqat oʻzini koʻrish uchungina soʻradingiz.

– Oʻzinimas.

– Nimani boʻlmasa?

– Tizzalarini.

– Xoʻsh, tizzalarida nimani koʻrdingiz?

– Kutgan narsamni koʻrdim.

– Koʻcha toshlarini nimaga urib koʻrdingiz?

– Muhtaram doktor, hozir gap sotishning fursati emas, kuzatish kerak. Biz – dushman qarorgohidagi aygʻoqchilarmiz. Biz Seks-Koburg-skverda baʼzi bir narsalarni bilib olishga muvaffaq boʻldik. Endi ularga narigi tomondan kelib tutashadigan koʻchalarni koʻzdan kechirib chiqamiz.

Seks-Koburg-skver bilan muylulishdan burilganimizdan keyingi manzara orasida yer bilan osmoncha farq bor edi. Muylulishdan burilgach, shaharning Sitini shimol va gʻarb bilan bogʻlab turadigan asosiy qon tomirlaridan biri oʻtar edi. Bu kat-



ta ko'cha boshdan-oyoq ikki oqim hosil qilib o'ngga va so'lga qatnab turgan ekipajlar bilan to'lgan, yo'lkalarda esa g'uj-g'uj o'tkinchilar, qator ajoyib magazinlar va hashamatli mahkamalarga qarab xuddi shu uylarning orqasida naqadar g'arib, kimsasiz maydon borligini tasavvur qilish mahol edi.

– Ijzat bering, to'yib tomosha qilib olay, – dedi Xolms muyushda to'xtab, har bir uyni birma-bir diqqat bilan ko'zdan kechirarkan. – Binolarning qay tartibda joylashganini eslab qolmoqchiman. Londonni aylanishga juda ishqibozman... Avval Mortimerning tamaki magazini, keyin gazeta do'koni, uning yonida shahar va shahar atrofi bankining Koburg bo'limi, so'ngra vegetarianlar⁷ restorani, undan keyin Mak-Ferlen kareta deposi. Undan uyog'ida narigi kvartal boshlanadi... Xo'p, doktor, ishimiz tamom bo'ldi hisob. Endi biroz ko'ngilxushlik qilsak ham bo'ladi: buterbrod yeb, bir finjon qahva ichamiz-u huzurhalovat, orom, dilrabo kuylar saltanatiga ravona bo'lamiz, u yerda malla mijozlar boshimizni qotirib g'ashimizga tegmaydi.

Do'stim musiqani ehtiros bilan sevar, u iste'dodli sozandagina emas, tuppa-tuzukkina kompozitor ham edi. Butun kecha davomida ingichka uzun barmoqlarini musiqa ohangiga monand asta-asta qimirlatgancha kresloda yayrab o'tirdi. Uning tabassum qalqqan chehrasi, nam-xush xumor ko'zlari intizor Xolmsni, o'g'ri-muttahamlarning kushandasi, shafqatsiz, ayyor Xolmsni hech eslamas edi. Ajoyib xarakteri ikki narsadan tarkib topgan edi. Uning puxtaligi hamda kishini lol qoldiradigan o'tkir zehni bu kishi fazilatining asosini tashkil etadigan shoirona o'ycharligi bilan kurashda tug'ilgan bo'lsa kerak, deb o'ylardim o'qtin-o'qtin. Har doim tamoman holdan toyganiga ham qaramay g'ayrat bilan ishga kirishib keta olardi. Uning kechqururlari o'z navozishlari va notalariga nechog'li xotirjamlik bilan berilib ketishini yaxshi bilardim. Ammo ishqibozlik ehtirosi uni birdan chulg'ab olib, o'ziga xos bo'lgan yorqin tafakkur kuchi savhi tabiiy darajasiga yetib borar, uning uslubidan bexabar odamlar, qarshimizda oddiy bir odam emas,

⁷ Vegetarianlar – et yemaslar.



allaqanday g'ayritabiiy bir jondor turibdi, deb o'ylay boshlar edilar. Sent-Jems-xollda kuzatib o'tirarkanman, Xolmsning musiqaga naqadar berilib ketganini ko'rib, u iziga tushgan odamlarning omon qolmasliklarini sezdim.

– Siz, doktor, uyga ketmoqchidirsiz, – dedi u konsert tamom bo'lgach.

– Uyga ketaman, albatta.

– Mening yana bir ishim bor, bu uch-to'rt soat vaqtimni oladi. Koburg-skverdagi hodisa – juda jiddiy narsa.

– Juda jiddiy deng?

– U yerda katta jinoyatga tayyorgarlik ko'rilmogda. Men ishonch bilan aytamanki, biz uning oldini olib qolamiz. Ammo bugun shanba bo'lgani sababli ish ancha mushkullashadi. Kechasi menga yordamingiz kerak bo'lib qolishi mumkin.

– Soat nechada?

– Soat o'nlardan keyin.

– Roppa-rosa o'nda Beyker-stritda bo'laman.

– Juda soz. Bilib qo'ying, doktor, bu nihoyatda xatarli ish. Cho'ntagingizga revolveringizni solib oling.

U menga qo'l silkib, keskin burildi-da, bir lahzada xaloyiq orasiga kirib g'oyib bo'ldi.

Men o'zimni boshqalardan ko'ra ahmoqroq deb hisoblamayman-u, ammo qachon Sherlok Xolms bilan to'qnash kelib qolsam, zehnimning pastligini tan olib qiynalib ketaman. Axir, mana, men ham u nimani eshitgan bo'lsa shuni eshitdim, u nimani ko'rgan bo'lsa, men shuni ko'rdim, biroq gapiga qaraganda u bo'lib o'tgan voqeanigina emas, endi sodir bo'ladiganiga cha tushunib, payqab turibdi, menga esa bu ish hamon dudmal, bir tuturiqsiz narsaga o'xshab tuyulmogda.

Uyga qaytayotib yo'l bo'yi «Britaniya qomusi»ni ko'chirgan o'sha malla kotibning g'alati hikoyasini ham, Seks-Koburg-skverga borganimizni ham, xayrlashayotganimizda Xolms aytgan vahimali so'zlarni ham yana bir bor esladim. Bu tungi safar nimani bildiradi va nima uchun qurollanib borishim kerak? Biz u bilan qayoqqa boramiz va nima ishlar qilamiz? Xolms men-



ga bo'nak kassa egasining ko'sa yordamchisi katta jinoyatlarga qodir, g'oyatda xavfli odam ekanini shama qilib qo'ydi.

Bu jumboqni yechish uchun rosa bosh qotirdim, ammo hech bir ish chiqarolmadim, kechasigacha sabr qilishga qaror qildim, hamma gap o'shanda ayon bo'ladi.

To'qqizdan chorak oshganda uydan chiqdim. Gand-park va Oksford-stritdan o'tib, Veyker-stritga chiqdim. Shu paytda dahlizga kirarkanman, g'ala-g'ovur tovushlarni eshitdim. Eshik oldida ikkita keb⁸ turardi. Xolmsning huzurida ikki odam bor ekan. Xolms ular bilan quyuq suhbatlashmoqda. Ulardan birini tanirdim – bu politsiyaning rasmiy agenti Piter Jons. Ikkinchisi esa yaltiroq silindr, g'oyatda bejirim frak kiygan ozg'in, novcha, badqovoq odam edi.

– Ha, ana, jamoat jam bo'ldik! – dedi Xolms matroscha kurtkasining tugmalarini qadab, rafdan vazmin sopli ovchilar qamchisini olarkan. – Uotson, siz Skotland-Yardda ishlaydigan mister Jons bilan tanish bo'lsangiz kerak? Ruxsat eting sizni mister Merriuezerga tanishtiray. Mister Merriuezer ham bizning so'nggi sarguzashtimizda ishtirok etadi.

– Ko'rib turibsizki, doktor, biz mister Xolms bilan yana birga ovga chiqayotibmiz, – dedi Jons odatdagidek sipolik bilan.

– Do'stimiz bebaho odam. Ammo ovning eng boshida yirtqichni ta'qib qilishi uchun unga qari tozining yordami kerak.

– Yirtqichni emas, o'rdak otib yurmasak hali deb qo'rqa-man, – dedi tundlik bilan mister Merriuezer.

– Mister Xolmsga bermalol orqa qilishingiz mumkin, ser, – deb qo'ydi jamiyat bilan politsiya agenti. – Uning yaxshi ko'rgan uslublari bor. Ular, ruxsatingiz bilan qayd etsam, biroz mavhum va xayoliyroq, lekin, har qalay, juda yaxshi natijalar beradi. E'tirof etish kerak, u haq bo'lib chiqib, rasmiy politsiya esa yanglishgan hollar ham bo'lgan.

– Modomiki, siz shunday deyayotgan ekansiz, mister Jons, demak, hammasi joyida bo'ladi, – dedi takalluf bilan notanish odam.

⁸ Keb – odam tashiydigan bir otli ekipaj.



– Lekin, har qalay, rostini aytsam, bugun odatdagi robber o'ynashdan mahrum bo'lganimga achinayotibman. Bu yigirma yetti yil davomida men qarta o'ynab o'tkazadigan birinchi shanba oqshomi bo'ladi.

– Bugungi o'yindagi dov sizning qarta o'yiningizdagi dovdan kattaroq, o'yinning o'zi ham qiziqroq bo'ladi, – dedi Sherlok Xolms. – Siz tikadigan dov, mister Mirrieuer, o'ttiz ikki ming funt sterlingga teng keladi. Sizning dovingiz esa, Jons, allaqachonlardan beri tutib olish umidida yurgan odamingiz.

– Jon Kley – qotil, o'g'ri, qulfbuzar, firibgar, – dedi Jons. – U hali yosh, mister Merrieuer, ammo mamlakat bo'yicha eng mohir og'ri: men hammadan ko'ra ham o'shaning qo'llariga jon-jon deb kishan urardim. Jon Kley degan bu yigit ajoyib odam. Uning bobosi gersog edi, o'zi bo'lsa Iton va Oksfordda⁹ o'qigan. Qo'li qanchalik mohir bo'lsa, miyasi shunchalik o'tkir, garchand biz uning iziga har bir qadamda duch kelayotgan bo'lsak ham, u hamon tutqich bermaydi. Bu haftada u Shotlandiyada biron kimsaning bor-yo'g'ini o'marib kelsa, keyingi haftada Kornvallisda yetimxona qurish uchun pul yig'ishga kirishadi. Necha yillardan beri uning izidan quvaman-u, lekin haligacha o'zini ko'rgan emasman.

– Bugun kechasi uni sizga tanishtirishga muyassar bo'laman. Men ham ikki marta mister Jon Kleyning jasoratiga to'qnash kelganman, sizning u mamlakat bo'yicha eng mohir o'g'ri, degan fikringizga batamom qo'shilaman... Soat o'ndan oshib qoldi. Yo'lga tushsak ham bo'lar. Sizlar ikkovlaringiz birinchi kebda jo'nanglar, Uotson bilan biz ikkinchisida jo'naymiz.

Sherlok Xolms uzoq cho'zilgan safarimiz davomida uncha ochilib gapirmadi: u o'zini orqaga tashlab o'tirgancha bugun konsertda eshitgan kuylarini xirgoyi qilardi. Biz gaz fonuslar bilan yoritilgan son-sanoqsiz egri-bugri ko'chalardan yura-yura, nihoyat, Farringdosh stritga yetib bordik.

⁹ Iton va Oksfordda zodagonlar o'qiydigan o'quv yurtlari joylashgan.



– Endi juda yaqinlashib qoldik, – dedi oshnam. – Anavi Merriuezer-bank direktori, bu ishdan shaxsan manfaatdor. Bizga Jons ham ish berib qoladi. U ma’qul yigit, o’zining ixtisosiga sira uquvi yo’q. Birdan-bir yaxshi fazilati bor: xuddi buldog itdek dovyurak, xuddi qisqichbaqadek yopishqoq. Bitta-yarimta panjasiga tushib qolgudek bo’lsa, aslo qo’yib yubormaydi... Yetib keldik. Mana ular.

Biz yana ertalab ko’rgan o’sha gavjum va g’ala-g’ovur ko’chamizga kelib to’xtadik. Izvoshchining haqini to’lab, mister Merriuezerning orqasidan qandaydir tor yo’lakka kirib bordik va u yonboshdagi eshikchani ochishi bilan o’zimizni darhol ichkariga oldik. Eshikcha ortida juda qisqa boshqa yo’lak bor ekan. Yo’lakning oxirida vazmin temir eshik ko’rinib turardi. Bu eshikni ochib aylanma zinapoyaning g’ishtin bosqichlaridan pastga tushdik va yana boyagidek haybatli bir eshikka yaqinlashdik. Mister Merriuezer to’xtab fonarni yoqdi-da, bizni zax hidi anqib turgan qorong’i yo’lakdan boshlab ketdi. Biz yana bir eshikdan o’tib savatlar va og’ir-og’ir yashiklar qalab qo’yilgan qor yoki yerto’laga o’xshagan kenggina joyga kirib bordik.

– Bu yerga yuqoridan tushish juda qiyin, – deb qo’ydi Xolms, fonarni ko’tarib shiftni ko’zdan kechirarkan.

– Pastdan kirish ham qiyin, – dedi mister Merriuezer yerga yotqizilgan taxta toshlarni hassasi bilan urib ko’rib. – Jin ursin, xuddi tagi bo’shdek gumburlaydiya! – deb xitob qildi u hayrat bilan.

– Men sizdan shovqin solmasligingizni iltimos qilishga majburman, – dedi jahl bilan Xolms. – Sizning kasringizdan butun reja puchga chiqishi mumkin. Marhamat qilib, mana bu yashiklardan biriga o’tirsangiz-da, bizga xalal bermasangiz.

Basavlat mister Merriuezer malol kelmagandek savatga borib o’tirdi. Xolms esa cho’kkalab fonar va lupa yordamida toshlarning oralig’idagi tirqishlarni sinchiklab tekshira boshladi. Bir necha sekunddan so’ng tekshirishlarining natijasidan



mamnun bo'lib, o'rnidan turdi-da, lupani cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Hali kamida bir soat vaqtimiz bor, – deb qo'ydi u, – chunki ular muhtaram bo'nak kassa egasi uyquga ketmaguncha ishga kirishishlari mahol. Xo'jayin uyquga ketgach esa ular bir daqiqa fursatni ham qo'ldan berishmaydi, negaki, ishni qanchalik tez tugatishsa, qochib qolishlari uchun shuncha ko'p vaqt qoladi. Biz hozir, doktor, – shubhasiz, o'zingiz ham allaqachon payqagan bo'lsangiz kerak, – Londondagi eng boy banklardan biriga qarashli bo'limning omborida turibmiz. Mister Merriuezer – bank boshqarmasining raisi: u g'oyatda doshorak jinoyatchilarning xususan hozirgi vaqtda bu omborga alohida diqqat-e'tibor bilan qarashlariga nima majbur qilayotganini bizga tushuntirib beradi.

– Biz bu yerda Fransiyadan olib kelingan oltinlarni saqlamoqdami, – dedi pichirlab direktor. – Bizni, bu oltinni o'g'irlash uchun urinib ko'rishadi, deb bir necha bor ogohlantirishgan.

– Fransiyadan olib kelingan oltinlarni, dedingizmi?

– Ha. Bir necha oy muqaddam bizga oshiqcha mablag' dar-kor bo'lib qoldi. Biz Fransiya bankidan o'ttiz ming napoleon-dor¹⁰ qarz oldik. Bu pullarning hali taxini ham buzmaganimiz, ularning hamon omborimizda turgani keyinchalik hammaga ma'lum bo'lib ketdi. Men o'tirgan savatda ikki ming napoleon-dor bor, ular qavat-qavat zar qog'oz orasiga terilgan. Bankning bir bo'limida hozirgi vaqtda biz saqlayotganchalik miqdordagi oltin kamdan-kam saqlanadi, bu narsa direktorlarni tashvishlantirmoqda.

– Tashvishlanishga to'la asoslari bor, – deb qo'ydi Xolms. – Xo'p, endi tayyorlansak ham bo'lar. O'ylaymanki, biror soat ichida hamma ish tamom bo'lsa kerak. Bu fonarni, mister Merriuezer, biron qora narsa bilan to'sishga to'g'ri keladi...

– Qorong'ida o'tiramizmi?

– Qo'rqamanki, shunday qilishga to'g'ri keladi. Men odatda gi robbingizni o'ynayolmay qolmang, deb qarta ola kelganman,

¹⁰ Napoleon-dor – Fransiya oltin pullari.



chunki biz to'rt kishimiz. Ammo ko'rib turibmanki, dushman juda jiddiy tayyorlanganga o'xshaydi-ya, chiroqni o'chiq qoldirish xatarli bo'lar edi. Bundan tashqari, bir-birimiz bilan joylarimizni almashtirishimiz kerak. Ular dovyurak odamlar, garchand biz ularga qo'qqisdan hujum qilsak-da, agar ehtiyot bo'lmasak, ular bizga shikast yetkazishlari mumkin. Men mana bu savatning orqasida turaman, siz manavilarning orqasiga yashirining. Men chiroqni talonchilarga to'g'rilashim bilanoq ularni shartta ushlang. Agar o'q otishsa, Uotson, ularga tap tortmasdan o'q uzing.

Men o'qlangan revolverimni yog'och yashik qopqog'iga qo'ydim-da, yashik orqasiga o'tib berkindim. Xolms fonar eshikchasini yopdi, biz zim-ziyo qorong'ida qoldik. Qizigan metall hidi bizga fonar o'chirilmaganligini, chiroq istagan da'ada yarq etib ketishi mumkinligini eslatib turardi. Sabr bilan kutishdan sergagan asablarim qo'qqisdan hammayoqni chulg'agan bu zulmatta, zax yerto'laning sovuq nafasidan qaqshayotgan edi.

– Ularning qochib chiqib ketishlari uchun faqat bir yo'l bor – izlariga qaytib, uy orqali Seks-Koburg-skverga chiqishlari mumkin, – deya shivirlab qo'ydi Xolms. – Ishonamizki, iltimosimni bajo keltirgan bo'lsangiz kerak, Jons? – Inspektor bilan ikki ofitser ularni ko'cha eshik oldida kutib turibdi.

– Demak, biz hamma teshiklarni berkitibmiz. Endi churq etmay kutishimiz kerak, xolos.

Vaqt shu qadar imillab o'tardiki! Aslida atigi bir-u chorak soat vaqt o'tgan bo'lsa-da, nazarimda tun nihoyasiga yetib tepada tong otayotgandek tuyuldi. Qimir etgani qo'rqqanimdan oyoqlarim uvishib tolib ketdi, asablarim tarang edi. Birdan pastda g'ira-shira shu'la ko'rib qoldim.

Dastlab bu yerdagi toshlardan birini yoritib turgan g'ira-shira uchqun edi. Hademay uchqun sarg'ish shu'laga aylandi. Keyin hech qanday shovqinsiz tuynuk ochildi, yorug' bo'lib turgan bo'shliqning o'rtasida xotinlarnikiga o'xshagan oppoq qo'l ko'rinib, qandaydir buyumni paypaslayotgandek bo'ldi. Barmoqlari qimirlayotgan bu qo'l bir minutcha pastda ochildan tuynukdan chiqib turdi. So'ngra qanday qo'qqisdan paydo



bo'lgan bo'lsa, shunday tez g'oyib bo'ldi, yana hammayoqni qorong'ilik chulg'adi, faqat ikki tosh orasidagi torgina tirqishdan xiragina yorug' chiqib turardi.

Biroq bir da'adan keyin serbarg oq toshlardan biri g'ichirlagancha ag'darilib tushdi-da, uning o'rnida chorqirra chuqur o'ra paydo bo'lib, undan yarq etib fonar yorug'i tushdi. O'ra ustida soqol-mo'ylovi qirtishlab olingan yigitcha ko'rindi. Noma'lum odam har tomonga sinchiklab ko'z yugurtirdi: ikki qo'li o'ra labiga yopishdi, o'radan yelkasi ko'rindi, keyin butun gavdasi ko'tarildi, tizzasini yerga tiradi. Bir lahzadan so'ng notanish odam tamoman bu yoqqa chiqib, endi o'rtog'ini tortib olmoqda edi. O'rtog'i ham o'ziga o'xshagan kichkina va chaqqon, oq yuzli, jingalak qizg'ish-malla sochli edi.

– Hammasi joyida, – deb shivirladi u. – Iskana bilan qoplar sendami?.. Ming la'nat! Sakra, Archi, sakra, men o'zimni qutqaraman.

Sherlok Xolms uning yoqasidan bo'g'ib oldi. Ikkinchi o'g'ri kovakka urib qoldi. Jons uni ushlab olmoqchi bo'lgan edi, ammo uddalayolmadi chamasi: tarillagancha latta yirtilayotganini eshitdim. Revolverning milida shu'la yiltiradi, ammo Xolms ovchilar qamchisi bilan asirning qo'liga bir urdi, revolver jaranglagancha toshga tushdi.

– Foydasi yo'q, Jon Kley, – dedi Xolms muloyimlik bilan. – Siz qo'lga tushdingiz.

– Ko'rib turibman, – deb javob berdi u mutlaqo xotirjam. – Ammo o'rtog'im qochib qoldi, sizlar pidjagining barinigina ushlay oldinglar.

– Uni eshikning orqasida uch kishi poylab turibdi, – dedi Xolms.

– E, shunaqami! Qoyilman! Tabriklayman sizni.

– Men ham sizni tabriklayman. Mallalar haqidagi yuqirdirmangiz beqiyos va muvaffaqiyatli chiqqan.

– Oshnangizni hozir ko'rasiz, – dedi Jons – U iniga urib ketishda mendan chaqqonroq ekan. Mana endi qo'llaringizga kishan uraman.



– Iflos qo‘llaringizni tegizmang, mumkin bo‘lsa! Menga tegmang! – dedi bandimiz qo‘liga kishan urilgach.

– Siz hoynahoy mening tomirlarimda qirollar qoni oqayotganidan bexabar bo‘lsangiz kerak. Mumkin bo‘lsa, menga murojaat qilayotganingizda «ser», deb atab, «mumkin bo‘lsa», deb iltimos qiling.

– Juda soz, – dedi Jons zaharxanda bilan. – Mumkin bo‘lsa, ser, yuqoriga chiqib kebga marhamat qilsangiz, u siz tabaruklarni politsiyaga olib boradi.

– Ha, bu boshqa gap, – dedi Jon Kley xotirjam.

U bizga salobat bilan bosh irg‘ab, iztopar qo‘riqchiligida bamaylixotir chiqib ketdi.

– Mister Xolms, – dedi Merriuezer bizni ombordan boshlab chiqayotib, – bankimiz sizning bu xizmatlaringizga qay tariqa minnatdorchilik bildirishi kerakligini bilolmay turibman gapning rosti. Siz katta bir o‘g‘irlikning oldini olib qoldingiz.

– Mening o‘zim ham mister Jon Kley bilan orani ochiq qilib qo‘yishim kerak edi, – dedi Xolms. – Bugun ishga sarflagan xarajatlarim unchalik ko‘p emas, sizning bankingiz ularni shakshubhasiz to‘lasa kerak, zotan, rostini aytganda, men Mallalar uyushmasi haqidagi ajoyib qissani eshitarkanman, beqiyos bir sarguzashtni boshimdan kechirib, yaxshigina bir mukofotga sazovor bo‘ldim...

– Bilasizmi, Uotson, – deb tushuntirdi erta nahorda Sherlok Xolms, biz Beyker-stritda bir stakandan sodali viski ichib o‘tirarkanmiz. – Mallalar uyushmasi haqidagi aql bovar qilmaydigan bu e‘lon bilan «Britaniya qomusini ko‘chirib yozishdan kuzatilgan birdan-bir maqsad kaltafahm bo‘nak kassasi egasining har kuni bir necha soat uyidan chiqarib yuborish uchungina kerak bo‘lgani menga avval boshdanoq aniq ma‘lum edi. Ular tanlagan vosita g‘alati-yu, biroq bu vositaga amal qilib ular maqsadlariga erishishibdi. Boshdan-oyoq bu rejani tuzishda Kleyning serishtiyoy zehniga sherigi sochining rangi turtki bo‘lgan. Haftasiga to‘rt funt Uilson uchun tuzoq vazifasini bajargan, ular minglarcha funtdan umidvor ekan, to‘rt funtning yuziga



borisharmidi! Ular gazetaga e'lon berishgan, bir firibgar idora uchun vaqtincha ijaraga joy olgan, ikkinchi firibgar o'z xo'jayinini u yerga borishga ko'ndirgan, ikkovlari har kuni ertalab uning yo'qligidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Yordamchisi yarim maoshga rozi bo'lib, shu bilan qanoatlanganini eshitishim bilanoq buning tagida biror gap borlingini payqadim.

– Ammo ularning niyatlarini qanday bildingiz?

– Malla mijozimizning muassasi – qashshoq, uning butun kvartirasida shu qadar murakkab o'yinga hech arzigulik narsa yo'q. Binobarin, ular kvartiradan tashqaridagi biron narsani ko'zda tutishgan. Bu nima bo'lishi mumkin edi? Men yordamchisining surat olishga ishqiboz ekanligini, bu ishqibozlik bahonasida nima uchundir yerto'laga tushib turishini esladim. Yerto'la! Mana chigal ipning ikkinchi uchi. Men Uilsondan uning sirli yordamchisini surishtira-surishtira, Londondagi eng sovuqqon, dovyurak jinoyatchilardan biriga to'qnash kelib qolganimni payqadim. U yerto'lada qandaydir murakkab ish bilan band, nega deganda, ikki oydan beri yerto'lada har kuni bir necha soatlab ishlarkan. U yerda nima qilishi mumkin? Faqat bir ish: allaqanday boshqa binoga olib boradigan lahim qaziyotgan bo'lishi kerak. Shunday xulosaga kelgach, men sizni boshlab shu voqealar bo'layotgan joy bilan tanishgani jo'namdim. Hassam bilan toshko'chani urib ko'rganimda siz taajjublandingiz. Men esa lahimning qay tomonga qarab qazilayotganini – ko'cha tomongami yoki orqa tomongami, shuni bilmoqchi edim. Ma'lum bo'ldiki, lahim ko'cha tomondan qazilmayotgan ekan. Men borib qo'ng'iroqni chaldim. Kutganimdek, eshikni yordamchisi ochdi. Shungacha u bilan uncha-muncha to'qnash kelgan bo'lsak-da, ammo bir-birimizning yuzimizni ko'rma-gan edik. Bu gal ham men uning yuziga qaramadim. Tizzalarinigina ko'rmoqchi edim. Tizzalarining iflos, g'ijimlangan, qirilganligini ko'rsangiz siz ham payqashingiz mumkin edi. Bu ko'p soatlar davomida lahim qazish bilan band bo'lganidan guvohlik berib turardi. Endi bu lahimni qayoqqa ketayotganini aniqlashgina qolgan edi. Men muyulishdan burilishim bilan shahar va shahar atrofi bankining lavhasini ko'rdim-u masala,



hal bo'lganini fahmladim. Konsertdan so'ng, siz uyingizga ketgach, men Skotlend-Yardga bordim, u yerdan esa bank boshqarmasi raisining huzuriga qarab jo'nadim.

– Siz ularning bankni, xususan, shu kecha talashga urinishlarini qayoqdan bildingiz? – deb so'radim men.

– Mallalar uyushmasining idorasini yopish bilan ular mister Jebez Uilsondan xoli bo'lishga ortiqcha muhtoj emasliklarini, boshqa so'z bilan aytganda, lahimni qazib bo'lganliklarini bildirishdi. Bundan shu narsa ma'lum ediki, ular lahimdan tezroq foydalanib qolishga harakat qiladilar, chunki, birinchidan, uni ko'rib qolishlari, ikkinchidan esa oltinni boshqa joyga olib borib qo'yishlari mumkin edi. Shanba ular uchun ayniqsa qulay kun edi, negaki qochishlari uchun bir kecha-kunduz ortiq vaqt berar edi. Mana shu mulohazalarning hammasi asosida men, o'g'irlik yaqin bir kechada sodir bo'ladi, degan xulosaga keldim.

– Bu mulohazalaringiz g'aroyib! – dedim zavq bilan samimiy. – Siz o'z fikrlaringizni uzun zanjirdek shunday tizgansizki, uning har bir bo'g'ini mustahkam.

– Bu hodisa meni diqqatbozlikdan xalos qildi, – deb qo'ydi Sherlok Xolms esnab. – Attang, yana zerikib, diqqatim oshib kelayotibdi, shekilli! Mening butun umrim – kundalik hayotimizning bir xilda diqqinafaslik bilan o'taverishiga chap berishga harakat qilishdan iborat. Ba'zan men hal qiladigan kichkina jumboqlar shu maqsadga erishishimga yordam beradi.

– Siz insoniyatning chinakam valine'matisiz, – dedim men. Xolms kiftini qisdi: – Darhaqiqat, uncha-muncha foyda keltir-sam kerak. «L homme c'est rien – l'oeuwe c'est tout»¹¹ degan ekan Gyustav Flober Jorj Sandga¹² yozgan xatida.

¹¹ «Odam – hech narsa emas, gap – ishda» (fransuzcha).

¹² Gyustav Flober va Jorj Sand (Avrora Dyude van) XIX asrdagi mashhur fransuz adiblari.

BOSKOM VODIYSINING SIRI

Bir kuni ertalab rafiqam ikkovimiz nonushta qilayotsak, oqsoch xotin menga Sherlok Xolmsdan kelgan telegrammani berdi:

«Ikki kungina vaqtingizni ajratolmaysizmi? Boskom vodiysidagi fojia munosabati bilan meni Angliyaning g'arbiga chaqirtirishibdi. Birga ketsangiz xursand bo'lardim. U yerning manzarasi, ob-havosi ajoyib. Paddingtondan 11.15 da yo'lga chiqing.

– Borasanmi? – deb muloyimgina tikilib so'radi xotinim.

– Qaydam, bilmadim. Hozir bemorlarim juda ko'p...

– O, Anstruzer ularning hammasini qabul qiladi! Keyingi paytlarda juda charchaganga o'xshaysan. Safar senga yoqadi. Bundan tashqari, sen Sherlok Xolms qo'lga oladigan har bir ishga juda qiziqasan.

Afg'onistondagi lager hayotida orttirgan tajribamning aqalli shunday afzalligi bor ediki, men chiniqqan va chaqqon sayohatchi bo'lib qolgan edim. Safarga oladigan buyumlarim kam bo'lgani uchun bir zumda sakvoyajimga¹³ joyladim-u kebga mo'ljalimdan ilgariroq tushib, g'izillagancha Paddington vokzaliga jo'nadim. Sherlok Xolms platforma bo'ylab yurar, ustidagi kulrang yo'l kiyimi bilan movut kepkasi uning ozg'in va novcha gavdasini yana ham ozg'inroq va novcharoq qilib ko'rsatar edi.

– Kelganingiz juda ajoyib bo'ldi-da, Uotson, – dedi u. – Orqa qilishim mumkin bo'lgan odam yonimda bo'lsa, o'zimni butunlay boshqacha sezaman. Mahalliy politsiya yo hech narsa qilmayapti, yoki yanglish izga tushib qolgan. Siz ikki burchakdagi joyni egallab tursangiz, men chipta olib kelaman.

Biz kupega kirib o'tirdik. Xolms olakelgan gazetalarni o'qiy boshladi; u ahyon-ahyonda boshini ko'tarib, nimalarnidir yozib qo'yar va o'y surib qolar edi.

¹³ Sakvoyaj – safar xaltasi.



Shu tariqa biz Redingga yetib bordik. Tuyqusdan u hamma qog'ozlarni g'ijimlab yumaloqladi-da, tepadagi yuk to'riga irg'itdi.

– Siz bu ish to'g'risida hech eshitganmidingiz? – deb so'radi u.

– Bir og'iz ham. Bir necha kundan beri gazeta ko'rmayman.

– London matbuoti u qadar mufassal hisobotlar bosib chiqargani yo'q. Tafsilotlari bilan tuzukroq tanishish uchun hozirgina gazetalarning so'nggi sonlarini ko'rib chiqdim. Bu, aftidan, yechilishi hamisha qiyin bo'ladigan oddiy hodisalardan biri, shekilli.

– So'zlaringiz biroz g'alatiroq eshitalayotibdi.

– Ammo bu haqiqat. G'ayrioddiy ko'ringan narsalarda deyarli hamisha sirni ochish imkoniyatini beradigan kalit yashiringan bo'ladi. Jinoyat naqadar oddiy bo'lsa, haqiqatni aniqlab olish shu qadar mushkul bo'ladi... Xullas, marhumning o'g'liga jiddiy ayb to'nkalgan.

– Demak, bu suiqasd ekan-da?

– Ha, shunday deb taxmin qilishyapti. Men to ish bilan tanishmagunimcha biron narsa deyo olmayman. Lekin masalaning qay yo'sinda ekanligini qanday tasavvur qilayotganimni birikki og'iz so'z bilan tushuntirib beraman sizga...

Boskom vodiysi – Xirfordshirda, Ross yaqinidagi qishloq. O'sha atrofdagi eng katta yer egasi – mister Jon Tener. U Avstraliyada sarmoya orttirib, bir necha yil muqaddam yurtiga qaytib kelgan. U o'z fermalaridan biri Xazerleyni mister Charlz Mak-Kartiga ijaraga bergan. Unisi ham sobiq avstraliyalik. Ular mustamlakalarda tanishganlar, shuning uchun yangi joyga ko'chib kelgach, bir-birlariga yaqinroq o'rnamashganlariga ajablanmasa ham bo'ladi. To'g'ri, Tener badavlatroq, shuning uchun ham Mak-Karti uning ijaradori bo'lib qolgan, ammo ular do'stona munosabatlarini buzmagani bo'lsalar kerak. Mak-Kartining sakkiz yashar o'gli, Tenerning esa u bilan tengqur bittay-u bitta qizi bor, ikkala cholning ham xotini o'lgan. Ular, aftidan, ingliz oilalari bilan tanishishdan qochganlar, tanholikda



umr kechirganlar, zotan, ota-bola Mak-Kartilar sportni sevar, yaqin orada bo'ladigan poygalarga tez-tez borib turar ekanlar. Mak-Kartilarning xizmatkori va oqsochi bor ekan. Tenerning xo'jaligi katta bo'lib, besh-olti xizmatkori bor ekan. Bu oilalar haqida bilib olishga muvaffaq bo'lganlarim shular, xolos. Endi sodir bo'lgan hodisaga kelaylik.

Uchinchi iyun kuni, ya'ni o'tgan dushanbada, Mak-Karti kunduz soat uchda Xazerleydagi uyidan chiqib, Boskom kamariga qarab yo'l olgan. Bu Boskom vodiysidan oqib o'tadigan jilg'a toshganidan paydo bo'lgan kichikroq bir ko'l. Ertalab u Rossiga borib xizmatkoriga juda shoshib turganini, soat uchda muhim bir uchrashuvi borligini aytgan. U o'sha uchrashuvdan qaytib kelmagan. Xazerley fermasi bilan Boskom kamarining orasi chorak milya keladi. Makkarti o'sha yoqqa ketayotganda uni ikki odam ko'rgan ekan. Birinchisi kampir, uning nomi gazetalarda eslanmagan, ikkinchisi mister Tenerning o'rmonchisi Uilyam Krauder.

Ikkala guvoh ham, mister Mak-Karti yolg'iz ketayotgan edi, deb guvohlik bergan. O'rmonchi mister Mak-Karti bilan uchrashgach, saldan keyin uning o'g'li Jeyms Mak-Kartini ko'rganini ilova qilishgan. Yigitning qo'lida miltig'i bor ekan. O'rmonchi, u otasi ketgan yo'ldan ketdi, deb ta'kidlagan. Bu uchrashuv o'rmonchining xayolidan ko'tarilayozgan ekan-ku, ammo kechqurun sodir bo'lgan fojiani eshitgach, hammasi esiga tushibdi.

Ikkala Mak-Kartini Uilyam Krauderdan keyin boshqalar ham ko'rganlar. Boskom kamarining atrofi qalin o'rmon bilan qurshalgan, qirg'oqlari esa qamish bilan qoplangan. Boskom molikonasi darvozabonining qizi, o'n to'rt yashar Peshens Moran qo'shni o'rmonda gul terib yurgan ekan. U ko'lning yaqinasida mister Mak-Karti bilan uning o'g'lini ko'rganini aytgan. Nazarida ular bir-birlari bilan qattiq aytishayotgandek tuyulganmish. U Mak-Kartining o'g'liga o'dag'aylab baqirganini eshitganmish. O'g'li esa otasini urmoqchi bo'lib, qo'l ko'targanini ko'rganmish. Qizcha buni ko'rib esxonasi



chiqib ketganidan uyiga qarab yuguribdi, onasiga o'rmondagi kamar oldida ota-bola Mak-Kartilar bir-birlari bilan janjallashib qolganini, falokat bosib urishib ketishmasa, deb qo'rqqanini aytganmish. Qizcha shularni aytib ulgurmasdanoq yosh Mak-Karti qorovulxonaga yugurib kirib, otasining o'rmonda o'lib yotganini ko'rganini aytib, darvozabonni yordamga chaqiribdi. U g'oyatda hayajonlangan, miltiqsiz, shlyapasiz ekan; o'ng qo'li bilan yengida ho'l qon yuqi bor ekan. Unga ergashib darvozabon suv labidagi o't ustida cho'zilib yotgan murdaning oldiga boribdi. Marhumning bosh suyagi allaqanday vazmin, to'mtoq qurol bilan majag'langan ekan. Bunday jarohat o'g'li miltiq qo'ndog'i bilan urish oqibatida yuzaga kelishi mumkinmish. Miltiq marhumdan bir necha qadam narida, o't orasida yotganmish. Bu qat'iy dalillar asosida yigitni darhol qamoqqa olishibdi. Seshanba kuni tergovchilar: «O'ylab qilingan suiqasd», deb dastlabki hukm chiqarishibdi; chorshanba kuni Jeyms Mak-Karti Rossdagi chakana ishlar sudiga chaqirilibdi, sud ishni ko'rib chiqishni maslahatchilar sudiga havola qilibdi. Tergovchi bilan politsiyaga ma'lum bo'lgan asosiy faktlar shulardan iborat.

– Bundan qabihroq ishni tasavvur qilish qiyin, – dedim men. – Agar qachon bo'lmasin bilvosita isbotlar jinoyatchini fosh qilgan bo'lsa, xuddi ana shu ish bunga misol bo'la oladi.

– Bilvosita isbotlar yanglishtirib qo'yishi mumkin, – dedi Xolms o'y surgancha. – Ular bir tomonnigina mutlaqo ravshan ko'rsatishlari mumkin, ammo siz bu isbotlarni tahlil qilishga qodir bo'lsangiz, aslida, ular bizni ko'pincha haqiqatga qarab emas, butunlay boshqa tomonga olib ketayotganiga amin bo'lasiz. To'g'ri, hozir ish o'sha yigitga qarshi qaratilgan: jinoyatchi u bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Biroq bir to'da qo'shnilar, ular orasida yer egasining qizi miss Tener ham bor, yigitning begunohligiga amin ekanlar. Miss Tener sudlanuvchini himoya qilish uchun Lestreydni taklif etibdi, u esingizda bo'lsa kerak? Lestreyd yigitni himoya qilishni juda mushkul hisoblab, bu ishni menga topshirdi, mana endi ikki o'rta yashar jentlmen



uylarida bemalolgina nonushta qilib o'tirish o'rniga soatiga ellik milya tezlikda g'arbga tomon oshiqmoqda.

– Qo'rqamanki, faktlar g'oyat asosli, bu ishda ustun chiqish uchun imkoniyatlaringiz juda cheklangan bo'ladi, – dedim men.

– Dunyoda kishini ayon ko'rinib turgan faktdan ko'ra aldab qo'yadiganroq narsa yo'q, – deb javob berdi Xolms kulib. – Bundan tashqari, biz mister Lestreydga ayon-oshkor bo'lmagan ba'zi bir oshkora faktlarga tasodifan duch kelib qolishimiz mumkin. Siz meni juda yaxshi bilasiz, buni maqtanchoqlik deb o'ylamassiz. Men Lestreyd to'plagan dalillardan foydalanaman yoki ularni mutlaqo inkor etaman, chunki o'zi ulardan foydalanishdan ham, ularni tahlil qilishdan ham g'oyatda ojiz. Chunonchi, miyamga kelgan birinchi fikrni olib ko'raylik: menga mutlaqo aniqki, sizning yotoqxonangizning derazasi o'ng tomonda, ammo mister Lestreydning hatto shunday ochiq-oydin faktni ham payqashiga uncha amin emasman.

– Darhaqiqat, buni qanday qilib bildingiz?..

– Aziz do'stim, men siz bilan ko'pdan beri tanishman. Sizga xos bo'lgan g'arbiy intizomni yaxshi bilaman. Siz har kuni ertalab soqolingizni olasiz, yilning bu faslida esa quyoshning yorug'ida yulasiz; yuzingizning chap tomoni o'ng tomoniga qaraganda yomonroq qirilgan, chapga surilgan sari yomonroq, nihoyat, bora-bora pala-partish qirilgan. Yaqqol ko'rinib turibdiki, yuzingizning bu qismiga narigi tomonga qaraganda kamroq yorug' tushgan. Sizga o'xshagan tartibli odamning hammayoqdan barobar yorug' tushib turganda oynaga qarab soqolini chala qirishini aslo tasavvur etolmayman. Men buni kuzatuvchanlik, xulosalar chiqara bilishga oddiygina misol sifatida keltirayotibman. Mening hunarim shundan iborat, bu o'tkazadigan tekshirishimizda ish berib qolsa ham ajab emas. So'roq vaqtida ma'lum bo'lgan bir-ikkita mayda-chuyda detal-lar bor. Ular diqqatga sazovor.

– Nima ekan bular?



– Yosh Mak-Kartini o'sha zahotiyiq emas, sal keyinroq, Xazerleydagi fermaga qaytib kelganidan keyingina qamoqqa olganlar. Politsiya inspektori, siz qamoqqa olindingiz, desa, bu meni sira ham taajjublantirmaydi, men baribir jazolanishga sazovorman, deb javob beribdi u! Uning bu so'zlari o'z ta'sirini ko'rsatib tergovchining ko'nglidagi oxirgi gumonlar ham barham topibdi.

– Bu iqrar bo'lish-ku! – deb xitob qildim.

– Yo'q, keyin u o'zining mutlaqo gunohsiz ekanligini aytibdi.

– Shuncha asosli dalillardan keyin bu shubhali ko'rinadi.

– Aksincha, – dedi Xolms, – bu qora bulutlar orasida men ko'rayotgan birdan-bir shu'la. Axir u o'z zimmasiga qanday og'ir shubhalar tushayotganini bilmasligi mumkin emas-ku. Bordi-yu, qamoqqa olinishini eshitganda u o'zini taajjublangan yoki g'azablangan qilib ko'rsatsa, bu menga nihoyat darajada shubhali bo'lib ko'rinardi, chunki shunday vaziyatda bu tariqadagi taajjub yoki norozilik mutlaqo yasama bo'lardi. Bunday xatti-harakat uning nosamimiyligidan guvohlik berishi mumkin edi. Qamoqqa olinish paytida uning o'zini soddagina tutishi yo uning mutlaqo gunohsiz ekanligidan, yoinki, aksincha, zo'r saboti, matonatidan darak beradi. Uning, qamalishga sazovorman, degan javobiga kelsak, bu ham mutlaqo tabiiy, chunki u farzandlik burchini shu qadar unutib, otasiga dag'allik qilgan. Qizaloqning ta'kidlashicha – uning shohidliklari muhim ahamiyatga ega – otasiga musht o'qtalgan. Uning o'kinib vijdoni azob chekayotganidan darak beruvchi javobini men jinoiy niyatlar dalili emas, balki odob-axloq belgisi deb bilaman.

Men bosh chayqab:

– Ko'plarni bunday dahshatli dalillarsiz ham dorga osib yuborishgan, – deb qo'ydim.

– Gapingiz to'g'ri. Ularning orasida gunohsizlari ham ko'p bo'lgan.

– Yigitning o'zi qanday dalillar ko'rsatibdi?

– Uning dalillari himoyachilarga uncha dalda bermaydi, zotan bir-ikkita ijobiy nuqtalari ham bor. Siz ularni gazetadan o'qib ko'rishingiz mumkin.



U papkasidan Hartfordshir mahalliy gazetalaridan bir nechtasini olib, sahifalarni bukladi-da, baxtsiz yigit bo'lib o'tgan voqealarni dalillab bergan izohlarni qayd etuvchi satrlarni ko'rsatdi. Men kupening burchagiga o'tirib olib, diqqat bilan o'qishga kirishdim. U yerda quyidagi so'zlar yozilgan edi.

Shundan so'ng marhumning yolg'iz o'g'li mister Jeyms Mak-Karti chaqirildi. U quyidagi shohidliklarni berdi:

– Men uch kundan beri uyda yo'q edim: Bristolda edim, o'tgan dushanba, uchinchi kuni ertalab qaytib keldim. Kelsam, otam uyda yo'q ekan, oqsoch xotin uning otboqar Jon Kobb bilan Rossiga ketganini aytdi. Oradan biroz o'tgach, otam aravachasining g'ildiragi g'ijirlayotganini eshitib derazadan qaragan edim, uning hovlidan g'izillab chiqib ketayotganini ko'rdim, qayoqqa ketayotganini bilmasdim. Keyin quyonlar yashaydigan yalanglikni ko'zdan kechirish uchun Boskom kamariga borishga qaror qildim: yalanglik ko'lining narigi betida joylashgan. Yo'lda o'rmon qorovuli Uilyam Krauderni uchratdim, buni u bergan shohidliklarida aytgan: biroq u meni, otasining izidan quvib ketayotgan edi, deb yanglishadi. Otamning mendan oldinroqda ketayotgani xayolimga ham kelgan emasdi. Kamarga yetishimga yuz qadamcha qolganda «Kou!» degan xitobni eshitdim, otam bilan ikkovimiz, odatda, bir-birimizni shunday deb chaqirardik. O'sha zahotiyiq oldinga qarab yugurdim. U kamar yoqasida turgan ekan. U meni ko'rib juda taajjublandi, shekilli, bu yerda nima qilib yuribsan, deb o'dag'aylab berdi. Gapimiz g'ijillashishgacha yetib bordi, urishib ketishimizga ham sal qoldi, chunki otam g'oyatda jizzaki odam edi. Uning qahr-g'azabi qaynayotganini ko'rib, undan nari ketishga qaror qildim-u Xazerlay fermasiga qarab yo'l oldim. Yuz ellik qadamcha ham yurmagan edimki, orqamdam jon achchig'ida qichqirgan ovozni eshitib yuragim shuvillab ketdi-da, yana orqamga qarab chopdim. Qarasam, otam yerda cho'zilib yotibdi, boshi yorilgan, joni uzilay deb turibdi. Miltig'im qo'limdan tushib ketdi, otamning boshini ko'tardim, xuddi shu daqiqada joni uzildi. Men marhumning oldida bir



necha daqiqa tiz cho'kib turdim, keyin yordam so'rab mister Tenerning darvozaboni huzuriga bordim. Darvozabonning uyi boshqalarga qaraganda yaqinroq edi. Otamning qichqirganini eshitib qaytib kelganimda uning oldida hech kim yo'q edi, uni kim o'ldirganini tasavvur ham qila olmayman. Uni kamdankam odam tanir, chunki u tabiatan odamovi, tund kishi edi. Ammo, har qalay, bilishimcha, uning chinakam dushmanlari yo'q edi.

T e r g o v c h i: Otangiz o'limi oldidan sizga hech narsa dema-dimi?

G u v o h: U ming'illab bir necha so'z aytdi-yu, men faqat so'zga o'xshagan iborani payqab qoldim.

T e r g o v c h i: Sizningcha, bu nima bo'lishi mumkin?

G u v o h: Bilmadim. Alahlagan bo'lishi mumkin.

T e r g o v c h i: Afsuski, men javob berishingizni talab qilishga majburman.

G u v o h: Men bo'lsam bu savolga javob berolmayman. Sizni ishontirib aytamanki, suhbatimiz keyin yuz bergan mudhish fojiaga mutlaqo aloqasiz edi.

T e r g o v c h i: Buni sud hal qiladi. Javob berishdan bosh tortishingiz maslahatchilar sudining sayyor sessiyasi oldida javob berayotganingizda sizga ziyon keltirishini tushuntirib o'tirish ortiqcha bo'lsa kerak.

G u v o h: Harqalay, men javob bermayman.

T e r g o v c h i: Aftidan, otangiz bilan ikkovingiz hamisha bir-birlaringizni «Kou!» deb chaqirib yurgan bo'lsalaringiz kerak?

G u v o h: Ha.

T e r g o v c h i: Otangiz qanaqasiga hali sizni ko'rmasdanoq, hattoki Bristoldan qaytib kelganingizni bilmasdanoq shartli chaqiriqni aytib chaqirgan?

G u v o h: (juda xijolat bo'lib) Bilmadim.

M a s l a h a t c h i: Otangizning qichqirganini eshitib yugurib kelgach, uning qaltis yaralanganini ko'rarkansiz, ko'zingizga bironta shubhali narsa tashlanmadimi?



G u v o h: Arziydigan biror narsani ko'rganim yo'q.

T e r g o v c h i: Bu bilan nima demoqchisiz?

G u v o h: Men o'rmondan yugurib chiqqanimda shu qadar hayajonlangan, qo'rqib ketgan edimki, otamdan boshqa hech narsani o'ylamasdim. Harqalay, o'sha paytda chap tomonimda yerda nimadir yotgani g'ira-shira yodimda. Nazarimda, allaqanday kulrang libos yotganday edi, ehtimol, adyoldir. Bir vaqt o'rimdan turib o'sha narsani ko'rmoqchi bo'lib qarasam g'oyib bo'lib qolibdi.

– Siz uni yordam so'ragani jo'naganingizdan oldin g'oyib bo'lgan, deb o'ylaysizmi?

– Ha, oldin g'oyib bo'lgan.

– U narsaning nimaligini aniq aytib berolasizmi?

– Yo'q, shunchaki, nazarimda u yerda bir narsa yotganga o'xshab ko'ringan edi.

– Marhumdan qancha narida?

– O'n qadamcha narida.

– O'rmondan qancha masofa berida?

– Taxminan shuncha masofa berida.

– Demak, bu narsa g'oyib bo'lganida sizdan yigirma qadamcha narida ekan-da?

– Ha. Men unga orqa o'girib turgan edim.

Shu bilan guvohni so'roq qilish tugaydi.

– Menga shu narsa ayon bo'ldiki, – dedim gazetaga ko'z tashlab, – so'roq oxirida tergovchi yosh Mak-Kartiga nisbatan mutlaqo ayovsiz bo'lgan. U o'g'lining bergan shohidligidagi ziddiyatlarni – otasi o'g'li kelganini bilmay turib uni chaqirganini, shuningdek, otasi bilan qilgan suhbatning mazmunini aytib berishdan bosh tortganini, keyin marhumning so'nggi so'zlarini g'alati izohlaganini juda asosli ravishda ta'kidlagan. Tergovchi ta'kidlab o'tganidek, bularning hammasi marhumning o'g'liga qattiq shikast yetkazishi mumkin.

Xolms qulay divanda cho'zilib yotganicha, jilmayib shunday dedi:



– Tergovchi bilan ikkovlaringning ham bir kamchiliklaring bor: yigitning shohidliklaridagi hamma ijobiy narsalarni inkor etayotibsizlar. Uning farosatini goh juda zo‘raytirib, goh juda kamaytirib yuborayotganingizni nahotki payqamayotgan bo‘lsangiz? Bordi-yu, maslahatchilarda o‘ziga nisbatan xayrixohlik uyg‘otishga qodir janjal sabablarini o‘ylab topolmagan bo‘lsa – farosatsiz, bordi-yu, marhumning kalamush haqidagi so‘zlarini eslatib, g‘oyib bo‘lib qolgan kiyim haqidagi uydirmani o‘ylab topishgacha borib yetgan bo‘lsa – juda farosatli ekan, demoqchisiz. Yo‘q, ser, men shunday nuqtayi nazarga amal qilamanki, yigit aytgan gaplarning hammasi – rost. Bu faraz bizni nimaga olib boradi, hali ko‘ramiz. Endi men cho‘ntakda olib yuradigan Petrarkamni¹⁴ o‘qiyman. Hodisa sodir bo‘lgan joyga yetib bormagunimizcha bu ish haqida bir og‘iz ham gaplashmaymiz. Ikkinchi nonushtani Suindonda qilamiz. Meningcha, u yerga yigirma daqiqadan keyin yetsak kerak.

Biz ajoyib Straud vodiysi va jimirlab turgan keng Severn daryosidan o‘tib, nihoyat, so‘lingina ovloq shaharcha Rossga kirib bordik. Sassiqlikuzanga o‘xshagan, juda bosiq, pishiq-puxta kiyingan ayyor ko‘zli pakanagina bir odam bizni platformada kutib turardi. Garchand u qishloq joy uchun mos deb yalangqavat jigarrang kamzul va etik kiyib olgan bo‘lsa-da, uning Skot-Lend-Yardda xizmat qiladigan Lestreyd ekanini bir ko‘rishdayoq payqadim. Biz u bilan «Xirford Armz» mehmonxonasiga borib tushdik, bizga xonalar olib qo‘yilgan ekan.

– Men kareta tayinlaganman, – dedi Lestreyd bir chinni-oyoqdan choy ichayotganimizda. – Sizning ishchanligingizdan xabardorman. Axir siz jinoyat sodir bo‘lgan joyga yetib borguncha tinib-tinchimaysiz-ku.

– Bu gaplaringiz uchun shoyon tahsin, – deb javob berdi Xolms. – Endi hamma narsa barometrning nimani ko‘rsatishiga qarab qoldi.

Lestreyd g‘oyatda taajjublandi.

– Fikringizni yaxshi tushunolmadim, – dedi u.

¹⁴ Petrarka Franchesko (1304 – 1374) – mashhur italyan gumanist shoiri.



– Barometr nimalarni ko‘rsatayotibdi. Yigirma to‘qqiz, shamol yo‘q, osmonda bir parcha ham bulut ko‘rinmaydi – yomg‘ir yog‘maydi. Mening esa bir quti sigaretim bor, ularni chekib bo‘lishim kerak. Qolaversa, bu yerdagi divan qishloq mehmonxonalarining odatdagi rasvo divanlaridan ko‘ra xiylagina durust. O‘ylaymanki, bugun kechqurun karetdan foydalalanolmasam kerak.

Lestreyd iltifot bilan kulib qo‘ydi.

– Siz, albatta, gazetadagi hisobotlarni o‘qiganingizdan keyin biron xulosaga kelib qo‘yganga o‘xshaysiz, – dedi u. – Bu ish xuddi charog‘on kundek ochiq-oydin, unga qanchalik chuqur kirib borsang, shunchalik oydinlasha boradi. Lekin, albatta, ayol kishining, ayniqsa go‘zal bir ayolning iltimosini yerda qoldirsa bo‘lmas. U sizning ta‘rifingizni eshitgan ekan, zotan men allaqachon qo‘l urgan ishga sizning sira ham bosh qo‘shmasligingizni unga ko‘p marta aytishimga qaramay sudlanuvchini himoya qilish uchun xuddi sizni taklif qilmoqchi bo‘ldi. Yo rabbiy! Eshikka uning ekipaji kelib to‘xtadi.

U shunday deyishi bilanoq xonaga bir qiz yugurib kirdi, men bunday dilbar qizni umrim bino bo‘lib ko‘rmagan edim. Moviy ko‘zlari charaqlar, dudoqlari xiyol ochilgan, yonoqlarida latif nimpushti qizillik o‘ynar edi. Qattiq hayajonlanganidan odatdagi bosiqligini unutib qo‘ygan bo‘lsa kerak.

– O, mister Sherlok Xolms! – deya xitob qildi u, goh unga, goh menga qarab, nihoyat, ayollarga xos savqi tabiiysi bilan nazarini do‘stimda to‘xtatib, – kelganingizdan g‘oyat xursandman! Sizga shuni aytgani keldim. Ishonamanki, Jeymsning gunohi yo‘q. Siz menga ma‘lum bo‘lgan narsalar bilan tanishib ishga kirishingiz kerak. Zarracha ham shubhalana ko‘rmang. Biz u bilan bolaligimizdan do‘stmiz. Men uning qilmishlarini hammadan ko‘ra yaxshi bilaman, ammo uning ko‘ngli shu qadar yumshoqki, chumoliga ham ozor bermaydi. Jeymsni yaxshi biladiganlarning hammasiga ham unga bunday ayb qo‘yilishi juda tuturuqsiz tuyulayotibdi.



– Umid qilamanki, biz uni oqlashga muvaffaq bo‘lamiz, miss Tener, – dedi Sherlok Xolms. – Ishoning imkonim boricha harakat qilishga tirishaman.

– Siz hisobotlarni o‘qidingizmi, sodir bo‘lgan hodisalar haqida ma’lum bir fikrga kelib qo‘yganmisiz? Bironta najot yo‘lini ko‘rayotibsizmi? Uning gunohsiz ekanligiga o‘zingiz aminmisiz?

– Men, shunday bo‘lishi mumkin, deb hisoblayman.

– Xayriyat-ey! – deya xitob qildi u boshini mag‘rur ko‘tarib va Lestreydga pisanda bilan tikilib. – Eshitdingizmi? Endi ko‘nglimda ishonch tug‘ildi.

Lestreyd kiftini uchirdi.

– Qo‘rqamanki, hamkasabam xulosa chiqarishda shoshi-layotibdi, – dedi u.

– Axir u haq-ku. O, men aminmanki, u haq! Jeyms jinoyat qiladiganlardan emas. Otasi bilan bo‘lgan janjalga kelsak, men bilaman: u tergovchiga bu to‘g‘rida menga daxldor joyi borligi uchun hech narsa aytmagan.

– Qanday qilib? – deb so‘radi Xolms.

– Hozir biron narsani yashirib qolishning mavridi emas.

Jeyms bilan otasi o‘rtasida mening vajimdan katta ko‘ngilsizliklar bo‘lib o‘tgan edi. Jeymsning otasi bizlarning birga turmush qurishimizni istardi. Jeyms bilan biz bir-birimizni hamisha aka-singildek yaxshi ko‘rardik, ammo u, albatta, hali juda yosh, turmushni yaxshi bilmaydi... Shu bilan... xo‘sh... xullas, tabiiyki, u uylanishni xayoliga ham keltirmagan edi. Shuning oqibatida janjal chiqib turardi, ishonamanki, bu safar ham o‘shanday janjallardan bo‘lgan.

– Sizning otangiz-chi? – deb so‘radi Xolms. – U sizlarning qovushishlarnigizni xohlarmidi?

– Yo‘q, u ham qarshi edi. Jeymsning otasidan boshqa hech kim buni istamas edi.

Xolms qizga o‘zining odatdagi sinchkov nazari bilan tikilarkan, uning sarin yuzini tutash qizillik qopladi.



– Bergan ma'lumotlaringiz uchun tashakkur, – dedi u. – Ertaga sizlarnikiga kirsam otangiz bilan ko'risha olamanmi?

– Doktor bunga ruxsat bermas deb qo'rqaman.

– Doktor?

– Ha, hali bundan xabaringiz yo'qmi? So'nggi yillarda otam sho'rlik betob bo'lib yurardi, ammo bu baxtsizlik uni batamom yiqitib qo'ydi. U yotib qoldi, doktor Villouzning aytishicha, boshiga tushgan bu musibatdan asabi qattiq qaqshaganmish. Dadamni bir mahallar Viktoriyada yashagan paytlaridan beri biladigan kishilardan hayot qolgani mister Mak-Kartigina edi.

– Hm! Viktoriyada? Bu juda muhim gap.

– Ha, oltin konlarida bo'lgan vaqtida.

– Mutlaqo to'g'ri, oltin konlarida bo'lgan vaqtida, fahmlashimcha, mister Tener sarmoyani ham o'sha yerda orttirgan bo'lishi kerak?

– Ha, albatta.

– Tashakkur sizga, miss Tener. Siz menga juda yaxshi yordam berdingiz.

– Ertaga bironta yangilik bo'lib qolsa, iltimos, xabar qilsangiz. Siz turmaga borib Jeymsni ko'rsangiz kerak albatta? O, agar ko'rsangiz, mister Xolms, aytingki, uning gunohsizligiga imonim komil.

– Albatta aytaman, miss Tener.

– Uyga tezroq borishim kerak, chunki dadamning kasali og'ir. Men bo'lmasam diqqat bo'lib ketadi. Xayr, Xudo sizga madadkor bo'lsin!

U xonaga qanday shoshib kirgan bo'lsa, shunday shoshgan-cha chiqib ketdi, mana, yo'lga tushgan ekipaj g'ildiraklarining taraqlashi eshitilmoqda.

– Meni uyatga qo'ydingiz, Xolms, – dedi kibr bilan Lestrsyd bir daqiqa jimlikdan so'ng. – Nega birovning qo'ynini puch umidlar bilan to'ldirasiz? Men bo'lar-bo'lmasga erib ketaveradiganlardan emasman-u, lekin siz juda shafqatsizlik qildingiz.

– Men Jeyms Mak-Kartini qutqarish yo'lini topgandekman, – dedi Xolms. – Sizda turmaga kirish uchun order bormi?



– Ha, ammo faqat ikkovimiz uchun.

– Unday bo'lsa, men uydan chiqmaslik to'g'risidagi qarorimdan voz kechaman. Biz mahbusni bugun kechqurun ko'ra olish uchun Xirfordga yetib bora olamizmi?

– Bemalol.

– Unda jo'naymiz! Uotson, siz zerikib qolasiz deb qo'rqa-man, ammo men ikki soatlarda qaytib kelaman.

Men ularni stansiyagacha kuzatib qo'yib, shahar ko'chalarini aylandim-da, nihoyat, mehmonxonaga qaytib kelib, chorpoyaga cho'zildim va oldi-qochdi bir romanni o'qiy boshladim. Biroq bu qissaning syujeti men ko'rib turgan mudhish fojia oldida juda ham bachkana edi. Xayolim hadeb kitobdan voqelikka qaytayotganini payqadim. Shuning uchun kitobni xonaning narigi burchagiga uloqtirib yubordim-da, shu bugun bo'lib o'tgan voqealar haqida o'y surib ketdim. Bordi-yu, bu baxtsiz yigitning bergan shohidliklarini mutlaqo haqqoniy deb faraz qilsak, u otasidan yiroqlashib, keyin uning qichqirganini eshitib, yana qaytib kelguncha o'tgan fursat ichida aql bovar qilmaydigan qanday nogahoniy falokat yuz berdi ekan? Mudhish, dahshatli bir hodisa yuz bergan bo'lishi kerak. Bu nima bo'lishi mumkin? Har qalay, vrach bo'lganligim uchun jarohatning xarakteri bilan tanishsam ish ayon bo'lsa kerak. Qo'ng'iroq chalib, hamma tergov materiallari batafsil bosilgan mahalliy gazetalarning oxirgi sonlarini so'rab oldim.

Xirurg bergan shohidliklardan aniqlanishicha, uchinchi ensa suyagi va gardan suyagining so'l qismi to'mtoq qurol bilan berilgan kuchli zarba oqibatida majag'lanib ketgan. Shubhasizki, bunday zarba faqat orqa tomondangina berilgan bo'lishi mumkin. Men boshimdagi o'sha joylarni paypaslab topdim. Muqarrar, bunday zarba faqat orqadangina berilishi mumkin. Bu ayblanuvchini bir qadar shubhadan xalos qilar edi, chunki janjal vaqtida uni marhum bilan yuzma-yuz turgan holda ko'rgan ekanlar. Ammo bunga ham ko'p ahamiyat berib bo'lmaydi, negaki otasi zarba yeyishdan oldin o'g'irilgan bo'lishi mumkin. Biroq Xolmsga shuni ham aytish kerak. Undan keyin menga ka-



lamushning eslatib o'tilishi ham juda g'alati ko'rindi. Bu nima bo'lishi mumkin? Har qalay, alahlash emas. Qo'qqisdan tushgan zarbadan o'layotgan odam hech qachon alahlamaydi. Yo'q, aftidan, u o'z o'limini qanday qarshi olganini izhor qilmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak. U nima demoqchi bo'ldi ekan? Uzoq o'ylab, bironta mos keladigan izoh topishga urindim. Shunda yosh Makkartining ko'ziga chalingan kulrang kiyim hodisasi-ni esladim. Chindan ham shunday bo'lgan bo'lsa, demak, qotil qochib ketayotib, biron narsasini, ehtimolki, paltosini tushirib qoldirgan. Yigit marhumning oldida tiz cho'kkan paytda orqa tomondan kelib, undan yigirma qadamcha narida tushib qolgan narsasini olib ketishdan tap tortmagan. Bu hodisada sirli va aql bovar qilmaydigan narsalar naqadar chalkashib ketgan.

Meni Lestreydning fikri taajjublantirmadi, ammo Xolmsning uzoqni ko'ra olishiga ham ishonardim, undan umidvor edim, shu vaqtgacha menga har bir yangi detal uning yosh Makkartining gunohsiz ekanligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlayotgandek bo'lib tuyulardi.

Xolms qaytib kelganda juda kech bo'lib qolgan edi. U yolg'iz, chunki Lestreyd shaharda o'rnatilganligi uchun o'sha yerda qolgan edi.

– Barometr hamon pastga tushayotibdi, – deb qo'ydi u o'ti-rayotib. – Hodisa sodir bo'lgan joyga yetib bormagunimizcha yomg'ir yog'ib qolmasa bo'lgani! Axir odam bunday ajoyib ishga aqli bilan qalbining butun kuch-quvvatini bag'ishlashi kerak. Rostini aytsam, uzoq yo'ldan toliqib kelib darhol ishga kirishmoqchi emasdim. Men yosh Makkarti bilan ko'rishdim.

– Siz undan nimalarni bildingiz?

– Hech narsani.

– Ish uncha ravshanlashmadimi?

– Aslo. Men u jinoyatchining nomini biladi, buni yashirayotibdi deb o'ylagan edim. Ammo endi aminmanki – bu narsa boshqalar uchun qanchalik jumboq bo'lsa, uning uchun ham shunchalik jumboq ekan. Yosh Makkarti uncha aqli emas, ammo juda yoqimtoy, nazarimda, u odobli axloqli yigitga o'xshaydi.



– Agar chindan ham miss Tenerday barno qizga uylangisi kelmagan bo'lsa, uning didiga qoyil qolmadim, – dedim men.

– E, buning zamirida g'oyatda ko'ngilsiz bir voqea bor! Qizni juda sevadi. Bundan ikki yil burun, qiz hali pansionda bo'lib, yigit o'smir ekanligida nima ish qilib qo'yganidan xabaringiz bormi? Bu merov Bristoldagi bir bufetchi xotinning tuzog'iga tushib qolib, u bilan nikoh ro'yxatidan o'tgan. Bu haqda hech kim hech narsa bilmaydi, o'zi jon-jon deb qilishi mumkin bo'lgan narsa vajidan, shunday qilmayotibsan, deb ta'nalar eshitish unga qanday azob berishini bir o'ylab ko'ring-a! Uni shu alam iztirobi chulg'aganda otasining Tener qo'lini so'rash haqidagi talabiga javoban musht ko'targan ekan. Ikkinchi tomondan, uning o'zini himoya qila olish imkoniyati yo'q, hammaning ta'kidlashiga qaraganda, qahri qattiq otasi mabodo bor gapni bilib qolsa, uni umrbod uyidan haydab chiqarishi mumkin ekan. Yigitcha so'nggi uch kunni o'zining bufetchi xotini bilan Bristolda o'tkazgan, otasi uning qayerda ekanligini bilmagan. Ishning shu jihatini eslab qo'ying, bu juda muhim. Ovi yurishmaganiga, qarangki, boshiga kelgan dovi joniga oro kiribdi. Gazetalardan erini og'ir jinoyatda ayblayotganlarini bilib, ehtimolki, uni tez orada osadilar, deb o'ylagan bufetchi xotin undan darhol voz kechgan, unga xat yozib, allaqachonlardan beri boshqa qonuniy eri borligini, uning Bermud doklarida¹⁵ yashashini, aslida o'zining mister Jeyms Mak-Kartiga hech qanday aloqasi yo'qligini izhor qilgan. O'ylaymanki, bu xabar yosh Mak-Karti chekkan barcha iztiroblarning ajri bo'lsa kerak.

– Agar bu gunohsiz bo'lsa, unda qotil kim bo'ldi?

– To'g'ri, unda qotil kim? Men sizning diqqatingizni shu ikki jihatga tortardim. Birinchisi, marhum kamar yoqasida kim bilandir uchrashishi kerak bo'lgan, lekin bu odam o'g'li bo'lishi mumkin emas, negaki u Bristolga ketgan, qachon qaytib kelishi esa noma'lum edi. Ikkinchisi, otasi o'g'lining qaytib kelganini bilmasidan burunoq «Kou!» deb qichqirgan. Buning oqibatini hal qiladigan asosiy nuqtalar... Keling, agar maylingiz

¹⁵ Dok – kemalar quriladigan va ta'mirlanadigan port inshooti.



bo'lsa, endi Jorj Meredithning¹⁶ ijodi haqida gaplashaylik, hamma ikkinchi darajali ishlarni ertaga qoldiraylik.

Xolms bashorat qilgandek yomg'ir yog'madi, bulutsiz yorqin tong otdi. Soat to'qqizda bizni olib ketgani karetda Lestreyd keldi, biz Xazerley fermasi va Boskom kamariga qarab jo'nadik.

– Jiddiy xabarlar bor, – dedi Lestreyd. – Aytishlaricha, Xolldagi mister Tenerning ahvoli tangmish, uzoqqa bormasa kerak, deyishayotganmish.

– U juda qari bo'lsa kerak-da? – deb so'radi Xolms.

– Oltmishlarga borgan, ammo u mustamlakalarda sog'ligini yo'qotgan, anchadan beri jiddiy kasal. Bunda shu ishning ham katta ta'siri bo'lishi kerak. U Mak-Kartining qarddon do'sti, qolaversa, uning chinakam valine'mati ekan. Keyin bilishimcha, undan Xazerley fermasi uchun ijara haqi ham olmas ekan.

– Shunaqa deng! Bu juda qiziq! – xitob qildi Xolms.

– Ha-da. Unga har turli yo'llar bilan yordam berarkan. Bu yerdagilarning hammasi, mister Tener marhumga juda mehribon edi, deydi.

– Nimalar deyapsiz o'zi! Uncha badavlat bo'lmagan bu Mak-Kartining mister Tensr oldida shu qadar burchli bo'lishiga qaramay, ularning butun mol-mulkining vorisi bo'lgan qiziga o'g'lini uylantirish to'g'risida og'iz solib yurgani sizga g'alati ko'rinmadimi? Yana buni shunday ishonch bilan gapirib yurganki, iltimos qilsa, bas – hamma ish bajo bo'lib qoladigandek! Bu g'oyatda g'alati. Axir o'zingizga ma'lum-ku, Tener bu gapga quloq ham solgisi kelmagan, bu haqda qizining o'zi gapirib berdi. Siz ana shu gaplarning hammasidan deduksiya metodi bilan qanday bo'lmasin xulosalar chiqarolmaysizmi?

– Biz deduksiya bilan ham, mantiqiy xulosalar bilan ham shug'ullanganmiz, – dedi Lestreyd menga ko'z qisib. – Bilsizmi, Xolms, agar bundan keyin ham faktlar bilan shu tariqa ish ko'rilsa, haqiqatdan yiroqlashib, tasmollar bilan xomxayollar dunyosiga kirib qolish hech gap emas.

¹⁶ Jorj Meredith (1828 – 1909) – atoqli ingliz yozuvchisi.



– To‘g‘ri gapga tan berish kerak, – deya bosiqlik bilan javob qaytardi Xolms. – Siz faktlardan juda yomon foydalanasiz.

– Nima bo‘lsa hamki, men siz tushunib yetishingiz juda qiyin bo‘lgan bir faktni tasdiqlab oldim, – deya g‘ijiniib e‘tiroz bildirdi Lestreyd.

– Ya‘ni...

– Ya‘ni katta Mak-Kartini kichik Mak-Karti o‘ldirgan. Bu faktni inkor etuvchi hamma nazariyalar – puch gap.

– Xo‘sh, oy shu‘lasi mavhum tumandan ko‘ra ravshan-roq-ku! – deya kulib javob berdi Xolms. – Yanglishmasam, chap tomonimizdagi Xazerley fermasi bo‘lishi kerak.

– Xuddi o‘zi.

Bu kattagina joyni egallagan, tomi shifer bilan yopilgan ikki qavatli qulay bino bo‘lib, uning kulrang peshtoqini katta-katta sarg‘ish po‘panak parchalari qoplagan edi. Derazalaridagi tushirib qo‘yilgan pardalar, tutun chiqmayotgan mo‘rilari bu uyga ma‘yus tus berib turar, go‘yo mudhish jinoyat uning devorlarini butun og‘irligi bilan kelib bosgandek edi.

Biz eshik qo‘ng‘irog‘ini chaldik, oqsoch xotin Xolmsning talabi bilan xo‘jayinining o‘ldirilgan kuni kiyib yurgan botinkasini, o‘g‘lining o‘sha kuni kiygan oyoq kiyimini ko‘rsatdi. Xolms hamma poyafzalni yetti yoki sakkiz joyidan puxtalab o‘lchadi-da, keyin bizni hovliga olib chiqishlarini iltimos qildi, u yerdan biz egri-bugri so‘qmoq bo‘ylab Boskom kamariga qarab ketdik.

Sherlok Xolms yangigina tushgan izdan borarkan, butunlay o‘zgarib ketgan edi. Beyker-stritlik loqayd mutafakkirni biladigan odamlar uni hozir ko‘rsalar taniyolmas edilar. U ma‘yuslashib, yuzlari qizarib borar edi. Qora qoshlari chimirilib, ular ostidan ko‘zlari po‘latdek chaqnar edi. Boshi pastga tushib, kiftlari turtib chiqqan, lablari qattiq qimtinib, sermushak bo‘ynidagi qon tomirlari o‘ynoqlab ketgan edi. Burun kataklari ta‘qib qiluvchi kushanda sezgisi bilan mast bo‘lgan ovchining burun kataklaridek kerkib turardi. U oldida turgan vazifaga shu qadar cho‘mib ketgan ediki, o‘ziga berilgan savollarga yo mutlaqo javob qaytarmas, yoki g‘ashi kelib g‘ijinar edi.



U o'rmon va o'tloqdan Boskom kamariga qarab ketgan so'qmoqdan indamay jadal yurib borardi. Butun vodiylar kabi bu yer ham ovloq, botqoq joy. So'qmoq va uning mayda bilan qoplangan atrofida ko'pdan-ko'p izlar ko'zga tashlanib turardi. Xolms goh oshiqar, goh to'xtar edi, bir marta esa iziga shartta burilib, o'tloq bo'ylab bir necha qadam orqaga qarab yurdi. Lestreyd ikkovimiz uning orqasidan ketmoqda edik, iztopar loqayd va e'tiborsiz qiyofada borardi, ayni vaqtda esa men do'stimni zo'r qiziqish bilan kuzatardim, chunki uning har bir xatti-harakati ishni xayrli oqibatga olib borishiga ishonardim.

Boskom kamari eni ellik yardcha¹⁷ keladigan qamishzor bilan qurshalgan, Xazerley fermasi bilan mister Tener bog'ining chegarasida joylashgan kichkina ko'l edi. Narigi qirg'oqqa tutashib kelgan o'rmon uzra badavlat yer egasi istiqomatgohi ustida ko'kka bo'y cho'zgan nayzador qizg'ish minoralar ko'zga tashlanib turardi.

Xazerley tomonidagi o'rmon juda qalin, eng chetdagi daraxtlarni ko'l atrofini qurshagan qamishlardan eni yigirma qadamcha keladigan nam bosgan o'tloq ajratib turibdi. Lenstreyd marhumning jasadi topilgan joyni aniq ko'rsatib berdi. Yer esa, darhaqiqat, shu qadar nam ediki, men marhum yiqilib tushgan joyni aniq ko'rdim. Xolmsga kelsak, uning g'ayrat va diqqate'tibori barq urib turgan chehrasidan toptalgan o'tloqda ko'p narsalarni ko'rganini payqadim. U izni topib olgan tozidek jon holatda u yoqdan bu yoqqa yugurardi, keyin esa hamrohimizga murojaat qildi.

– Siz bu yerda nimalar qildingiz? – deb so'radi u.

– Butun o'tloqni xaskash bilan tintib chiqdim. Birorta qurol yoki dalil bo'ladigan ashyo topmoqchi edim. Ammo siz qanday qilib payqadingizki...

– Xo'p, bas, vaqtim ziq! Siz chap oyog'ingizni yon tomonga burib basasiz, hamma yoqda shu chap oyog'ingizning izi. Sizni hatto ko'rsichqon ham qidirib topishi mumkin edi. Qamishga borib izlar g'oyib bo'layotibdi. Eh, bu qo'toslar podasi bu yerni

¹⁷ Yard – 0,9 metrga yaqin.



payhon qilib tashlaguncha yetib kelganimda ish nechog'li oson ko'char edi-ya! Bu yerda qorovulxonadan kelganlar turgan, ular marhumning atrofidagi olti yoki yetti fut¹⁸ joydagi hamma izlarni bosib tepkilab yuborishibdi.

U yonidan lupa olib, yaxshiroq ilg'ab olish uchun nam o'tmaydigan plashchiga cho'zildi-da, bizdan ko'ra ham, o'zi bilan o'zi gaplashayotgandek g'uldiray boshladi:

– Mana bu yosh Mak-Kartining izlari. Bu yerdan u ikki marta o'tgan, bir marta shu qadar tez chopganki, poshnasining izlari deyarli ko'rinmaydi, tagcharmi uchining izi aniq tushgan. Bu bergan shohidliklari to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. U otasining yerda yotganini ko'rgach, yugurgan. Mana bular esa otasining u yoq bu yoqqa yurib turgandagi izlari. Bu nima bo'ldi? O'g'li otasining gaplariga quloq solib, suyanib turgan qo'ndoqning izi. Bu-chi? Ha-ha, bu nima bo'ldi o'zi? Kimdir oyoq uchida pusib kelgan! Qolaversa, bu chor burchak, mutlaqo g'alati botinka. U kelib qaytib ketgan va yana qaytib kelgan – bu gal albatta, paltosini olib ketgani qaytib kelgan. Ammo qayoqdan kelgan?

Xolms ba'zan izni yo'qotib, ba'zan unga yana to'qnash kelib u yoqdan bu yoqqa chopardi. Nihoyat, o'rmon yoqasidagi kattakon kekxa qayin soyasiga borib yetdik. Xolms qidirgan izini shu daraxt orqasidan topib, yana ko'ksi bilan yerga yotib oldi, quvongancha qichqirib yubordi. Xolms anchagacha qimirlamay yotdi, xazon bilan quruq shox-shabbani titkiladi, kulga o'xshagan bir narsani konvertga soldi, yerni lupa orqali ko'zdan kechirdi.

– Uning tagida o't o'sib turgan ekan. Tosh u yerda bir necha kundan berigina yotganga o'xshaydi. Tevarak-atrofdagi uning yotgan eski o'rni esa ko'rinmaydi. Buning suiqasdda bevosita aloqasi bor. Xullas, boshqa hech qanday qurolning izi yo'q.

– Qotil-chi?

– U novcha odam, chapaqay, o'ng oyog'i oqsaydi, qalin charmli ovchilar etigi bilan kulrang palto kiyib yuradi, mund-

¹⁸ Fut – 0,3 metrga yaqin.



shtuk bilan Hindiston sigarasi chekadi. Cho‘ntagida o‘tmas qalamtaroshi bor. Yana bir necha belgilar ham bor-u, ammo sizning qidirishlaringizga yordam berish uchun shuning o‘zi ham kifoya qiladi.

Lestreyd kulib yubordi.

– Afsuski, men hamon umidsizligimcha qolganman, – dedi u. – Sizning nazariyalarangiz juda joyida, ammo biz kaltafahm britan maslahatchilari bilan muloqotda bo‘lishimiz kerak.

– Buni hali ko‘ramiz, – deb xotirjam javob berdi Xolms. – Sizning uslublaringiz boshqa, meniki boshqa... Darvoqe, men bugun kechqurungi poyezd bilan Londonga qaytib ketsam ham ajab emas.

– Ishlaringizni chala qoldirib-a?

– Yo‘q, tamomlab.

– Ammo sir nima bo‘ladi?

– Sir aniqlandi.

– Jinoyatchi kim?

– Men tasvirlab bergan jentlmen.

– U kim o‘zi?

– Buni bilish juda oson. Bu yerda istiqomat qiluvchilar uncha ko‘p emas.

Lestreyd kiftini qisdi.

– Men bekorchi odam emasman, – dedi u, – chapaqay va oqsoqligigina ma‘lum bo‘lgan jentlmenni qidirish bilan mashg‘ul bo‘lishga hech ilojim yo‘q. Shunday qilsam butun Skotlend-Yardga kulgi bo‘lardim.

– Yaxshi, – deya xotirjamlik bilan javob berdi Xolms. – Bu sirni ochishingiz uchun zarur hamma imkoniyatlarni sizga taqdim etdim. Sizdan hech narsani yashirib qolmadim, siz o‘zingiz ham bu sirli jinoyatni fosh etishingiz mumkin edi. Mana, yetib keldik. Xayr. Jo‘nab ketish oldidan sizga maktub yozaman.

Lestreydni eshik oldida qoldirib, biz o‘z mehmonxonamizga qarab ketdik, u yerda bizni nonushta kutmoqda edi.



O‘z fikrlari bilan band Xolms indamasdi. Uning yuzi mushkul ahvolga tushib qolgan kishining basharasidek tund edi.

– Qani, quloq soling, Uotson, – dedi u stolni yig‘ishtirib olishgach. – Mana bu kresloga o‘tiring. Men sizga o‘zimga ma‘lum bo‘lgan uncha-muncha narsalarni aytib beraman. Nima qilishimni bilmay qoldim. Sizdan maslahat olsam, degan edim. Mana cheking, men hozir boshlayman.

– Marhamat.

– Xo‘sh, bu ishni o‘rganish jarayonida bizni yosh Mak-Kartining hikoyasidagi ikki nuqta taajjublantirdi, zotan ular meni yigitning tomoniga og‘dirgan bo‘lsa, sizni unga qarshi qilib qo‘ydi. Birinchisi, otasining o‘g‘lini ko‘rmasdan burun «Kou!» deb qichqirgani. Ikkinchisi, marhumning jon berayotib kalamushnigina eslagani. Bilasizmi, u bir necha so‘zni ming‘illab aytgan-u o‘g‘li faqat bittasinigina payqab qolgan. Bizning tekshirishimiz shu ikki nuqtadan boshlanishi kerak. Yigit aytganlarining hammasi haqiqatan to‘g‘ri, deb faraz qilaylik.

– «Kou» nima degani?

– Aftidan, o‘g‘lini chaqirmagan, shekilli, uni Bristolda deb o‘ylagan. O‘g‘li bu chaqiriqni mutlaqo tasodifan eshitib qolgan. «Kou!» degan xitob bilan u uchrashishi kerak bo‘lgan kimsani chaqirgan. Ammo «kou» – avstraliyacha so‘z, uni faqat avstraliyaliklarga ishlatadilar. Bu Mak-Karti Boskom kamari yoqasida uchratmoqchi bo‘lgan odamning avstraliyalik ekanini tasdiqlaydigan keskin dalil.

– Xo‘sh, kalamush-chi?

Sherlok Xolms cho‘ntagidan bir buklangan qog‘oz oldi-da, uni stolga yozdi.

– Bu Viktoriya shtatining xaritasi, – dedi u. – Buni kecha kechasi Bristolga telegramma berib, so‘ratib oldim. – U xarita-ning bir qismini qo‘li bilan yashirdi. – O‘qing, – deb iltimos qildi u.

– ARET¹⁹, – deb o‘qidim men.

¹⁹ A r e t – inglizchasiga «kalamush» degani.



– Endi-chi? – deb u qo‘lini ko‘tardi.

– BALLARET.

– Mutlaqo to‘g‘ri. Marhumning joni uzilayotganda aytgan so‘zi xuddi shu, o‘g‘li esa uning keyingi ikki bo‘g‘ininigina payqab qolgan. Otasi qotilning nomini aytmoqchi bo‘lgan. Shunday qilib, Ballaret.

– Vo ajabo! – deb yubordim men.

– Hech qanday shak-shubhasiz shunday. Endi, ko‘rib turib-sizki, halqa siqilib kelmoqda. Jinoyatchining kulrang libosi borligi uchinchi nuqta edi. Mavhumot topib, kulrang palto kiygan, Ballaretdan kelgan allaqanday avstraliyalik paydo bo‘lmoqda.

– Darhaqiqat.

– Qolaversa, u shu yerning o‘zida istiqomat qiladigan odam. Chunki kamar yaqinida ferma bilan qo‘radan boshqa hech narsa yo‘q, bu yerga begona odam kelgan bo‘lishi ham mahol.

– Albatta.

– Undan keyin bizning bugungi ekspeditsiyamizni olaylik. Men tuproqni tekshirib, ba‘zi mayda-chuyda dalillarni topdim, ularni boya anavi befarosat Lestreydga gapirib berdim. Bu narsalar jinoyatchining shaxsini aniqlashga aloqador edi.

– Siz ularni qanday qilib topdingiz?

– Sizga mening uslubim ma‘lum. U hamma mayda dalillarni taqqoslashga asoslanadi.

– Siz uning bo‘yini, albatta, qadamining uzunligiga qarab taxminlagan bo‘lishingiz kerak. Oyoq kiyimi qanday ekanligini ham izga qarab bilish mumkin edi.

– Ha, bu juda alomat poyabzal.

– Uning oqsoqligini qayoqdan bildingiz?

– O‘ng oyog‘idan tushgan izlar chap oyog‘idan tushgan izchalik aniq emas. O‘ng oyog‘iga kam og‘irlik tushadi. Nima uchun? Chunki oqsoqlaydi – u cho‘loq.

– Chapaqayligini qayoqdan bildingiz?

– Xirurg tasvirlab bergan shikastlarning xarakteridan sizning o‘zingiz ham hayratlangan edingiz. Zarba tuyqusdan



orqadan, chap tomondan berilgan. Chapaqay odamdan boshqa kim shunday qila olishi mumkin? Ota-bola suhbatlashayotganlarida u daraxt orqasida turgan. Turgan joyida hatto tamaki ham chekkan. Men kulini topdim, turli navlardagi tamakilarni bilishim tufayli uning hind sigarasi chekkanini aniqladim. Men, o'zingizga ma'lumki, bu masala bilan oz-moz shug'ullanib, trubka, sigara va papiros tamakilarining bir yuz qirqa yaqin navlarining kullari haqida kichkina monografiya yozganman. Sigara kulini topgach, tevarak-atrofga ko'z yugurtirib, sigarani tashlagan joyini topdim. Bu Rotterdamdagi tayyorlangan hind sigarasi ekan.

– Mundshtuk bilan chekkanini qayoqdan bildingiz?

– U sigarani og'ziga olmaganini ko'rdim. Binobarin, mundshtukka solib chekar ekan. Sigaraning uchi tishlab uzib tashlangan emas, kesilgan joyi esa notekis edi, shuning uchun ham, qalamtaroshi o'tmas bo'lsa kerak, deb o'yladim.

– Xolms, – dedim men, – siz jinoyatchining qo'l-oyog'ini chambaras bog'lab tashlabsiz, endi u qutulib chiqib ketolmaydi, siz bugunog' yigitning hayotini ham omon saqlab qolibsiz, uning bo'ynini sirtmoqdan xalos qilibsiz. Men sizning dalillaringiz qayerga borib taqalayotganini ko'rib turibman. Qotilning nomi...

– Mister Jon Tener, – dedi ofitsiant eshikni ochib xonamizga bir kishini kiritarkan.

Kirib kelgan kishining g'avdasi g'oyatda alomat edi. Oqsoqlanib, eran-qaran yurishlari va munkaygan yelkalari uni zaif qilib ko'rsatar, ayni bir vaqtda qat'iy, shiddatli qiyofadagi dag'al yuzi, bahaybat qo'l-oyoqlari uning juda baquvvat ekanini ko'rsatib turar edi. Paxmoq soqoli, oq oralagan sochi va ko'zlariga tushgan baroq qoshlari unga mag'rur va hukmron qiyofa berib turardi. Ammo rangi zahil, bo'zargan, lablari bilan burun kataklari esa ko'kish edi. Bir qarashdayoq uning allaqanday bedavo bir dardga giriftor ekanligini payqadim.

– Marhamat, divanga o'tiring, – deb taklif qildi Xolms muhojirlik bilan. – Maktubimni oldingizmi?



– Ha, uni darvozabon olib kelib berdi. Shov-shuv bo‘lib ketmasligi uchun sizni ko‘rsam, degan ekansiz.

– O‘ylaymanki, agar sudda chiqib gapirsam har xil gap-so‘zlar bo‘lishi mumkin.

– Men sizga nima uchun kerak bo‘lib qoldim?

Tener oshnamga qaradi. Uning horg‘in ko‘zlarida shu qadar alam aks etib turardiki, go‘yo o‘z savoliga allaqachon javob olgandek edi.

– Ha, – deb qo‘ydi Xolms uning so‘zlaridan ko‘ra ko‘zlarining boqishiga javob berib. – Shunday. Menga Mak-Karti haqidagi narsalarning hammasi ma‘lum.

Chol yuzini qo‘llari bilan yashirdi.

– O‘zing madad ber, rabbim! – deb xitob qildi.

– Ammo men yigitchaning halok bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasdim!

Sizga chin so‘z berib aytamanki, agar ish maslahatchilar su-
dining sayyor sessiyasigacha borib yetsa, unda bor gapni och-
gan bo‘lardim...

– Bu so‘zlaringizni eshitishdan g‘oyat xursandman, – dedi Xolms qat‘iy.

– Agar qizalog‘im bo‘lmaganda bor gapni allaqachon och-
gan bo‘lardim. Bu narsa uning ko‘nglini vayron qilishi mumkin
edi, u mening qamalishimga chidayolmasdi.

– Ishni qamoqqacha olib bormasa ham bo‘ladi, – deb javob berdi Xolms.

– Nahotki?

– Men rasmiy shaxs emasman. Modomiki, meni sizning qizingiz taklif qilgan ekan, uning manfaatlari nuqtayi nazaridan ish ko‘raman. O‘zingiz bilasiz, yosh Mak-Karti ozod qilinishi kerak.

– Tez orada olamdan o‘taman, – dedi kekxa Tener. – Ko‘p yillardan beri diabet kasalining azobini tortaman. Umrim bir oydan nariga o‘tishiga doktorimning ko‘zi yetmayapti. Harqalay, turmada o‘lgandan ko‘ra, o‘z boshpanamda qazo qilish menga ancha taskin beradi.



Xolms o'rnidan turib, yozuv stoli tomon bordi-da, alam bilan qog'oz oldi.

– Hammasini bir boshdan aytib bering, – deb taklif qildi u, – men esa qisqagina qilib yozib olaman. Siz bunga imzo chekasiz. Uotson esa shohidlik bildiradi. Sizning iqroringizni juda zarur bo'lib qolgan taqdirdagina, agar Mak-Kartini omon saqlash kerak bo'lib qolsagina taqdim etaman. Agar zarurati bo'lma-sa, sizga va'da beramanki, bu chorani qo'llamayman.

– Durust, – deb javob berdi chol, – sayyor sessiyagacha yetib bormasam ham ehtimol, shu sababdan bu meni uncha tashvishlantirmaydi. Men Alisani, faqat Alisani bunday og'ir kulfatdan xalos qilmoqchi edim. Endi sizga hamma gapni aytib beraman. Bu narsa anchadan beri davom etib keladi-yu, ammo hozir bir zumda gapirib berishim mumkin. Siz marhum Mak-Kartini bilmaysiz. Sizni ishontirib aytamanki, u borib turgan iblis edi. Sizni uning panjasiga tushib qolishdan Xudo asrasin! So'nggi yigirma yildan beri uning panjasida edim, u meni sira ko'z ochirmay qo'ygan edi.

Avval sizga uning qo'liga qanday tushib qolganimni aytib beray. Bu oltmishinchi yillarning boshlarida, oltin konlarida yuz bergan edi. Men o'sha vaqtlarda har qanday ishdan tap tortmaydigan serg'ayrat, yengiltak yigit edim. Yaramas ulfatlarga qo'shilib qolib, ichkilikka o'rgandim. Mening chekindagi joyda zarracha ham oltin chiqmadi – sayoq yurib, sizlarning ta'riflaringiz bilan aytsak, yo'l to'sadigan azamatga aylanib qoldim. Biz olti kishi bo'lib, dorilamon, vahshiyona hayot kechirardik. O'qtin-o'qtin stantsiyalarga hujum qilib konlarga olib boradigan yo'llarda furgonlarni to'xtatardik. Meni Ballaretlik qora Jek deb atashardi. Yigitlarimni mustamlakalarda haligacha ham, Ballaret bandasi, deb eslashadi.

Bir kuni Ballaretdan soqchilar qo'riqchiligida Melburnga oltin jo'natishdi. Biz pistirmada yotdik. Oltinni olti soqchi qo'riqlab kelmoqda edi, biz ham olti kishi edik. Qizg'in to'qnashuv bo'lib o'tdi. Birinchi o'q uzishdayoq to'rt kishini qulatdik. O'ljani qo'lga kiritganimizda esa uch kishigina



qolgan edik. Men to'pponcha og'zini aravakashning peshonasiga tiradim – bu Mak-Karti edi. Attang, uni o'shanda o'ldirib qo'yaqolsam bo'lar ekan! Ammo rahm qilib uni omon qoldirdim, zotan yuz qiyofamni eslab qolmoqchi bo'lgandek menga kichkina g'azabli ko'zlari bilan tikilayotganini payqagan edim. Biz oltinni qo'lga kiritib, boy bo'lib ketdik, hech narsa bilmagandek Angliyaga qaytib keldik. Bu yerda men sobiq oshnalarim bilan umrbod vidolashib, osoyishta, mamnun turmush kechira boshladim.

Men o'sha vaqtda savdo bo'lib turgan shu molikonamni sotib oldim, o'tmishdagi gunohlarimni birmuncha yuvish uchun, o'z pullarim bilan aqalli uncha-muncha foyda keltirishga urindim. Bundan tashqari, uylandim, xotinim juda yosh o'lib ketgan bo'lsa-da, azizimdan menga Alisaginam yodgor bo'lib qoldi. Alisa go'dakligidayoq jajjigina qo'llari bilan dunyoda birdan-bir rahnamo bo'lib, menga to'g'ri yo'l ko'rsatib turdi. Xullas, men o'tmishimdan abadiy voz kechdim. Mak-Kartining qo'liga tushib qolgunimga qadar hamma ishlar tuppa-tuzuk ketayotgan edi...

Oldi-sotdi ishlarim bilan shaharga tushganimda Ridjenstritda Mak-Kartini uchratib qoldim. Egnidagi paltosiga ham, oyog'idagi poyabzaliga ham qarab bo'lmas edi.

«Mana, biz nihoyat uchrashdik, Jek, – dedi u qo'limga taqilib. – Endi siz bilan biz o'la qolsak ham ajralishmaymiz. Men yolg'iz emasman: o'g'lim ham bor, siz bilasizki, Angliya aholisi qonunlarga qat'iy rioya qiladigan ajoyib mamlakat. Qolaversa, hamma yerda polismenlar hozir-u nozir».

Shunday qilib, u o'g'li bilan kelib yerimning kun botar tomoniga joylashdi, ulardan qutulishning evini qilolmadim; ular mening yerimda tekin yashashyapti. Na tinchligim, na oromim, na huzur-halovatim qoldi. Qayoqqa bormay, hamma yerda uning ayyorona tirjayib turgan basharasiga duch kelardim. Qizim kattaroq bo'lgach, ahvol yana ham battarlashdi, chunki Mak-Karti qizim o'tmishimni bilib qolsa, bu har qanday politsiyadan ko'ra ham dahshatliroq ekanligini bilardi. Ko'ngli ni-



mani tusab qolsa – yermi, imoratmi yoki pulmi, og‘ziga siqqan narsasini olardi, nihoyat, u haddidan oshib ketdi. Alisani talab qilib qoldi. Bilasizmi, uning o‘g‘li ham, mening qizim ham katta bo‘lib qolishdi, mening kasalim hammasiga ayon edi, o‘g‘lim uning bor mol-mulkini egallashi uchun bu ajoyib bahona, deb o‘ylagan, ammo bu gal men sira bo‘sh kelmadim. Bu la‘natining zoti mening zotim bilan qo‘shilishini xayolimga keltirishni ham istamasdim.

O‘g‘li menga yoqmaydi, deymayman-u, ammo yigitning tomirida otasining qoni oqadi-da, shuning o‘zi kifoya edi. Men, har qalay, fikrimdan qaytmadim. Mak-Karti tahdid qila boshladi, men uning toqatini toq qilib yubordim.

Biz hamma gapni gaplashib olish uchun kamar bo‘yida uchrashishimiz kerak edi. Shartlashilgan joyga borsam, u o‘g‘li bilan haqdadir gaplashayotibdi. Tamaki chekib, u yolg‘iz qolgan daraxt orqasida kutib turdim. Gaplarini eshitgan sarim zardam qaynab, alamim oshib ketaverdi, bunga ortiq chidab turishim mumkin emas edi. U o‘g‘lini mening qizimga uylanishga majbur qilar, qizimning bu masalaga qanday qarashini xayoliga ham keltirmas, go‘yo gap allaqanday suyug‘oyoq qiz haqida ketayotgandek edi.

Ardoqlab yurganlarimning hammasi shunday odamning izmiga tushib qolishi mumkinligini o‘ylarkanman, aqldan ozib qolayozdim. Bu kishanni parchalab tashlaganim ma‘qul emasmi? Hayotdan umid uzib, o‘limga yuz tutgan odam bo‘lsam. Garchand, zehnim ravshan, tanamda kuch-quvvatim bo‘lsa ham, umrim tugab qolganini bilardim. Ammo sha‘nim bilan qizim-chi! Agar Mak-Kartini tilini tishlashga majbur qilsam, bularning ikkalasini ham omon saqlab qolaman... Men uni o‘ldirdim, mister Xolms... Iloji bo‘lsa uni yana bir karra o‘ldirardim. Men katta gunohkorman, ammo azob-iztiroblardan iborat hayotim gunohlarimni yuvib ketmaydimi? Men tishimni tishimga qo‘yib, hammasiga chidab keldim, ammo qizim ham o‘sha tuzoqqa tushib qolishi mumkin, degan fikrga hech toqat qilolmadim. Men andisha qilib o‘tirmay, uni yaramas bir zaharli gazandadek o‘ldirdim. Qichqirganini eshitib, o‘g‘li yugu-



rib keldi, ammo men o'rmonga yashirinishga ulgurgan edim, lekin tushirib qoldirgan paltomni olib kelgani qaytib borishga majbur bo'ldim... Bu chin haqiqat, jentlmenlar, hammasi xuddi shunday sodir bo'ldi.

– Mayli, sizga nima deb ham ta'na qilardim, – deb qo'ydi Xolms, chol bergan shohidliklari tagiga imzo chekarkan. – O'ylaymanki, biz ishni sudgacha olib bormasak kerak.

– Bunga shubhalanmasangiz ham bo'ladi, ser! Ammo siz nima tadbir ko'rmoqchisiz?

– Sizning sihat-salomatligingizni e'tiborga olib hech qanday tadbir ko'rmoqchi emasman. O'zingiz yaxshi bilasizki, hademay bu dunyodagi suddan ko'ra balandroq dargohda javob berasiz. Men sizning iqroringizni saqlab qo'yaman, bordi-yu, Mak-Karti hukm qilinadigan bo'lsa, undan ana o'shanda foydalanishga to'g'ri keladi. Bordi-yu, u oqlanadigan bo'lsa – sizning hayot bo'lish-bo'lmasligingizdan qat'iy nazar, Xudoning bironta ham bandasi siringizdan xabar topmaydi, bularning hammasi o'r-tamizda qoladi.

– Unday bo'lsa, yaxshi qoling, – dedi tantana bilan chol. – Vaqtiki kelib qazoyi muallaqingiz yetsa, mening qalbimga qanday tasalli berganingizni o'ylasangiz osoyishta ko'z yumasiz.

Bahaybat gavdasi titrab chayqalgancha u o'ng oyog'i oq-soqlanib, xonadan asta-sekin chiqib ketdi.

– Sho'rimiz qursin, sho'rimiz! – deb xitob qildi Xolms uzoq jim qolgach. – Taqdir bizdek ayanchli, ojizlarni nega buncha o'yinchoq qilar ekan?

Maslahatchilar sudining sayyor sessiyasi Xolms taqdim etgan ko'pdan-ko'p isbotlar tazyiqi ostida Jeyms Mak-Kartini oqladi. Keksa Tener o'sha uchrashuvimizdan keyin yetti oy-cha yashadi, hozir u olamdan o'tgan. Jeyms va Alisa ularning o'tmishlariga soya solgan qora bulutlardan endi sira tashvish tortmay, totuvlikda bosh qovushtirib, baxtiyor yashashlari mumkin, deyishga hamma asoslar bor.

BESH DONA APELSIN URUG'I

Sherlok Xolms haqidagi 1882-yildan 1890-yilgacha bo'lgan davrga oid qaydlarimni ko'zdan kechirsam, shu qadar qiziq va odatdan tashqari ishlarni uchratamanki, ulardan qaysi birlarini tanlab olishni bilmay qolaman. Garchand, bulardan ba'zilar allaqachon matbuotda yoritilgan bo'lsa-da, boshqalari Xolmsning g'oyat yuksak darajada egallagan ajoyib qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon bermagan edi. Mazkur yozuvlarimda men uning ana shu qobiliyatlarini tavsiflashni maqsad qilib qo'ydim. O'sha ishlardan ba'zi birlarini hatto tahlil ham qilib bo'lmas, og'zaki aytib berilgan yechimsiz qis-saga o'xshab qolar, ba'zilar esa qisman yechilgan, ularning sabablari, o'zi yoqtiradigan jiddiy, mantiqiy isbotlarga emas, ko'proq tushmollar-u taxminlarga asoslangan edi. Biroq ana shu keyingilari orasida ham tafsilotlari g'oyat maroqli, natijalari g'oyat kutilmagan bir voqea borki, men uning to'g'risida gapirib bermoqchiman, zotan u hech qachon to'la-to'kis aniqlanmagan, ehtimolki, hech qachon to'la-to'kis aniqlab bo'lmaydigan vaziyatlar bilan bog'liqdir.

1887-yilga tegishli uzun ro'yxatda anchagina qiziq yoki uncha qiziq bo'lmagan ishlar qayd etilgan Ularning hammasini yozib qo'yganman. Mana ulardan ba'zilar: «Peredol Chamber», katta mebel magazinining yerto'lasida hashamatli klubiga ega bo'lgan Havaskor gadoylar jamiyati; Britaniyaga tegishli «Sofi Enderson» yelkanli kemasining halokatiga bog'liq bo'lgan fakt-lar; Grays Petersonning Yuffa orolidagi ajoyib sarguzashtlari, va nihoyat, Kamberuelldagi zaharlash haqidagi ish. So'nggi voqeada Sherlok Xolms marhumning soatini ko'zdan kechir-



gach, ikki soat muqaddam burab qo'yilganligini ta'kidlagan, bundan u, marhum o'sha paytda yotgan, deb hukm chiqargan, bu xulosasi esa jinoyatni ochishda juda katta ahamiyat kasb etgan edi. Ana shu ishlarning hammasini men, ehtimolki, qachonlardir keyinroq qalamga olarman, ammo ulardan birontasi ham men hozir izhor qilmoqchi bo'lgan odatdan tashqari voqealardagi o'ziga xos jihatlarga ega emas.

Sentabr oyoqlab qolgan, kuz bo'ronlari quloq eshitmagan shiddatli qahr-g'azab bilan avjga minar edi. Kun-uzzukun shamol uvillar, yomg'ir derazalarga shu qadar shovqin bilan kelib urilar ediki, hatto shu yerda, inson qo'li yaratgan bu bahaybat asar Londonning yuragida ham biz kundalik hayotning odatiy hukmidan beixtiyor ravishda bir lahzagina alahsir, quturib ketgan tabiat shiddatli kuchlarining hozirligini sezar edik; ular esa madaniy hayot panjaralari orqasida panoh topgan biz ojiz bandalarga qafasga qamab qo'yilgan vahshiy hayvonlarga o'xshab o'kirar edi. Kechga borib bo'ron yana ham zo'raydi: mo'riga urilgan shamol yosh boladek yig'lar, hiqillar edi.

Kamin oldida o'tirgan tund bashara Sherlok Xolms kartotekasini tartibga solmoqda, men esa, uning qarshisida o'tirgancha Klark Rassel yozgan g'aroyib dengiz hikoyalarining mutolaasiga shu qadar berilib ketgan edimki, mana shu po'rta-na go'yo menga okeanda duch kelgandek, yomg'irning shovqini esa bamisoli dengiz to'lqinlarining guldirosidek tuyulmoqda edi. Xotininim xolasinikiga mehmondorchilikka ketgan, shuning uchun men bir necha kunga Bayker-stritdagi eski kvartiramizga kelib joylashgan edim.

– Menga qarang, qo'ng'iroq chalinayotibdi, – dedim men Xolmsga.

– Bugun kim kelishi mumkin? Do'stlaringizdan bit-ta-yarimtasimikan?

– Mening sizdan boshqa do'stim yo'q, – deb javob berdi Xolms. – Menikiga hech kim mehmondorchilikka kelmaydi.

– Balki mijozlardandir?



– U taqdirda juda jiddiy ish bo‘lishi kerak. Ob-havo aynib turgan shunday bir paytda, shunday bemahal pallada bu odamni ko‘chaga chiqishga nima majbur qilgan bo‘lishi mumkin? Bekamizning bitta-yarimta egachisi yo dugonasi kelgandir.

Biroq Xolms yanglishdi, chunki dahlizda odim tovushlari eshitilib, kimdir eshigimizni taqillatdi. Xolms uzun qo‘lini cho‘zdi-da, chiroqni o‘zidan burib, yorug‘ini mehmon uchun mo‘ljallangan bo‘sh kresloga to‘g‘rilab qo‘ydi.

– Kiring, – dedi u.

Shinam kiyingan, harakatlari bir qadar nazokatli, yigirma ikki yoshlardagi yigit kirib keldi. Sharillab suv oqayotgan shamsiyasi bilan ho‘lligi tufayli yaltirab turgan suv o‘tmas uzun plashchi ob-havoning ayniganidan guvohlik berardi. Kirib kelgan odam xavotir bilan alangladi, chiroq yorug‘ida yuzi oqarib ketganini, qovoqlari esa boshiga og‘ir musibat tushgan kishidek salqiganini ko‘rdim.

– Men sizlardan kechirim so‘rashim kerak, – deb qo‘ydi, u oltin qabzali pensnesini ko‘zlariga olib borarkan. – Umid qilamanki, meni yopishqoq odam ekan, demassizlar. Fayzli xonalaringizga bo‘ron-u yomg‘irning uncha-muncha asarini olib kelmadimmikan, deb qo‘rqaman.

– Plashingiz bilan shamsiyangizni menga bering-chi, – dedi Xolms. – Ularni mana bu ilgakka osib qo‘yaman, tez orada qurib qoladi. Nazarimda, janubi g‘arbdan kelganga o‘xshaysiz.

– Ha, Xorshemdan keldim.

– Botinkalaringizning tumshug‘idagi bo‘r aralashgan loydan ko‘rinib turibdi.

– Men sizdan maslahat so‘ragani keldim.

– Maslahatdan osoni yo‘q.

– Yordam ham so‘ramoqchiman.

– Mana bunisi esa hamma vaqt ham oson ko‘chavermaydi.

– Men siz to‘g‘ringizda mayor Prendergastdan Ten-kervill klubida bo‘lgan mojaro vaqtida qanday qilib uning joniga ora kirganingizni eshitganman.

– Ha-a, esimda. Uni g‘irromlik qilding, deb behuda ayblashgan edi.



– U siz har qanday sirni ocha olishingizni aytdi.

– Be, mubolag‘a qilibdi.

– Uning so‘zlariga qaraganda, siz hech qachon muvaffaqiyatsizlikka uchramasmishsiz.

– Ha, men odatda muvaffaqiyatga erishmay qo‘ymayman.

– Unday bo‘lsa, umid qilamanki, mening ishimda ham muvaffaqiyat qozonishga tirisharsiz.

– Iltimos qilaman, kresloni kaminga yaqinroq suring-da, ishingizni batafsil so‘zlab bering.

– Bu g‘ayrioddiy ish.

– Menda boshqacha ishlar bo‘lmaydi. Men – oxirgi bosqichman.

– Ammo, harqalay, ser, mening xonadonimda yuz bergan voqealardek aql bovar qilmaydigan, sirli voqealarni qachon bo‘lmasin eshitgan bo‘lishingizga ishongim kelmaydi.

– Siz meni g‘oyatda qiziqtirib qo‘ydingiz, – dedi Xolms. – Iltimos, bizga asosiy faktlarni gapirib bering, keyin men sizdan o‘zimga muhimroq tuyulgan tafsilotlarni surishtirib olaman.

Yigit kresloni surib, ho‘l oyoqlarini lang‘illab turgan kamin tomon uzatdi.

– Mening otim Jon Opensho, – dedi u. – Ammo fahmlashimcha, shaxsiy ishlarim bu dahshatli voqealar bilan uncha bog‘liq emas. Bu ish menga meros tariqasida o‘tgan, shunga ko‘ra, siz u haqda tasavvurga ega bo‘lishingiz uchun men bu voqealarning eng boshiga qaytishim kerak bo‘ladi.

Bobomning ikki o‘g‘li bo‘lgan: bular – amakim Elayes bilan otam Jozef edi. Otamning Koventrida kichikroq fabrikasi bor, velosipedlar paydo bo‘lganda uni kengaytirgan edi. Uning «Opensho» degan pishiq shinaga patenti bo‘lib, ishlar shu qadar rivojga mindiki, keyinchalik fabrikasini sotib, durustgina davlat orttirgan odam sifatida tinchgina oyog‘ini uzatib yotish imkoniyatiga erishdi.

Amakim Elayes yoshlik yillarida Amerikaga borib qolgan, Floridada plantatorlik qilgan, aytishlaricha, ishlari juda yurishib ketgan. Urush vaqtida avval Jeksonning armiyasida,



keyin esa Gudning qo'li ostida xizmat qilgan, polkovnik darajasiga erishgan. Li taslim bo'lgach, amakim plantatsiyasiga qaytib kelib, u yerda uch yilmi, to'rt yilmi yashagan. 1869-yildami yoki 1870-yildami u Yevropaga qaytib kelib, Xorshem yaqinidagi Sasseksda molikona yer-suv sotib olgan. Qo'shma shtatlarda kattagina davlat orttirgan, Amerikani esa negrlarga nafrat bilan qaragani, ularga saylash huquqini bergan respublika partiyasining siyosatidan norozi bo'lgani uchun tark etgan edi. Amakim g'alati odam edi: shafqatsiz, qiziqqon, g'azabi oshganda ayovsiz bo'ralab so'kar, odamovi edi. Xorshem yaqinida yashagan butun yillari mobaynida aqalli biron marta shaharda bo'lganiga shubha qilaman. Uyi o'tloqlar o'rtasidagi bog'da joylashgan, o'sha yerda sayr qilib yurar, shunisi ham borki, ko'pincha haftalab xonasidan chiqmas edi. Ko'p ichar, chekar, har qanday muloqotdan, hatto tug'ishgan ukasi bilan uchrashishdan ham qochar edi. Zotan ilk bor o'n ikki yasharligimda uchrashgan bo'lsak ham, u o'zini menga yaqin tutardi. Bu 1878-yilda, Angliyaga kelganimda sakkizmi, to'qqiz yildan keyin yuz berdi. Otamdan mening unikida yashashimga ruxsat berishini o'tindi, menga o'ziga yarasha mehribonchilik ko'rsatdi. Hushyor bo'lgan kezlarida men bilan nard va shashka o'ynashni yoqtirardi. Menga xizmatkorlardan ko'z-quloq bo'lib turishni, savdogarlar bilan barcha ishlarni olib borishni topshirdiki, men o'n olti yoshimdayoq uyda to'la-to'kis xo'jayin bo'lib qoldim. Hamma kalitlar mening qo'limda, xohlagan tomonga bora olar, ko'nglim xohlagan har bir ishni qila olar edim, faqat bir sharti bor ediki, amakimning halovatini buzmasligim kerak edi. Darvoqe, yana bir g'alati tartib bor edi: amakim hech kimga chortoqdagi qulflog'liq hujraga kirishga ruxsat bermasdi. Men bolalarga xos qiziquvchanligim tutib qulf tuynukchasidan mo'ralardim, lekin biron marta ham eski sandiqlar-u tugunlardan boshqa hech narsa ko'rmadim.

Birkuni – bu 1883-yilning martida bo'lgan edi – amakimning ovqatlanish stolidagi qoshiq-sanchqi-yu pichoqlari yonida xorijiy marka yopishtirilgan xat paydo bo'lib qoldi. Amakim



deyarli hech qachon xat olmas, chunki xaridlari uchun pulni naqd to'lar, do'stlari esa yo'q edi.

«Hindistondan, – dedi u, xatni ola turib. – Pondisherining pochta muhri bosilgan! Bu nima bo'ldi ekan?»

Amakim shosha-pisha konvertni yirtgan edi, undan likopchaga besh dona qurigan apelsin urug'i to'kildi. Kulib yuborayozgan edim, amakimning vajohatini ko'rishim bilan labimni qimtigancha qoldim. Uning pastki labi osilib tushdi, ko'zlari qinidan chiqib ketay derdi, yuzi bo'zarib ketdi: qaltirayotgan qo'lida hamon ushlab turgan konvertga tikilib qolgan edi.

«Uchta «K»! – deb xitob qildi u, keyin zorlandi: – Yo rabbiy, yo rabbiy! Qilgan gunohlarimning qasosi!»

«Bu nima, amaki?» – deb so'radim.

«Ajal», – dedi-yu shartta o'rnidan turib xonasiga chiqib ketdi, men garangsib, vahimaga tushganimcha qolaverdim.

Konvertni olgan edim, qopqog'ining ichki tomonidagi yelim hoshiyasi tagida qizil siyoh bilan uch karra yozilgan «K» harfini ko'rdim. Konvertda besh dona quruq apelsin urug'idan boshqa hech vaqo yo'q edi. Amakim nega bunchalik qo'rqib ketdi ekan?

Men stoldan turib, g'izillagancha zinapoyadan yuqoriga chiqib bordim. Qarshimdan amakim tushib kelardi. Bir qo'lida zang bosgan eski kalit, ehtimolki, hujraning kalitini, ikkinchi qo'lida esa chog'roqqina mis quticha tutgan edi.

«Ular xohlagan ishlarini qilaverishsin, men hali ko'rsatib qo'yaman! – dedi u, yo'l-yo'lakay la'nat yog'dira-yog'dira. – Meriga buyur, xonamdagi kaminga o't yoqsin, Xorshemga odam yuborib, Fordxem degan advokatni oldirib kel».

Men uning farmoyishini ado etdim, advokat kelgandan keyin meni amakimning xonasiga chaqirishdi. O't lang'illab yonardi, kaminda bir uyum momiqdek kul qorayib turardi, chamasi yondirilgan qog'ozlarning qoldig'i bo'lsa kerak. Kaminning yonida qopqog'i ochiq bo'm-bo'sh quticha yotardi. Unga ko'zim tushishi bilan beixtiyor seskanib ketdim, nega desangiz, qopqoqning ichkari tomonida xuddi konvertdagiga o'xshagan uchta «K» harfini ko'rdim.



«Vasiyatnoma yozilayotganida guvoh bo'lishingni istayman, Jon, – dedi amakim. – Men molikonamni ukamga, sening otangga qoldiraman, undan, shubhasiz, senga o'tadi. Agar sen uni bamaylixotir tasarruf qilib tursang, joyida bo'lardi! Bordiyu, buning iloji yo'qligiga ko'zing yetsa, unda senga maslahatim shuki, bolaginam, molikonani eng ashaddiy dushmaningga ber. Senga shunday gumonli meros qoldirayotganimga g'oyat achinaman, ammo ishlar qay tarzda tus olishini bilmayman. Iltimos qilaman, qog'ozning mister Fordxem ko'rsatgan joyiga qo'l qo'y».

Men qog'ozga buyruq qilganidek qo'l qo'ydim, advokat uni ola ketdi. Bu g'alati hodisa, tushunib turgandirsiz, menga juda chuqur ta'sir qildiki, jumboqning javobini topishga tirishib yakkash shu haqda o'ylaydigan bo'lib qoldim. Men vahimali bezovta bir tuyg'udan qutulolmasdim, zotan vaqt o'tishi bilan u tuyg'u zaiflasha borardi, hayotimizning odatiy maromiga ham hech narsa xalal bermasdi. Biroq men amakimda yuz berayotgan o'zgarishni payqadim. U avvalgidan ko'proq ichadigan, yana ham odamoviroq bo'lib qoldi. Aksar vaqt eshikni qulflab olgancha xonasida o'tirar, ammo ba'zida qandaydir mast-alast vajohatda uydan otilib chiqardi-da, qo'lida to'pponcha ushlagan ko'yi, «hech kimdan qo'rqmayman, insoniga ham, iblisiga ham meni qo'radagi qo'ydek qamab, qamoqda ushlashiga izn bermayman!» – deb qichqirgancha bog' bo'ylab yugurishga tushardi. Biroq ana shunday jazavalardan keyin yana xonasiga kirib, telbalarcha vahimaga duchor bo'lgan odamdek eshikni qulflagancha qamalib olardi. Yana shunisi borki, hatto salqin kunlarda ham yuzi xuddi tog'oradagi suvga pishib olingandek yaltirab turardi.

Bu voqeani tezroq tugatish, sizning sabringizni suiiste'mol qilmaslik uchun shuni ilova etamanki, amakim bir kun kechasi odatdagi mast-alastliklaridek jazavasi tutib chiqib ketdi-da, shu ko'yi qaytib kelmadi. Biz uni qidirgani chiqib, bog' etagidagi po'panak bosgan hovuzchadan topdik. U mukkasidan tushib yotardi. Badanida hech qanday zo'rlik asarini uchratmadik,

hovuzning chuqurligi esa ikki futcha ham kelmasdi. Shunga ko'ra sud maslahatchilari amakimning tentakona fe'lini ko'zda tutib, o'limining sababini, o'ziga suiqasd qilgan deb topdilar. Ammo men bilardimki, u o'limni xayoliga keltirishdan ham qo'rqardi, ongli ravishda joniga qasd qilganiga o'zimni hech ishontirolmasdim. Har qalay, ish shu bilan barham topdi-da, otam uning molikonasi bilan bankdagi joriy hisobda turgan o'n to'rt ming funt pulini o'z tasarrufiga oldi...

– Kechirasiz, – deb uning so'zini bo'ldi Xolms. – Sizning bergan ma'lumotingiz o'ta darajada qiziq. Mumkin bo'lsa, amakingiz xatni olgan sana bilan uning faraz qilingan suiqasdi sanasini aytib bersangiz.

– Xat 1883-yilning martida kelgan edi. Amakim yetti haftadan keyin, ikkinchi mayga o'tar kechasi o'ldi.

– Tashakkur. Marhamat, davom ettiring.

– Otam Xorshem molikonasini tasarrufiga olgan paytidanoq mening qistovim bilan – chortoqni sinchiklab ko'zdan kechirdi. Biz u yerdan mis quticha topdik. Ichidagi bor narsa yo'qotilgan edi. Qopqog'ining ichki tomonida uchta «K» harfi bor, pastiga: «Xatlar, qaydlar, tilxatlar va reyestr» so'zlari yozilgan qog'oz yopishtirilgan edi. Bizning taxminimizcha, bu so'zlar polkovnik Opensho yo'q qilib tashlagan qog'ozlarning mazmunini bildirsa kerak. Bundan tashqari, amakim Amerikada yashagan vaqtlarga mansub parokanda qog'ozlar bilan yon-daftarlarni aytmaganda, chortoqda bironta ham ahamiyatga molik narsa yo'q edi. Ular ba'zilar urush davriga tegishli bo'lib, amakim o'z burchini yaxshi ado etgani, jasur soldat sifatida dong chiqarganidan shohidlik berardi. Boshqa qog'ozlar Janubiy shtatlarni qayta qurish davriga xos, harbiy siyosatga taalluqli, negaki, chamasi, amakim shimoldan jo'natilgan siyosiy arboblardan – «sakvoyajchilar»ga qarshi oppozitsiyada katta o'rin tutgan bo'lsa kerak.

Shunday qilib, 1884-yilning boshlarida Xorshemga kelib o'rnamshdi, 1885-yilning yanvarigacha hamma ishlar ajabto-vurgina ketayotgan edi. To'rtinchi yanvar kuni nonushta qilib



o'tirganimizda otam daf'atan hayratdan qichqirib yubordi. Bir qo'lida hozirgina ochilgan konvertni ushlab turar, ikkinchi qo'lining kaftida besh dona quruq apelsin urug'i yotar edi. U doimo, o'z ta'biri bilan aytganda, mening polkovnik haqidagi uydirmalarimdan kulardi, endi esa o'zi ham shunday xat olgach, g'oyat hayratlanib, tashvishga tushib qoldi.

«Bu nima bo'lishi mumkin, Jon?» – dedi u g'o'ldiragancha. Mening yuragim orziqib ketdi...

«Uchta «K» harfi bo'lishi kerak», – deb javob berdim men. Otam konvertning ichiga qaradi.

«Ha, xuddi o'sha harflar! – deb qichqirib yubordi u. – Lekin tepasiga nimalardir deb yozilgan».

«Qog'ozlarni quyosh soatiga olib chiqib qo'ying», degan so'zlarni o'qidim, uning yelkasi osha qararkanman.

«Qanday qog'ozlar? Qanday quyosh soati?» – deb so'radi u.

«Bog'dagi quyosh soati, bu yerda boshqa unday soat yo'q. Aytilgan qog'ozlar o'sha kuydirib yuborilgan qog'ozlar bo'lsa kerak».

«Jin ursin! – dedi u, o'zini o'nglab olib. – Biz bir madaniy mamlakatda yashasak. Bunaqa tuturiqsiz narsalarga o'rin bo'lmasligi kerak. Xat qayerdan kelgan ekan?»

«Dapdidan», deb javob berdim men, pochta markasiga qarab olgach.

«Bitta-yarimtaning bema'ni hazilidir, – dedi u. – Allaqayoqdagi quyosh soati bilan allaqanday qog'ozlarning menga nima daxli bor? Har xil bema'ni balo-battarlarga e'tibor berish shartmi?»

«Men politsiyaga ma'lum qilardim», dedim men.

«Meni kulgi qilishsinmi? O'lsam ham unday qilmayman».

«Bo'lmasa, ruxsat bering, men xabar qilay».

«Mutlaqo unday qila ko'rma. Behuda bir narsaga shovshuv ko'tarilishini xohlamayman».

Otamga gap uqtirish foydasiz, u juda o'jar edi. Meni mashaqqatli tashvishlar chulg'ab oldi.

Xatni olganining uchinchi kuni otam Portsdaun-Xilli istehkomlaridan biriga qo'mondonlik qiluvchi mayor Fribodi



degan qadrdon do'stini ko'rgani ketdi. Ketganidan xursand edim: uyda bo'lmasa xatardan xoliroq bo'ladi, deb o'ylagan edim. Biroq yanglishgan ekanman. Otam ketgandan ikki kun o'tgach, mayordan darhol yetib borishimni iltimos qilgan telegramma oldim. Otam o'sha yerdagi ko'pdan-ko'p chuqur bo'r konlaridan biriga qulab tushibdi. U kallasi majaqlangan holda behush yotgan ekan. Oshiqqancha tepasiga yetib borsam, hushiga kelmay o'lib qolibdi. Aftidan, u Feremdan qosh qorayganda qaytib kelayotgan bo'lgan, o'sha joylar unga tanish bo'lmaganligi, bo'r konlari mutlaqo ihotalanmaganligi uchun tergovchilar ikkilanib o'tirmasdan: «O'lim baxtsiz hodisa oqibatida yuz bergan», deb hukm chiqarganlar.

Men uning o'limining hamma jihatlarini sinchiklab o'rganib chiqdim, ammo suiqasddan belgi beradigan biron narsa topolmadim. Otamni tunashmagan, tanasida hech qanday zo'rlik alomatlari yo'q, tergovchilar hech qanday izlar topmagan, yo'llarda hech qanday shubhali shaxslar uchramagan. Tinchimni yo'qotganimni, otamni tuzoqqa ilintirganlariga amin bo'lganimni gapirib o'tirishim shart emasdir.

Ana shunday qayg'uli vaziyatda vorislik huquqiga molik bo'ldim. Nega merosdan voz kecha qolmadingiz, deb so'rarsiz mendan. Javob beraman: bizning boshimizga tushgan barcha baxtsizliklar amakimning hayotida allaqachonlar yuz bergan voqealar qandaydir yo'llar bilan bog'liq, xavf-xatar men qayerda bo'lsam ham tahdid soladi, deb ishonch hosil qilgan edim.

Sho'rlik otam 85-yilning yanvarida qazo qilgan bo'lsa, o'shandan buyon ikki yil-u sakkiz oy vaqt o'tdi. Ana shu vaqt mobaynida men Xorshemda osoyishta yashab keldim, yaqin ajdodlarimizning halokatidan keyin bu la'nat tavqi endi xonadonimizga ortiq tahdid solmaydi, deb umid qila boshlagan edim. Biroq barvaqtroq xotirjam bo'lgan ekanman: kecha ertalab mening boshimga ham otamning boshiga tushgan falokat tushdi.

Yigit nimchasining cho'ntagidan g'ijimlangan konvert oldida, stolga o'girilib, unga beshta qurigan apelsin urug'ini ag'dardi.



– Mana konverti, – dedi u. – Pochta muhrida sharqiy London ko'rsatilgan. Ichida otam olgan xatdagi o'sha-o'sha yozuv: uchta «K» harfi bilan «Qog'ozlarni quyosh soatiga qo'ying», degan so'zlar qayd etilgan.

– Siz nima tadbir ko'rdingiz? – deb so'radi Xolms.

– Hech nima.

– Hech nima deysizmi?

– Rostini aytsam, – dedi u, oppoq nafis qo'llari bilan yuzini yashirib, – men o'zimni oldiga ilon o'rimalab kelayotgan ojiz, ayanchli quyondek his qildim. Nazarimda, menga hech qanday ehtiyotkorlik bas kelolmaydigan allaqanday mash'um qismat tahdid solib turganga o'xshaydi.

– Nimalar deyapsiz?! – deb yubordi Sherlok Xolms. – Harakat qilish kerak, aks holda halok, bo'lasiz. Keskin choralargina joningizga ora kirishi mumkin. Umidsizlikka berilish o'rinsiz.

– Men politsiyaga ma'lum qildim.

– Xo'sh, nima bo'ldi?

– Inspektor mening so'zlarimni iljaygancha eshitdi. Aminmanki, bu xatlarni u, kimningdir achchiq hazili, amakim-u otamning o'limini, tergovchilar qayd etganidek, bu ogohlantirishlarga hech bir daxli yo'q baxtsiz hodisa tufayli yuz bergan, deb o'ylasa kerak.

Xolms mushtlarini silkitdi.

– Aql bovar qilmaydigan galvarslik! – deb yubordi u.

– Darvoqe, menga bir politsiyachini poyloqchi qilib berishdi, u mening uyimda uzluksiz navbatchilik qilib turibdi.

– Hozir u siz bilan birga keldimi?

– Yo'q, unga uyda bo'lish buyurilgan.

Xolms yana mushtlarini silkitdi.

– Hamonki menga keladigan ekansiz, nega darhol kela qolmadingiz? – deb so'radi u.

– Bilmabman... Xavotirlarimni shu bugungina mayor Prendergastga aytgan edim, u sizga murojaat etishimni maslahat berdi.

– Axir xatni olganingizga ikki kun bo‘libdi. Nega endi darhol harakatga tushmadingiz. Bizga aytgan ma‘lumotlaringizdan qanday bo‘lmasin yana boshqa ma‘lumotlaringiz bormi? Bizga yordam berishi mumkin bo‘lgan qandaydir muhim tafsilotlaringiz bormi?

– Bir narsa bor, – dedi Jon Opensho. U cho‘ntagini titkilab bir varaq rangsizlangan moviy qog‘oz oldi-da, uni stolga qo‘ydi. – Esimda bor, amakim hujjatlarni yoqqan kuni kullar orasida yotgan, kuymay qolgan qog‘oz chetlari shu rangda edi. Bu qog‘ozni men amakimning xonasida yerdan topib olgan edim. Chamasi, bir chetga uchib tushgan-u shu tariqa butun qolgan. Men bu qog‘ozda urug‘larning eslatilishidan tashqari bizga yordam berishi mumkin bo‘lgan hech bir narsa ko‘rmadim. O‘ylaymanki, bu qandaydir kundalikning bir varag‘i bo‘lsa kerak. Dastxat, shubhasiz, amakimniki.

Xolms chiroqni beriroqqa surdi, ikkovimiz ham egilib, qog‘ozga tikildik. Chetlarining tekis emasligiga qaraganda, u yondaftardan yirtib olingan bo‘lishi kerak. Yuqorisida: «1869-yil, mart» degan yozuv, pastida quyidagi sirli so‘zlar qayd etilgan edi:

«4-da. Gudzon keldi. E’tiqodlari o‘sha-o‘sha.

7-da. Urug‘lar Mak-Kouli, Paramor va Sent-Ogastindagi Jon Sveynga jo‘natildi.

9-da. Mak-Kouli daf bo‘ldi.

10-da. Jon Sveyn daf bo‘ldi.

12-da. Paramornikida bo‘ldik. Ishlar jo-bajo».

– Tashakkur aytaman, – dedi Xolms, qog‘ozni buklab mehmonimizga qaytararkan. – Endi bir daqiqa vaqtni ham boy berib bo‘lmaydi. Biz hatto siz menga aytib bergan narsalarni muhokama qilishga ham vaqt sarf qila olmaymiz. Siz darhol uyingizga qaytib borib, ishga kirishishingiz kerak.

– Men nima qilishim kerak?

– Darhol bir ish qilishingiz kerak. Bizga ko‘rsatgan qog‘ozingiz bilan ta’riflagan mis qutichangizni o‘sha joyga olib borib qo‘ying. Qolgan qog‘ozlarni amakingiz kuydirib



yuborganini, shu bir varag'igina qolganini aytib, maktubcha yozing-da, uni ham ilova qiling. Buni mumkin qadar ishonarli qilib qayd eting. Shundan keyin qutichani amr qilganidek, darhol quyosh soatiga olib borib qo'ying. Tushundingizmi?

– Mutlaqo.

– Hozir qasos yoki shunga o'xshagan narsa to'g'risida xayol qila ko'rmang. O'ylaymanki, jinoyatchilarni qonuniy yo'l bilan jazolash mumkin bo'lar: axir hali biz tuzoq qo'yishimiz kerak, holbuki, ular tuzoqni allaqachon qo'yib qo'yishibdi. Avvalo, sizga tahdid solayotgan xavfning oldini olish, ana undan keyingina sirni ochib, aybdorlarni jazolash kerak bo'ladi.

– Tashakkur aytaman sizga, – dedi-da, yigit o'rnidan turib plashchini kiya boshladi. – Siz menga jon kiritdingiz, umid bag'ishladingiz. Sizning maslahatingiz bilan ish ko'raman.

– Bir daqiqa ham vaqtni boy bermang. Eng muhimi, ehtiyot bo'ling, shubha yo'qki, sizga dahshatli xavf tahdid solib turibdi. Siz uyingizga qanday ketasiz?

– Poyezdda, Vaterloo vokzalidan.

– Hozir soat o'n bo'lganicha ham yo'q. Ko'chalar gavjum, xullas, umid qilamanki, xatardan xoli bo'lasiz. Ammo, har qalay, ogoh bo'ling.

– Qurolim bor.

– Bunisi yaxshi. Ertaga sizning ishingizga kirishaman.

– Demak, men sizni Xorshemda ko'rar ekanman-da?

– Yo'q, ishingiz ipining uchi Londonda. Men uni shu yerdan qidiraman.

– Unday bo'lsa, men sizning oldingizga ikki kundan keyin kelib, quticha bilan qog'ozlar nima bo'lganini aytaman. Maslahatlaringizga to'la-to'kis amal qilaman.

U qo'l berib xayrlashgancha chiqib ketdi.

Shamol boyagisidek uvillar, yomg'ir derazalarga kelib urilar edi. Bu g'alati, mudhish hikoyani telbalangan bo'ron dilga solgandek, u bizga dovul olib keladigan dengiz o'lani singari kelib qolgandek tuyulardi.

Sherlok Xolms bir qancha vaqt boshini quyi solib, kamindagi lang'illagan alangaga tikilgancha indamay o'tirdi.



Keyin trubkasini tutatib, kresloga orqa tashlagan ko'yi shift ostida bilanglayotgan moviy tutun halqalarini kuzata boshladi.

– O'ylashimcha, Uotson, biz hali bunday aql bovar qilmaydigan ishni ko'rmagan ekanmiz, – dedi u nihoyat.

– Ehtimol, agar «To'rtlar belgisi»ni hisobga olmasak.

– Ha, shunday... Har qalay, nazarimda, bu Jon Openshoga Sholtoga qaraganda kattaroq xavf tahdid solib turibdi.

– Siz bu xavf haqida biron tasavvur paydo qildingizmi?

– Bu haqda ikki xil fikr bo'lishiga o'rin yo'q, – deb javob berdi u.

– Jumboq nimada bo'lmasa? O'sha «K. K. K.» kim-u u nega bu baxtsiz xonadonni ta'qib qiladi?

Sherlok Xolms ko'zlarini yumib, kresloning suyanchiqlariga tayandi-da, barmoqlarining uchlarini chirmashtirdi.

– Komil mutafakkir, – deb uqtirdi u, – yagona faktni har tomondan mushohada etarkan, uni yuzaga keltirgan barcha voqealar silsilasinigina emas, shuningdek, undan kelib chiqadigan barcha oqibatlarni ham ko'zdan kechira biladi. Kyuvye hayvonning bir suyagiga qarab uni to'laligicha to'g'ri tasvirlab bera olganidek, voqealar silsilasidagi bir bo'g'inni to'la-to'kis o'rgangan kuzatuvchi barcha bo'g'inlarni, oldingilarini ham, keyingilarini ham aniq belgilab berishga qodir bo'lishi kerak. Biz hali ong bilangina idrok etish mumkin bo'lgan ko'p narsalarni tushunib yetganimiz yo'q. Mulohaza yuritish vositasida yechish uchun o'z tuyg'ulariga suyanib yo'l qidirganlarning barchasini tang qilib qo'ygan masalalarni ham hal qilish mumkin. Biroq bu san'atni kamoliga yetkazish uchun mutafakkir o'ziga ma'lum bo'lgan faktlarning barchasidan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, bu esa tabiiy ravishda siz bemalol ishonch hosil qilishingiz mumkin, fanning barcha sohalaridan to'la-to'kis bilimga ega bo'lishni taqozo etadi, ana shu narsa esa hatto bizning qomuslar va bepul ma'lumot ola bilish zamonamizda ham g'oyat kamyob fazilatdir. O'z faoliyati uchun foydasi tegishi mumkin bo'lgan narsalarning barchasini o'rgangan odamni tasavvur etish osonroq, men o'zim



xuddi shu narsaga intilib keldim. Agar xotiram yoziq bo'lmasa, do'stligimizning dastlabki kunlarida siz mening bilimlarimning chegaralarini aniq belgilab bergan edingiz.

– Ha, qiziq hujjat edi, – dedim kulib yuborib. – Esingizdami, sizning falsafa, astronomiya, siyosat bo'yicha ma'lumotlaringiz nolga teng edi. Botanikadan xabardorligingiz chalakamchatti, geologiyadan chuqur, negaki ish Londondan ellik milya naridagi aylanada joylashgan har bir joyda sachragan loy iziga borib taqaladi: kimyodan bilimingiz g'aroyib, anatomiyadan – poyma-poy; jinoyat va sud xronikasidan – beqiyos. Bundan tashqari, unda sizning skripkachi, bokschi, qilichboz, advokat, ashaddiy kokainchi, kashanda ekanligingiz aytilgan edi. Tahlillarimning asosiy moddalari shulardan iborat edi.

So'nggi modda Xolmsning kulgisini qistatdi.

– Nima derdim, hozir ham o'shanda aytgan gaplarimni aytaman, odam miyasi tomining tagiga o'ziga kerak bo'ladigan barcha narsani joylashtirishi, qolgan qaqir-ququrni esa kerak bo'lib qolgan taqdirda, hamisha qo'li ostida bo'lishi uchun kutubxonasi yonidagi hujraga taxlab qo'yishi kerak. Bizga bugun kechqurun taklif etilgan ish uchun, albatta, biz barcha zaxiralarimizni jalb etishimiz lozim. Iltimos, Amerika qomusining «K» harfiga doir jildini olib bering-chi. U yoningizdagi rafda turibdi. Tashakkur sizga. Endi barcha tafsilotlarni muhokama qilamiz, ko'raylik-chi, ulardan qanday xulosa chiqarish mumkin ekan. Eng avvalo, mutlaqo ajab emaski, polkovnik Opensho Amerikani tark etish uchun juda jiddiy sabablarga ega bo'lgan bo'lsa. Uning yoshidagi odamlar barcha odatlariga xilof qilishga, Angliyaning ovloqdagi shaharchasida uzlatnishin hayot kechirish uchun Floridaning g'aroyib iqlimidan ixtiyoriy ravishda voz kechishga moyil bo'lmaydilar. Uning Angliyada tanho yashashga bo'lgan o'taketgan o'chligi, u kimdandir yoki nimadandir qo'rqqan, degan fikrni tug'diradi, binobarin, biz shunday amaliy farazga suyanishimiz mumkinki, u xuddi kimdandir yoki nimadandir qo'rqqani tufayli Amerikadan qochishga majbur bo'lgan. Uning



xususan nimadan qoʻrqqanligi toʻgʻrisida biz u bilan vorislari olgan mashʼum xatlarga qarab muhokama yuritishimiz mumkin. Bu xatlarga qanday markalar yopishtirilganini payqadingizmi?

– Birinchi xat Pondisheridan, ikkinchisi – Dandidan, uchinchisi Londondan.

– Londonning sharqiy qismidan! Siz bundan qanday xulosa chiqardingiz?

– Bularning hammasi dengiz portlari. Aftidan, joʻnatuvchi kemada boʻlgan boʻlishi kerak.

– Joyida. Endi jumboqning kaliti qoʻlimizda. Ajab emas, mutlaqo ajab emaski, joʻnatuvchi kemada boʻlgan boʻlsa. Endi yana bir nuqtani koʻzdan kechiraylik. Xat Pondisheridan joʻnatilganida tahdid bilan uning amalga oshirilishi orasida yetti hafta oʻtgan, xat Dandidan joʻnatilganida esa atigi uch-toʻrt kungina oʻtgan. Bu sizda biron fikr tugʻdirmaydimi?

– Birinchi holda katta masofani bosib oʻtish kerak boʻlgan.

– Axir xat ham katta masofani bosib oʻtishi kerak boʻlgan-ku.

– Unda tushunmadim.

– Taxmin qilishga toʻgʻri keladiki, oʻsha odam yoki oʻsha odamlar tushgan kema yelkanli boʻlishi kerak. Nazarimda, ular oʻzlarining gʻalati ogohlantirishlari yoki belgilarini doimo maqsadlarini amalga oshirgani yoʻlga chiqishlaridan oldin joʻnatib kelganga oʻxshaydilar. Dandidan joʻnatilgan belgidan keyin ish qanday tezlik bilan amalga oshirilganini koʻrdingizmi? Agar ular Pondisheridan bugʻ kemasida yoʻlga chiqqan boʻlsalar, ular qariyb xat bilan bir vaqtda yetib kelgan boʻlar edilar. Aslida esa yetti hafta oʻtgan. Oʻylaymanki, yetti hafta vaqt xatni olib kelgan pochta bugʻ kemasining tezligi bilan xat egasini olib kelgan yelkanli kemaning tezligi orasidagi tafovutni bildiradi.

– Shunday boʻlishi mumkin.

– Bugina emas. Turgan gap. Endi koʻrdingizmi ishni pay-salga solib boʻlmasligini, yosh Openshoga nima uchun ehtiyot boʻlishi kerakligini tayinlaganimni ham tushungandirsiz. Halo-



kat har gal xatni jo'natuvchilar yelkanli kemada yetib kelishlari kerak bo'lgan muddatning oxirida yuz bergan. Ammo bu xat esa Londondan jo'natilgan, shunga ko'ra biz muddatning kechiktirilishiga umid bog'layolmaymiz.

– Yo rabbiy! – deb yubordim men. – Bu shafqatsiz ta'qib nima bo'ldi ekan?

– Aftidan, bir vaqtlar Opensho olib kelgan qog'ozlar yelkanli kemadagi odam yoki odamlar uchun g'oyatda muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Mutlaqo aniqki, u kemada yolg'iz o'zi emas. Bir odam tergovchilarni chalg'itish uchun bu yo'sinda ikki suiqasdni amalga oshirolmasdi. Bu ishda, chamasi bir necha odam, shunda ham tadbirli, jur'atli odamlar ishtirok etgan. Ular qog'ozlarini, kimning ixtiyorida bo'lishiga qaramay, qo'lga kiritishga qat'iy ahd qilganlar. Shunday qilib, ko'rib turibsiz, «K. K. K.» bir odamning atoqlariga tegishli harflar emas, butun boshli jamiyatning belgilari.

– Qanday jamiyatning belgilari ekan?

– Siz hech qachon ku-kulks-klan haqida eshitganmisiz? – dedi Xolms, men tomonga engashib shivirlagancha.

– Eshitmaganman.

Xolms tizzasida turgan kitobni varaqladi.

– Bu yerda shunday deyilgan: «Ku-klus-klan. Bu nom otishga tayyorlanayotgan miltiq o'qdoni dastasining o'ziga xos tovushiga o'xshash ohangga asoslangan. Bu vahima soluvchi maxfiy jamiyatni janubliklar armiyasining sobiq soldatlari Grajdanlar urushidan keyin ta'sis etgan: tez orada turli shtatlarda, asosan Tennesi, Luiziana, Shimoliy va Janubiy Karolina, Jorjiya va Floridada mahalliy bo'limlari tashkil qilingan edi. Bu jamiyat negr saylovchilarni qo'rqitish, shuningdek, o'z qarashlariga qarshi bo'lganlarni o'ldirish yoki mamlakatdan haydab chiqarish kabi siyosiy maqsadlarni ko'zda tutardi. Ku-kluks-klan a'zolarining jinoyatlari yuz berishidan oldin, odatda, mo'ljalga olingan shaxsga g'alati, ammo ma'lum va mashhur shaklda ogohlantirish yuborilar: u mamlakatning ba'zi qismlarida yaproqlari eman novdasi,

boshqalarida esa qovun yoki apelsin urug‘lari orqali ifoda etilar edi. Ana shunday ogohlantirishni olgach, jabrdiyda yo oldingi qarashlaridan ochiqchasiga voz kechishi, yoki mamlakatni tark etishi kerak bo‘lardi. Bordi-yu kimda-kim ogohlantirishga parvo qilmasa, uni muqarrar o‘lim kutar, odatda, qandaydir g‘alati va kutilmagan tarzda ajali yetar edi. Jamiyat shu qadar mukammal tashkiliyligi va shu qadar izchil uslublari bilan ajralib turardiki, ogohlantirishga e‘tiborsiz qaragan biron odamning jazosiz qolishiga muvaffaq bo‘lgani yoki yovuzlikning sababchilari topilganiga bog‘liq biron tasodif qayd etilmagan edi. Qo‘shma Shtatlar hukumati va Janub aholisi eng yaxshi tabaqalarning tadbirlariga qaramay, tashkilot bir necha yil avj olib turdi. Nihoyat, 1869-yili harakat da‘atan to‘xtab qoldi, zotan bu tariqa hodisalarning ayrim ko‘rinishlari keyinchalik ham ro‘y berib turdi».

– E‘tibor bering-a, – dedi Xolms, qomus jildini chetga qo‘yaturib, – jamiyat faoliyatining da‘atan to‘xtab qolishi Openshoning qog‘ozlarini olib Amerikadan chiqib ketgan vaqtiga to‘g‘ri kelayapti. Bu sabab va oqibat bo‘lishi mumkinligi turgan gap. Opensho bilan uning xonadonidagilarni jamiyatning eng murosasiz a‘zolari ta‘qib qilayotganiga taajjublanmasa ham bo‘ladi. Bilasizmi, bu qaydlar bilan kun-daliklar Janubdagi atoqli arboblarga isnod keltirishi mumkin, ko‘plar ana shu qog‘ozlarni qo‘lga kiritmaguncha tinch yotib uxlayolmaydilar.

– Demak, biz ko‘rgan varaq...

– Aynan kutilgan narsaning o‘zi. Agar xotirjam yoziq bo‘lmasa, unda: «A, B va V ga urug‘lar jo‘natildi», degan yozuv bor edi, demak, o‘sha odamlarga jamiyatning ogohlantirishini jo‘natganlar. Keyin yozuvlarda A. va B. da‘ bo‘lganliklari, ya‘ni mamlakatni tark etganliklari va nihoyat, V. nikida bo‘lganliklari aytiladi. Qo‘rqamanki, bu V. uchun yomon tugamadimikan? O‘ylaymanki, doktor, biz bu qorong‘i ishni uncha-muncha yoritishga muvaffaq bo‘lamiz, qolaversa yosh, Opensho uchun birdan-bir najot yo‘li – men bergan maslahatga ko‘ra ish tutish. Bugun biz bundan ortiq



hech narsa deyolmaymiz ham, biron ish qilolmaymiz ham. Menga skripkamni olib bering, yarim soatgina bo'lsa ham bu rasvo ob-havoni yaqinlarimizning undan ham rasvoroq xatti-harakatlarini unutishga urinib ko'ramiz.

Ertalabga borib bo'ron tindi, London uzra tushib turgan tuman pardasi orqali quyosh g'ira-shira nur to'kardi. Men pastga tushsam, Sherlok Xolms nonushta qilib bo'lgan ekan.

– Kechirasiz sizni kutib o'tirmaganim uchun, – dedi u. – Nazarimda, yosh Openshoning ishi bilan ancha ovora bo'ladinganga o'xshayman.

– Siz nima tadbir ko'rmoqchisiz? – deb so'radim men.

– Bu anchagina dastlabki tekshirishlarim nima berishiga bog'liq. Ehtimolki, Xorshemga borib kelishimga to'g'ri kelar.

– Ishni ana shu safardan boshlamoqchimasmisiz?

– Yo'q, Sitidan boshlayman. Qo'ng'iroq chaling, xizmatkor sizga qahva olib keladi.

Qahva kelishini kutgancha men stoldagi gazetani olib, naridan-beri ko'zdan kechira boshladim. Bir sarlavhaga ko'zim tushishi bilan yuragim shuvillab ketdi.

– Xolms, – deb yubordim men, – siz kech qolibsiz!

– Ha-a! – dedi u, chinoyoqni chetga qo'yarkan. – Men shundan xavotir olgan edim. Bu qanday yuz beribdi? – U xotirjam gapirardi, ammo men uning chuqur hayajonlanganini ko'rib turardim.

– Men Openshoning nomi bilan «Vaterloo ko'prigi yaqinidagi fojia» degan sarlavhani ko'rib qoldim. Bu yerda shunday deyilgan:

«Kecha kechqurungi to'qqiz bilan o'n orasida Vaterloo ko'prigi yaqinida navbatchilik qilayotgan konstebel Kuk yordam so'rab dodlagan ovoz bilan suvning shaloplaganini eshitgan. Tun qop-qorong'i va bo'ronli bo'lgani uchun, o'tkinchilardan bir nechasining yordamiga qaramay, cho'kayotgan kimsani qutqarib qolish mumkin bo'lmagan. Lekin baribir konstebel shovqin ko'targach, daryo politsiyasining ko'magida jasad topib olingan. G'arq bo'lgan – cho'ntagidan chiqqan konvertga



qaraganda Xorshem yaqinida yashagan Jon Opensho degan yigit ekan. Taxmin qilishlaricha, u Vaterloo vokzalidan jo'natilgan oxirgi poyezdga oshiqqan, tun nihoyatda qorong'i bo'lgani uchun shoshilishda yo'ldan adashib ketgan-da, daryo kemachiligining kichik bandargohlaridan birida toyib ketib suvga qulagan. Tanasida zo'rlik belgilari uchratilmagan, binobarin, marhumning baxtsiz hodisa qurboni bo'lganiga hech qanday shubha yo'qki, mazkur hol daryo bandargohlarining ahvoliga ma'murlarning diqqatini tortishi kerak».

Biz bir necha daqiqa churq etmay o'tirdik. Men Xolmsni hech qachon bunday larzaga tushgan, ezilgan holda ko'rmagan edim.

– Bu mening izzat-nafsimga qattiq tegdi, – dedi u nihoyat. – Shubhasiz, bu – uncha zo'r tuyg'u emas-u, ammo bu mening izzat-nafsimga qattiq tegdi. Endi Openshoning ishi mening shaxsiy ishim bo'lib qoladi, agar Xudo menga salomatlik bersa, buning tagiga yetmay qo'ymayman. U menga madad tilab kelgan bo'lsa-da, men uni ajalga ro'para qilsam!

U stuldan sapchib turib, uzun-uzun, nozik barmoqlarini asabiy g'ijimlay-g'ijimlay, dahshatli hayajon chulg'agan ko'yi xona bo'ylab yura boshladi. Rangpar yuzi lovullardi.

– Ayyor iblis! qarang! – deya qichqirib yubordi u nihoyat. – Ular yigitni pastga, daryo bo'yiga olib tushishga qanday muvaffaq bo'ldi ekanlar? Qirg'oq stansiyaga olib boradigan yo'lga butunlay teskari. Ko'priksiz esa, albatta, hatto shunday oqshomda ham juda gavjum bo'lgan. Biroq ko'ramiz, oqibat kim yengib chiqar ekan. Men ketdim.

– Politsiyagami?

– Yo'q, men o'zim politsiya bo'laman. Men o'rgimchak inidan tuzoq qo'yganimda politsiya unda pashsha tuta qolsin.

Men kun bo'yi o'zimning tibbiy mashg'ulotlarim bilan band bo'lib, kech kirgach allamahalda keldim. Sherlok Xolms hali kelmagan ekan. U horib-charchab, bo'zargan holda kirib kelganida soat o'nlarga borib qolgan edi. U bufetning oldiga borib, bir burda non sindirib oldi-da, yutoqib kavshay boshladi, ora-sira katta-katta qultumlab suv ichardi.



– Ochiqdingizmi? – dedim men.

– Ochimdan o‘lay dedim. Ovqatlanish esimdan chiqib ketibdi. Nonushtadan beri tuz totganim yo‘q.

– Nima deyapsiz?

– Tuz totmadim. Bu xayolimga ham kelmadi.

– Ishlaringiz qalay?

– Joyida.

– Jumboqning kalitini topdingizmi?

– Jinoyatchilar changalimda turibdi. Yosh Openshoning qasosi olinadigan vaqt uzoqqa cho‘zilmaydi. Bilasizmi, Uotson, keling, bu iblislarning o‘z tamg‘alari bilan la‘natlaylik! Chakki topilmabdimi, a?

– Nima demoqchisiz?

U bufetdan apelsin olib, pallachalarga ajratdi-da, urug‘larini stolga sitib tushirdi. Beshta urug‘ni konvertga solib, qopqog‘ining ichki tomoniga: «SH. X. D. O. uchun» deb qayd etgach, konvertni yopishtirdi-da, «Kapitan Jeyms Kelxunga, «Yolg‘iz yulduz» yelkanli kemasi, Savanna, Jorjiya» degan manzilni yozdi.

– Xat Kelxunni u portga kirib kelganida kutib turgan bo‘ladi, – dedi zaharxanda bilan. – O‘ylaymanki, u kechasi bilan uxlayolmay chiqadi. Xat uning qismatini xuddi Openshonning qismatidek oldindan bexato aytib beradi.

– Kapitan Kelxun kim o‘zi?

– Butun shaykaning yetakchisi! Men boshqalarini ham qidirib topaman, ammo u birinchi bo‘ladi.

– Siz ularni qanday topdingiz?

U cho‘ntagidan sanalar va nomlar bilan to‘lgan kattakon bir varaq qog‘oz oldi.

– Men kun bo‘yi vaqtimni Lloydning kartotekasi-yu eski gazeta dastalarini ko‘zdan kechirish bilan o‘tkazdim. Pondisherida 83-yilning yanvari bilan fevralida bo‘lgan kemalarning yo‘llarini o‘rgandim. Bu oylar mobaynida salmoqli vaznga ega bo‘lgan o‘ttiz oltita kema qayd etilgan ekan. Ulardan «Yolg‘iz yulduz» degani darhol diqqatimni tortdi. Rost, uning



chiqish joyi London edi, ammo Amerika shtatlaridan birini ham «Yolg'iz yulduz» deb ataydilar-ku.

– Texasni bo'lsa kerak.

– Shaxsan qaysinisini ekanligini bilmayman-u, harqalay, bu Amerika kemasi ekanligini payqadam.

– Xo'sh, shundan keyin nima bo'ldi?

– Men kemalarning Dandiga kelgan-ketgan sanalarini ko'zdan kechirdim, «Yolg'iz yulduz» yelkanli kemasi u yerda 85-yilning yanvarida bo'lganini ko'rganimdan keyin gumonlarim qat'iy ishonchga aylandi. Shundan keyin men hozirgi vaqtda London portida turgan kemalar haqida ma'lumotlar qidirdim.

– Nima bo'ldi?

– «Yolg'iz yulduz» bu yerga o'tgan haftada kelgan ekan. Men Albert doklariga bordim. Bilsam, «Yolg'iz yulduz» bugun saharlab Savannaga qaytib ketish uchun daryoning etagiga qarab yo'lga tushgan ekan. Greyvsvendga telegramma berib aniqlasam, «Yolg'iz yulduz» u yerdan bir necha soat ilgari o'tib ketgan ekan, shamol sharqdan esayotganligi uchun, aminmanki, u allaqachon Guduindan o'tib, Uayt oroliga yaqinlashib qolgan bo'lsa kerak.

– Endi nima qilmoqchisiz?

– O, Kelxun endi mening changalimda turibdi! Aniqladim, u bilan ikkita yordamchisi – kema-dagi amerikaliklar – shulargina ekan. Qolganlar finlar bilan nemislar ekan. Shunisini ham bildimki, uchalovlari o'tgan kuni tun bo'yi qirg'oqda bo'lishibdi. Buni menga «Yolg'iz yulduz»ga yuk ortishda qatnashgan odam aytdi. Yelkanli kema Savannaga kirib borgunicha pochta bug' kemasi mening xatimni yetkazdi, telegraf esa Savanna politsiyasiga bu uch jentlmenning qotillikda ayblanganliklariga ko'ra ularni bu yerda sabrsizlik bilan kutayotganliklarini xabar qildilar.

Biroq insonlarning eng yaxshi rejalarida doimo qanday bo'lmasin biron qusur chiqib qoladiki, Jon Openshoning qo-



tillariga ham ularning o'ziga o'xshagan qat'iyatli kimsa izlarini topganini bildiruvchi apelsin urug'larini olish nasib bo'lmadi.

O'sha yili kuz po'rtanalari odatdagidan ko'ra davomliroq bo'ldi. Biz Savannadan «Yolg'iz yulduz» haqida uzoq vaqt xabar kutdik, ammo darak bo'lmadi. Nihoyat, Atlantik okeanning bir joyida qandaydir kemandi axtarshtevani topilgani, unda «Yo. Y.» harflari o'yib yozilganligi haqida axborot keldi. Biz «Yolg'iz Yulduz»ning taqdiri haqida shunigina bilishga muvassar bo'ldik.

LABI TIRTIQ ODAM

Ayza Uitni afyun chekishga o'rganib qoldi. U kollejdaligi-dayoq de Kuinsining²⁰ afyun chekuvchi odamning tushlari va hislarini tasvir qiluvchi kitobini o'qib, o'sha yozuvchi boshidan kechirgan hodisalarni kechirish uchun tamakisiga afyun aralashtirib cheka boshlagan edi. Ko'plar qatori u ham chekishga o'rganish tashlashdan ko'ra qiyinroq ekanini tez orada payqadi. Uzoq yillar chekib yurarkan, unga hamma do'stlari achinib, rahmlari keldi. Uning sarg'ish, salqigan yuzi, qorachiqdari kichraygan ko'zlari, osilgan qovoqlari, kresloda yotgan ojiz gavdasi, xullas, adoyi tamom bo'lgan odam hamon ko'z o'ngimda turibdi.

1889-yilning iyunida bir kuni kechqurun ayni odamni esnoq bosib o'qtin-o'qtin soatga qaray boshlaydigan vaqtda kvar-tiramning qo'ng'irog'i chalinib qoldi. Men kreslodan qaddimni ko'tardim, xotinim esa tikayotgan ishini tizzasiga qo'yib, norozilik bilan ijirg'andi.

– Biror mijoz keldi! – dedi u. – Kasal ko'rgani boradigan bo'lding-da yana.

Men xo'rsinib qo'ydim, chunki kun-uzunkun og'ir ishdan horib-charchab yaqingina kelgan edim.

Biz eshik ochilib, yo'lakdan kimningdir shoshgancha yurib kelayotganini eshitdik. Xonamizning eshigi ochilib, qora ko'ylak kiygan, yuziga qora to'r tutgan xonim kirib keldi.

– Bemahalda kirib kelganim uchun kechiringlar, – deb gap

²⁰ Tomas de Kuinsi (1785 – 1859) – ingliz yozuvchisi, «Afyun iste'mol qilgan bir inglizning tavbasi» degan mashhur kitobning muallifi.



boshladi-yu, o‘zini tutolmay, birdan xotinimga tashlandi-da, uni quchoqlab yelkasiga bosh qo‘ygancha ho‘ngrab yig‘lab yubordi. – Boshimga katta kulfat tushdi! – deb xitob qildi u. – Juda yordamga muhtojman!

– Iya, bu Ket Uitni-ku, – dedi xotinim, uning to‘rini ko‘tarib. – O‘takamni yorib yuboray deding-a, Ket! Sen ekanliging xayolimga ham kelmabdi.

– Senga arz qilgani keldim. Boshimni qayoqqa urishni bilmay qoldim.

Bu odat hukmidagi narsa edi. Boshlariga kulfat tushgan odamlar najot istab mayoqqa qarab uchgan qushlardek g‘izillab xotinimning oldiga kelishardi.

– Ajab qilibsan! Joylashibroq o‘tir vino bilan suvdan ichib, nima bo‘lganini gapirib ber. Yo Jeymsga aytaymi, kirib yotsinmi?

– Voy, yo‘q, yo‘q! Doktordan ham maslahat va yordam olmoqchiman. Ayzani aytmoqchiman... Uydan chiqib ketganiga roppa-rosa ikki kun bo‘ldi. Undan juda xavotir olyapman.

U biz bilan baxtsiz eri haqida endi suhbatlashayotgani yo‘q – men bilan doktor sifatida, xotinim bilan esa o‘zining qadr don maktabdosh dugonasi sifatida suhbatlashardi. Biz unga imkonimiz boricha tasalli berardik. Eri qayerdaligini biladimi? Uni borib uyiga olib kelsa bo‘larmikin?

Shunday qilish mumkin ekan. U erining so‘nggi vaqtlarda odatda afyunni Sitining sharhida joylashgan ko‘chalardan biridagi buzuqxonada chekib yurishini bilarkan. Shu vaqtgacha u ertadan kechgacha ishrat qilarkan, butunlay holdan to‘yib, tinka-madori qurib kechqurun uyiga qaytib kelarkan, bu gal esa qirq sakkiz soatdan beri daragi yo‘q emish, albatta, hozir o‘sha yerda turli-tuman shubhali kimsalar orasida zahar yutib, yoki uxlab yotgan bo‘lishi mumkinmish. Xotin erining Epper-Suondem-lendagi xuddi o‘sha «Oltin yombi»da ekanligiga amin edi. U nima qila olishi mumkin? Tortinchoq, jur‘atsiz, yoshgina juvon qanday qilib shunday joyga kirib boradi va erini bezorilarning orasidan yulib olib chiqa oladi? U men bilan



birga borsa bo'lmasmikin? Darvoqe, borib nima qiladi? Men Ayza Uitnini davolaganman, doktor sifatida unga so'zim o'tishi mumkin. Xotining ishtirokisiz ishni oson hal qilishimga amin edim. Unga, agar eringiz darhaqiqat «Oltin yombi»da bo'lsa, ikki soat ichida uni kebga o'tqazib uyingizga jo'nataman, deb va'da berdim.

O'n daqiqadan so'ng shinamgina mehmonxonamizni tark etib, ekipajda sharqqa qarab g'izillab ketmoqda edim. Oldinda odatdan tashqari g'alati bir ish turganini bilardim, aslida esa u men kutgandan ko'ra ham g'alatiroq bo'lib chiqdi. Avval boshda hammasi ajabtovurgina edi. Epper-Suondem-lend – daryoning chap qirg'og'i bo'ylab to London ko'prigigacha borib tutashgan baland-baland kemasozlik korxonalari orqasida joylashgan iflogina tor ko'cha edi. Men qidirib yurgan buzuqxona iflos do'kon bilan qovoqxona o'rtasidagi yerto'lada edi; bu g'ordek qorong'i kovakka tik zinapoya olib tushardi. Zinapoya bosqichlarining o'rtasi yedirilib, chuqur tushib qolgan – undan shu qadar ko'pdan-ko'p mast oyoqlar tushib-chiqqan edi.

Keb haydovchiga kutib turishni buyurib, pastga tushdim. Eshik tepasida osilib turgan milt-milt yonayotgan kerosin chiroq yorug'ida eshik zulfinini qoqdim-da, quyuq qo'ng'ir dud bilan to'lgan uzun pastak xonaga kirib bordim; devor bo'ylab muhojirlar kemasidagiga o'xshab, yog'och so'rilar cho'zilib ketgan edi. Qorong'ilik orasidan g'alati, aql bovar qilmaydigan holatda yotgan harakatsiz gavdalarni arang ilg'adim: yelkalari bukchaygan, tizzalari ko'tarilgan, engaklari qaqqayib, boshlari orqalariga tashlangan. Goh u yer, goh bu yerda menga tikilayotgan xira mast ko'zlarni ko'rardim. Zulmat orasidan nuqtadekkina qizil cho'g'lar lang'illab qolar, ular kichkina metall naychalardagi zaharning miqdori kamaygan sari o'chib borar edi. Ko'plari indamay yotar, ba'zilar nimalardir deb dimog'ida ming'illar, ba'zilar esa goh shavq-zavq bilan shoshila-shoshila, goh birdan jim bo'lib qolib alomat bir tarzda go'ng'illagancha suhbatlashishar, ammo hech kim suhbatdoshining gapiga quloq solmas – har kim o'z o'ylari bilangina band edi. Yo'lakning



narigi burchagidagi qo'rada laxcha cho'g'lar lang'illab turibdi, uning oldidagi uch oyoqli kursida novcha bir chol tirsagini tizzalariga tirab, engagini mushtlariga qo'ygancha qimir etmay cho'g'ga tikilib o'tirar edi.

Kirib borishim bilan oldimga malayyalik qora to'riq bir odam yugurib kelib, menga naycha bilan bir ulush afyun uzatdi-da, so'ridagi bo'sh joyni ko'rsatdi.

– Rahmat, men bu yerda qololmayman, – dedim. – Do'stim mister Ayza Uitni shu yerda ekan. Men u bilan gaplashishim kerak.

O'ng tomonimda nimadir g'imirlagandek bo'ldi, kimningdir xitobini eshitdim, qorong'ilikka razm solib menga tikilib turgan rangsiz, ma'yus va allaqanday hurpaygan Uitnini ko'rdim.

– Yo rabbiy, bu Uotson-ku! – deb qo'ydi u.

U mastlik oqibatida yuz beradigan eng ayanchli ahvolda edi.

– Hozir soat necha, Uotson?

– O'n birga yaqinlashib qoldi.

– Bugun nima kun?

– Juma, o'n to'qqizinchi iyun.

– Nahotki? Men bo'lsam, chorshanbadir deb o'ylabman. Yo'q, bugun chorshanba, hazillashdim deng. Odamning o'takasini yorib nima qilasiz-a!

U yuzini kaftlari bilan to'sib, o'kirib yig'lab yubordi.

– Bugun juma deyapman-ku sizga. Sizni xotiningiz ikki kundan beri kutyapti. Uyalmaysizmi shunday qilgani!

– Hali ham uyalyapman. Nazarimda, yanglishayotganga o'xshaysiz, Uotson. Bu yerga kelganimga atigi bir necha soatgina bo'ldi. Uchta trubka... to'rtta trubka... qanchaligini unutdim! Siz bilan birga uyga ketaman. Sho'rlikkinam Ketning tashvish tortishini istamayman. Menga qo'lingizni bering. Kelingiz bormi?

– Bor. Eshikda kutib turibdi.

– Unday bo'lsa, hoziroq jo'nayman. Ammo men ulardan

qarzdorman. Biling-chi, qancha qarz ekanman, Uotson. Juda ham bo'shashib, tinka-madorim qurib ketdi. Pul to'lashga ham chog'im kelmaydi.

Qator yotib uxlayotgan odamlarning orasidagi ensizgina oraliqdan zaharli bangning elituvchi hidlarini hidlamaslik uchun nafasimni ichimga yutgancha buzuqxona egasini qidirgani yo'l oldim. Qo'ra qarshisida o'tirgan novcha cholning oldiga yetganimda kimningdir pidjagimdan tortayotganini sezdim, shivirlab aytilgan shu so'zlarni eshitdim:

– Mening yonimdan o'tib ketib, keyin o'girilib qarang.

Bu so'zlarni aniq eshitdim. Ularni yonimdagi cholgina aytgan bo'lishi mumkin edi. Biroq u hamon shunday bir vaziyatda o'tirardiki, go'yo o'z o'ylari bilangina banddek, atrofidagi hech narsani sezmayotgandek edi. Yoshi anchaga borib qolgan ozg'in, bujmaygan bu odam bukchayib o'tirar; afyunli trubka majolsiz barmoqlaridan sirg'alib tushib ketgandek tizzalari orasida turar edi. Oldinga ikki qadam yurib, orqamga o'girildim. Hayratdan qichqirib yubormaslik uchun bor matonatimni ishlatishga to'g'ri keldi. U shunday burildiki, yuzini mendan boshqa hech kim ko'ra olishi mumkin emasdi. Uning yelkasi rostlanib, ajinlari yozilib, xira ko'zlari odatdagidek chaqnay boshladi. Qo'ra oldida mening hayratlanganimdan kulgancha Sherlok Xolmsning o'zginasi o'tirardi. U o'g'rincha imo qilib, meni oldiga chaqirdi-da, yana labi-lunji osilgan qaltiroq cholga aylandi-qo'ydi.

– Xolms! – deb shivirladim men. – Bu buzuqxonada nima qilib o'tiribsiz?

– Mumkin qadar sekinroq gapiring, – deb shivirladi u, – qu-log'im juda yaxshi eshitadi. Agar siz esi og'ib qolgan do'stingizdan xalos bo'lsangiz, siz bilan bir ozgina suhbatlashishga musharraf bo'lardim.

– Meni tashqarida keb kutib turibdi.

– Bo'lmasa oshnangizni o'sha kebda uyiga jo'nata qoling. Undan xavotir olmasangiz ham bo'ladi, chunki bironta mojaro chiqarishga chog'i keladigan kuchi yo'q. Agar meni uchratib



qolib yonimda qolganingizni yozib kucherdan xotiningizga bir enlikkina xat berib yuborsangiz yana yaxshi bo'lardi. Meni ko'chada kutib turing, besh daqiqadan keyin chiqaman.

Sherlok Xolmsning so'zini yerda qoldirish mahol: uning talablari hamisha shu qadar muayyan, aniq va amirona ohangda bo'ladi. Bundan tashqari, men Uitnini kebga o'tqazib jo'natib yuborsam, uning oldidagi burchimni ado etgan bo'laman, mashhur do'stimning kundalik faoliyatini tashkil etgan ajoyib sarguzashtlardan birida ishtirok etishimga hech qanday mone'lik qolmaydi, deb o'yladim.

Sherlok Xolmsga uning tadqiqotlarida yordam berish men uchun eng oily baxt edi. Shu sababli xotiningga bir enlikkina xat yozib, Uitnining qarzini to'lab, uni kebga o'tqazib jo'natdimda, yaqin joyda sabr bilan kuta boshladim. Keb birpasda zulmat qo'ynida g'oyib bo'ldi. Bir necha daqiqadan so'ng takyadan chol chiqib keldi, men ko'cha bo'ylab u bilan yonma-yon keta boshladim. Ikki kvartalcha joyga u madorsiz oyoqlarini surgab bosgancha munkillab bordi. Keyin shosha-pisha u yoq bu yoqqa alanglagancha qaddini rostladi-da, qahqahlab kulib yubordi. Qarshimda Sherlok Xolms turardi.

– Hoynahoy siz, Uotson, – dedi u, – meni afyun chekishga ruju qilib qolgan, deb o'ylagan bo'lsangiz kerak.

– Rostini aytsam, men sizni bu kovakda ko'rib darhaqiqat taajjublangan edim.

– Aslida bu kovakda sizni ko'rgach men sizdan ko'ra ham ko'proq hayratlandim.

– Do'stimni qidirib yurgan edim.

– Men bo'lsam dushmanimni.

– Dushmanimni?

– Ha. Xullasi kalom, Uotson, hozir g'oyatda qiziq bir ish bilan bandman, esi kirarli-chiqarli bo'lib qolgan taryakkashlarning tuturiqsiz vaysashlaridan biror narsa bilib olishga umidvor edim... Ilgari bunga ba'zan muyassar bo'lardim. Agar o'sha kovakda tanib qolishsa, mening hayotim sariq chaqaga ham arzimas edi, chunki u yerda bir emas, bir necha mar-

ta bo'lganman, buzuqxona egasi yaramas laskar mendan o'ch olishga qasam ichgan. Avliyo Pavel kemasozlik korxonalari-ning muyulishi yaqinidagi bu uyning orqasida shunday bir xufiya eshik borki, oydinsiz qorong'i ko'chalarda undan nimalar-ni olib chiqib tashlashlari haqida ko'pgina alomat voqealarni aytib berishi mumkin edi tili bo'lsa uning.

– O'lik olib chiqib tashlashadi deng?

– Ha, Uotson, o'lik olib chiqib tashlashadi. Agar siz bilan biz bu buzuqxonada o'ldirilgan har bir baxtsiz kishi uchun ming funtdan pul olsak bormi, allaqachon millioner bo'lib ketardik. Bu dars sohilidagi eng mudhish tuzoq, bu tuzoqqa ilingan Nevill Sent-Kler endi uyiga qaytib kelmaydi, deb qo'rqaman. Ammo biz ham tuzoq qo'yamiz.

Sherlok Xolms ikki barmog'ini og'ziga tiqib qattiq hushtak chaldi. Shu zahotiyoq uzoqdan shunga o'xshagan hushtak eshitildi, shundan so'ng esa biz g'ildiraklarning gumburlashi bilan tuyuq tovushlarini eshitdik.

– Xo'sh, Uotson, – dedi Xolms, qorong'ilikdan ikki fonari yorqin shu'la sochib turgan bir otli aravacha chiqib kelarkan, – men bilan borasizmi?

– Agar sizga foydam tegsa...

– Sodiq o'rtog'ning hamisha foydasi tegadi. Mening «Kedr»dagi xonamda ikkita karavot bor.

– «Kedr» deysizmi?

– Ha. Mister Sent-Klarning uyini shunday deb ataydilar. Bu chigalni yechmagunimcha uning uyida yashayman.

– U qayerda?

– Li yaqinidagi Kent degan joyda. Yetti milya yo'l yuri-shimiz kerak.

– Hech narsaga tushunmayapman.

– Mutlaqo tabiiy. Hozir hammasini tushuntirib beraman, o'tiring. Mayli, Jon, sizga ruxsat. Mana sizga yarim kron. Meni ertaga soat o'n birlarda kuting. Tizginni menga bering. Yaxshi qoling.

U otga qamchi urdi, biz qorong'i, bo'm-bo'sh, poyonsiz ko'chalardan aravani yeldirib ketdik va nihoyat, qandaydir keng



ko'prikka yetib bordik, uning ostidan loyqa daryo asta-sekin oqar edi. Ko'prikning naryog'ida ham g'ishtin uyli shunday ko'chalar; bu ko'chalarning sukunatini politsiyachilarning bir maromdagi vazmin qadamlari va bemahal daydib yurgan o'yin-qaroqlarning qo'shiq hamda qichqiriqlarigina buzib turar edi.

Osmon bo'ylab qora bulutlar asta-sekin suzar, ularning oralaridan goh u yerda, goh bu yerda xira yulduzlar miltillab ko'rinar edi. Xolms boshini quyi solgancha chuqur o'y surib, indamay otni haydab borar, men esa yonida o'tirganimcha uning fikri nima bilan band ekanligini payqashga tirishib, o'ylarini bo'lishga jur'at qilolmay borar edim. Bir necha milya yo'l bosib, shahar atrofi bog'lari doirasidan o'tayotganimizda u nihoyat hushiga kelib tirpindi-da, trubkasini tutatdi.

– Siz juda yuragi keng odamsiz, Uotson, – dedi u. – Shu salohiyatingiz tufayli tengi yo'q o'rtoqsiz. Biroq menga hozir shunday odam kerakki, toki xunuk xayollardan qutulish uchun u bilan gaplashib ketishim kerak. Bu yoqimtoygina jajji ayol meni ostonada qarshi olganida unga nima deb javob berishimga garangman.

– Siz mening hech narsadan xabarim yo'qligini unutib qo'yasiz.

– Biz to Liga yetib borgunimizcha sizga bor gapni aytib berishga vaqtim yetadi. Ish jo'nginadek ko'rinadi-yu, holbuki, men unga qanday qilib qo'l urishni bilmay turibman. Kallavaning uchi ko'p, ammo ulardan birontasini qat'iyat bilan ushlayolmayotibman. Men sizga hammasini gapirib beraman, Uotson, balki siz atrofimizni chulg'ab turgan bu zulmatda yilt etgan ziyo shu'lasini uchratib qolarsiz.

– Gapiring bo'lmasa.

– Bir necha yil muqaddam – aniqrog'i, 1884-yilning mayida – Lida Nevill Sent-Kler degan jentlmen paydo bo'ladi, chamasi u puldor kishi edi. U katta bir villani ijaraga olib, uning atrofida ajoyib bog' barpo qiladi-da, to'ralarcha aysh surib yashay boshlaydi. Bora-bora u qo'shnilari bilan tanishib, 1887-yilda o'sha yerdagi pivo pishiruvchining qiziga uylanadi,



hozir undan ikki bolasi bor. Uning aniq bir kasbi-kori yo'q, ammo ko'pgina savdo-sotiq ishlarida ishtirok etadi. Odatda, har kuni ertalab shaharga tushib ketib, u yerdan 5.14 dagi poyezd bilan qaytib keladi. Mister Sent-Kler hozir o'ttiz yetti yoshda. U kamtarona hayot kechiradi; bama'ni er, mehribon ota, deb hamsuhbat bo'lgan odamlar uni maqtaydilar. Yana shuni ilova qilishim mumkinki, uning atigi sakson sakkiz funt-u o'n shilling qarzi bor, bankdagi joriy hisobida esa ikki yuz yigirma funt sterling puli bor. Binobarin, puldan qiynalgan deb taxmin qilishga hech qanday asos yo'q. O'tgan dushanba kuni mister Nevill Sent-Kler shaharga odatdagidan ko'ra barvaqtroq jo'nab ketayotganida ikkita muhim ishi borligini, o'g'liga bir quticha kubik olib kelishini aytgan. Tasodifan o'sha dushanbada u jo'nab ketishi bilan saldan keyin xotini telegramma olgan, telegrammada Eberd kemachilik shirkatida uning nomiga kichkina, ammo g'oyatda qimmatbaho sovg'a olingani aytilgan, xotin buni anchadan beri kutayotgan ekan. Agar siz Londonni yaxshi bilsangiz, sizga ma'lumki, bu kemachilik shirkatining idorasi Fresno-stritda joylashgan bir qanoti siz meni bugun kechqurun qidirib topgan Epper-Suondem-lenga kelib taqalgan. Missis Sent-Kler nonushta qilgach, shaharga tushgan, ba'zi narsalar xarid qilgan, shirkat idorasiga kirib sovg'asini olgan, soat to'rt-u o'ttiz besh daqiqada Suondem-len bo'ylab vokzalga yo'l olgan. Shu yerigacha yaxshi tushunib kelayotgan bo'lsangiz kerak, shunday emasmi?

– Albatta, buning hech tushunmaydigan joyi yo'q.

– Agar yodingizda bo'lsa, dushanbada kun juda isib ketgan edi, missis Sent-Kler asta-asta yurib borarkan, atrofiga alanglab keb qidirib keta boshlagan, chunki bu rayon unga sira yoqmadidi. Shu tariqa Suondem-len bo'ylab ketayotib u qo'qqisdan birovning qichqirganini eshitib qolgan, allaqanday bir uyning ikkinchi qavatidagi derazadan qarab turgan eriga ko'zi tushib, a'zoyi badani muzlab ketgan, nazarida eri uni imo-ishoralar bilan chaqirgandek bo'lgan. Deraza ochiq ekan, u erining yuzini aniq ko'rgan, erining yuzi g'oyatda hayajonlangandek

tuyulgan. Eri unga ikkala qo'lini cho'zib, go'yo birov uni zo'rlab derazadan tortib olib ketgandek birdaniga g'oyib bo'lib qolgan. Biroq xotinning o'tkir ko'zi eri uydin kiyib chiqib ketgan o'sha qora syurtukda bo'lsa-da, yoqasi bilan galstugi yo'qligini payqagan. Erining boshiga biror falokat tushganini fahmlab, u zinapoyadan pastga yugurib tushgan (bu siz meni kechqurun topgan o'sha buzuqxona joylashgan uy edi), oldingi xonadan o'tib borib, yuqori qavatlariga olib chiqadigan zinapoyaga chiqmoqchi bo'lgan. Ammo zinapoya oldida men sizga hozir aytib bergan yaramas laskarga to'qnash kelib qolgan. Laskar yordamchisi ko'magida uni ko'chaga olib chiqib tashlagan. Uning daniyalik bir yordamchisi bor. Dahshatdan esxonasi chiqib ketgan xotin ko'cha bo'ylab yugurgan, baxtiga, Fresno-stritda inspektor boshchiligida aylanib yurgan politsiyachilarni uchratib qolgan.

Inspektor ikki konstabl bilan missis Sent-Klarning orqasidan ergashib kelgan, uy egasining qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, ular xotin derazasidan erini ko'rgan xonaga kirib borishga muvaffaq bo'lishgan. Ammo uni xonadan topisholmagan. O'sha qavatda badbashara bir mayriqdan boshqa hech kimni uchratisholmabdi. U mayriq o'sha yerda yashasa kerak. U ham, laskar ham bu yerda boshqa hech kim yashamaydi, deb qattiq turib olishibdi. Ular hamma narsani shu qadar qat'iy inkor qilishibdiki, inspektor, missis Sent-Kler yanglishmadimikan, deb gumon qila boshlagan ekan hamki, xotin qichqirib yuborib stolda turgan kichikroq taxta qutichaga tashlanibdi-da, jon holatda uning qopqog'ini ochibdi. Qutichadan bolalar o'ynaydigan kubiklar to'kilibdi. Bu eri shahardan olib kelishni va'da qilgan o'yinchoq ekan.

Bu topildiq topilishi bilan mayriqning birdan xijolat bo'lishidan inspektor ishning jiddiyligiga qanoat hosil qilibdi. Xonalarni sinchiklab tintishibdi, tintuv natijasida qabih bir jinoyat ochilibdi.

Bu kvartiraning jihozi, albatta, g'aribona. Oldingi xona mehmonxona xizmatini o'taydi, uning yonida chog'roqqina



yotoqxonasi joylashgan, uning derazasi kemasozlik korxonalaridan birining orqa tomoniga qaragan. Kemasozlik korxonalari bilan yotoq derazasi o'rtasida torgina kanal bo'lib, u suv pasayganda qurib qoladi, suv ko'tarilganda esa to'rt yarim fut balandlikda suvga to'ladi. Yotoqning derazasi serbar, pastdan ochiladi.

Ko'zdan kechirish vaqtida deraza rafida qon izlari topilgan, shuningdek, yog'och polda ham bir necha qon dog'lari topilgach, oldingi xonadagi parda orqasidan mister Nevill Sent-Klarning hamma kiyimlarini topib olishgan. Uning pidjagigina topilmagan. Botinkasi, paypog'i, shlyapasi, soati – hammasi shu yerda ekan. Kiyimida hech qanday zo'rlik asoratini ko'rishmagan. Ammo mister Nevill Sent-Klarning o'zi izziz g'oyib bo'lgan. U derazadagina g'oyib bo'lishi mumkin ekan, deraza rafidagi mash'um qonli dog'lar uning suvdan suzib o'tib jon saqlab qolganiga ishonish amri mahol ekanligini yaqqol ko'rsatib turgan, qolaversa, fojia sodir bo'lgan soatda suv sathi juda baland ko'tarilgan.

Endi diqqatimizni shubha ostiga olinayotgan yaramaslar-ga buramiz. Laskar o'tmishi qorong'i odam, ammo biz missis Sent-Klarning hikoyasidan bilamizki, uning eri derazada ko'ringanidan bir necha lahzadan so'ng laskar pastda bo'lgan, bino-barin, uni jinoyatning ishtirokchisigina deb hisoblash mumkin. U bu ishga daxli borligini mutlaqo inkor etmoqda. Aytishiga qaraganda, u uyida istiqomat qilib turadigan Xyu Bunning umuman nima bilan shug'ullanishidan mutlaqo bexabarmish. G'oyib bo'lgan jentlmenning kiyimi bu xonada paydo bo'lishi unng uchun bir jumboq emish.

Uy egasi laskar to'g'risida ma'lum bo'lgan hamma gap shu. Endi buzuqxona tepasidagi kkinchi qavatda yashaydigan, Nevill Sent-Klarni oxirgi marta ko'rgan kishi ekanligi muqarrar bo'lgan tund bashara mayriqqa kelaylik. Uning oti Xyu Bun, Sitida o'qtin-o'qtin bo'lib turadigan har bir kimsa ham uning qo'rqinchli aftini yaxshi biladi. Uning kasbi tilanchilik,



darvoqe, politsiya qonun-qoidalariga chap berish uchun gugurt sotayotgan kishi qiyofasiga kirib o'tiradi.

Bir emas, bir necha bor payqagan bo'lsangiz kerak, Tred-Nidl-stritning chap tomonida tokchaga o'xshagan joy bor. Bu tokchada bir mayib chordana qurib, tizzalariga bir necha gugurt quti terib qo'ygancha o'tiradi; ko'rganlarning unga rahmi keladi, oldidagi tosh ko'chada yotgan kir charm kepkasiga xayr-ehson yomg'ir bo'lib yog'iladi. Men uni juda ko'p kuzatganman, ammo bir kunmas-bir kun u bilan jinoyatchi sifatida tanishishim mumkinligi xayolimga ham kelmagan, birpasda uning ancha-muncha pul ishlab olishiga hamisha taajjublanar edim. Uning qiyofasi shunday alomatki, oldidan hech kim unga bir qaramay o'tib ketolmaydi. Qizg'ish-malla sochi, quyi uchi yuqorigi labini ikkiga ajratib turgan mudhush tirtiqli, yapasqi engagi va qora o'tkir ko'zlari – bularning hammasi uni jo'ngina tilanchilar to'dasidan ajratib turardi. Oldidan o'tib ketayotib unga tegajog'lik qilmoqchi bo'lgan har kimsani o'sha zahotiyoyoq achchiq-achchiq hazil gaplar bilan uzib oladi.

Shubhali takyaxonaning yuqori qavatida yashaydigan bu odam shunday... Biz qidirayotgan jentlmenni undan keyin hech kim ko'rmagan.

– Ammo u mayriq-ku, axir! – dedim men. – Bir o'zining shunday baquvvat, yag'rindor yigitga qanday kuchi yetishi mumkin?

– Uning oyog'igina mayib, yurganida biroz oqsoqlanadi, umuman esa, basalommat polvon. Siz, Uotson, albatta, shifokor sifatida bilasizki, kishining bir muchasi zaif bo'lsa, buning evaziga boshqa muchalari g'oyatda baquvvat bo'ladi.

– Marhamat, hikoyangizni davom ettiring.

– Derazadagi qonni ko'rgach, missis Sent-Kler hushidan ketayozgan, uni politsyachi hamrohligida unga jo'natganlar, chunki bundan keyingi tekshirishda uning ishtirokiga ehtiyoj bo'lmagan. Bu ishni olib borishni o'z zimmasiga olgan inspektor Barton buzuqxonani boshdan-oyoq sinchiklab tintib chiqqan, ammo hech qanday yangi narsa topolmagan. Xato qilib



qo'yishgan: Bunni dastlabki daqiqadayoq qamoqqa olishmagan, bu bilan bir zum do'sti laskar bilan bir-ikki og'iz so'zlashib olish imkonini berganlar. Biroq bu xato tez orada tuzatilgan: Bunni ushlab olib, yon-verini tintiganlar. Lekin tintuv unga qarshi hech qanday dalillar bermagan. To'g'ri, ko'ylagining o'ng yengida qon izlari topilgan, u politsiyachilarga jimjilog'ini ko'rsatgan, uning tirnoqqa yaqin joyi kesilgan ekan, deraza rafidagi qon ham shu yaradan tomgan bo'lsa kerak, chunki barmog'imdan qon oqayotganida deraza oldiga borgan edim, degan. U, mister Sent-Klerni hech qachon ko'rgan emasman, deb tongan, o'sha jentlmenning kiyimi bu xonada paydo bo'lib qolganligi politsiya uchun qanday sir bo'lsa, men uchun ham shunday sir, deb turib olgan. Unga missis Sent-Kler erini uning xonasi derazasidan ko'rganini aytganlarida, u, xotinga esi chiqib ketganidan yoki xayolida shunday ko'ringan bo'lsa kerak, degan. Bunni politsiya mahkamasiga olib borishgan. U baqirib-chaqirib qarshilik bildirgan. Inspektor kanal tagidan qanday bo'lmasin yangi dalillar topish maqsadida suvning qaytishini kutib qolgan. Darhaqiqat, kanal tagidagi yopishqoq balchiqdan yuraklari po'killab narsani emas, mutlaqo boshqa narsani topishgan. Suv qaytgach, ular, Nevill Sent-Klerni emas, Nevill Sent-Klerning pidjagini topishgan. Siz nima deb o'ylaysiz, pidjagining cho'ntagidan nimalar topishgan?

– Tasavvur qilolmayman.

– Men, siz aytib berasiz, deyo olmayman ham. Hamma cho'ntaklari penni, yarim penni pullar bilan to'la emish – to'rt yuz yigirmata bir pennilik, ikki yuz yetmishta yarim pennilik chaqa chiqibdi. Suv qaytayotganida pidjakni oqizib ketmaganiga taajjublanmasa ham bo'ladi. Jasad bo'lsa – boshqa gap edi. Uy bilan kemasozlik korxonalari o'rtasida, suv juda tez oqadi. Suv jasadni daryoga oqizib ketganiga ishonsa bo'ladi, ayni bir vaqtda esa og'ir pidjak suv tagida qolib ketgan.

– Ammo, yanglishmasam, qolgan hamma kiyimlarini xonadan topishibdi-ku. Nahotki marhumning ustida pidjagigina bo'lgan bo'lsa?



– Yo‘q. Ser, buning sabablarini topish mumkin. Faraz qilaylik, Bun Nevill Sent-Klerni derazadan uloqtirgan, buni hech kim ko‘rmagan. Shundan keyin u nima qilishi mumkin edi? Tabiiyki, birinchi navbatda u o‘zini fosh qilib qo‘yishi mumkin bo‘lgan kiyimdan qutulishga urinadi. U pidjakni olib, derazadan uloqtirib yubormoqchi bo‘ladi-yu, ammo pidjak cho‘kmay suv yuzida qalqib suzib yurishi mumkinligini eslab qoladi. U juda shoshib qoladi, chunki zinapoyadagi to‘polonni, Sent-Kler xotining, erimni oldiga kiranman, deb talab qilayotganini eshitadi, qolaversa, sherigi laskar uni poltsiya kelib qolganidan ogohlantirgan bo‘lsa ham ajab emas. Bir daqiqa fursatni ham qo‘ldan berishi mumkin emas. U tilanchilikdan topganlari yashirib qo‘yilgan xilvat burchakka tashlanadi, pidjakning cho‘ntaklariga qo‘liga tushib qolgan chaqalarni joylaydi. Shundan so‘ng u pidjakni uloqtirib yuboradi, boshqa buyumlarni ham uloqtirib yubormoqchi bo‘ladi-yu, ammo znapoyadan odim tovushlarini eshitgach, politsiya kirib kelmasidan derazani yopishga arang ulguradi.

– Bunga aql bovar qilmaydi.

– Boshqa farazimiz bo‘lmagani uchun buni xomaki gipoteza sifatida qabul qilamiz... Hali aytib o‘tganimdek, Bunni mahkamaga olib keladilar. Uning o‘tmishi asosan benuqson edi. Rost, ko‘p yillar mobaynida kasbi tilanchi odam sifatidagina ma‘lum bo‘lsa-da, ammo tinch-osoyishta yashar, biron nojo‘ya ish qilgani ma‘lum emas edi.

Ayni paytda bu ish mana shu ahvolda. Ko‘rib turibsizki, Nevill Sent-Klerning bu takyaxonada nima qilgani, u yerda unga nima bo‘lgani, hozir qayerdaligi, g‘oyib bo‘lishiga Xyu Bunning qanday aloqasi borligi haqidagi masalalar hamon yechilmay turibdi. E’tirof etishim kerakki, o‘z faoliyatim davomida, birinchi qaraganda bu qadar oddiy ko‘rinib, aslida esa shunchalik mushkul bo‘lgan hodisani eslayolmayman.

Sherlok Xolms menga bu ajoyib voqealarni batafsil so‘zlab berarkan, biz kattakon shahar hasabasidan o‘tib ketdik, oxirgi uylar ortda qoldi, ikki tomonidan qishloq chetan devorlari



cho'zilib ketgan yo'ldan borardik. Qishloqqa kirib borgan paytimizda uning hikoyasi ham tamom bo'ldi. Unda-bunda derazalardan chiroqlar miltillab ko'rinardi.

– Liga kirib boryapmiz, – dedi oshnam. – Bu qisqagina safarimiz davomida biz Angliyaning uchta grafligida bo'ldik: Middleseksdan chiqib, Serrining bir chetini bosib o'tib, Kentga kirib keldik. Daraxtlar orasidagi anavi shu'lalarni ko'ryapsizmi? Bu «Kedr». U yerda chiroq oldida bir xotin o'tiribdi, uning ding qulog'i otimiz tuyog'ining dupurini allaqachon eshitgan bo'lsa ham ajab emas.

– Bu ishni olib borish uchun siz nima sababdan Beyker-stritda emas, bu yerda yashayapsiz? – deb so'radim men.

– Shuning uchunki, ko'p narsalarni shu yerda tekshirib aniqlashga to'g'ri keladi... Missis Sent-Kler iltifot bilan mening ixtiyoringa ikki xona ajratib berdi, amin bo'lishingiz mumkinki, u mening qidirishlarimda yordam beradigan do'stinga bajonidil mehmondo'stlik izhor qiladi. O, u bilan uchrashish menga naqadar og'ir, Uotson, hozircha unga eri haqida biron yangi xabar aytishdan o'jizman! Keldik, dirr!..

Biz atrofi bog' bilan o'ralgan kattakon villa oldiga kelib to'xtadik. Otni qarshimizdan yugurib chiqqan otboqarga topshirib, Xolms ikkovimiz shag'al to'kilgan torgina yo'lkadan uyga qarab ketdik. Yaqinlashishimiz bilan eshik ochilib, ostonada pushti shifon bilan jimjimador qilib bezatilgan oq tusli shohi ko'ylak kiygan malla sochli kichkinagina juvon paydo bo'ldi, u bir qo'li bilan eshikni ushlab turardi, ikkinchi qo'lini esa sabrsizlik bilan ko'tardi; oldinga engashib, lablari ochilib bizga ko'z uzmay tikilar, butun vajohat bilan, nima yangilik topib, keldinglar, deyayotgandek edi.

– Xo'sh? – deb baland ovoz bilan so'radi u. Ikki kishi ekanimizni ko'rgach, quvonchdan qichqirib yubordi. Ammo o'rtog'im bosh chayqab kiftini qisgach, qichqirish faryodga aylandi.

– Biron yaxshi gap topib keldingizmi?

– Yo'q.



– Xunukroq gap-chi?

– Yo‘q.

– Bunisiga ham shukur. Kirsanglar-chi. Kun bo‘yi mashaqqat chekkansiz, charchagan bo‘lsangiz kerak.

– Bu mening do‘stim, doktor Uotson. Ko‘pgina tekshirishlarimda ko‘p foydasi tekkan, omadim yor bo‘lib, uni bu yerga olib kelishga muvaffaq bo‘ldim, qidirish ishlarimizda uning yordamidan foydalanmoqchiman.

– Xush kelibsiz, – dedi juvon samimiyat bilan qo‘limni siqarkan. – Uyimiz sizga fayzsiz ko‘rinmasa deb qo‘rqaman. Oilamiz boshiga qanday nogahoniy kulfat tushganini bilasiz-ku...

– Xonim, – dedim men, – men yo‘l azobiga ko‘nikib ketgan iste‘fodagi soldatman, xullasi kalom, bordi-yu soldat bo‘lmagan taqdirimda ham, mendan uzr so‘rab o‘tirishingizning hech hojati yo‘q. Sizga yoki do‘stimga biror foydam tegsa, o‘zimni baxtli deb hisoblardim.

– Mister Sherlok Xolms, – dedi u. Yaxna ovqat tayyorlab qo‘yilgan yop-yorug‘ yemaxonaga olib kirarkan, – men sizga ochiqchasiga bir necha savol bermoqchiman, iltimos qilamanki, siz ham ularga to‘g‘ri, ochiqcha javob bersangiz.

– Marhamat, xonim.

– Mening hislarimdan andisha qilib o‘tirmang. Dod ham solmayman, hushimdan ham ketib qolmayman. Faqat sizning haqiqiy, chinakam fikringizni bilmoqchiman.

– Nima haqida?

– Nevillning tirik ekanligiga ko‘nglingiz ishonadimi?

Sherlok Xolms, aftidan, bu savoldan xijil bo‘ldi.

– Ochig‘ini aytavering, – takrorladi juvon, gilamda turganicha Xolmsning yuziga tikilarkan.

– Ochig‘ini aytsam, xonim, ishonmayman.

– Siz uni o‘lgan deb o‘ylaysizmi?

– Ha. Shunday deb o‘ylayman.

– O‘ldirilganmi?

– Men bunday demoqchimasman.

– U qaysi kuni o‘lgan?



– Dushanba kuni.

– U taqdirda, mister Xolms, menga tushuntirib bersangiz, erimdan bugun mana bu xatni qanday qilib olishim mumkin edi?

Sherlok Xolms xuddi elektr toki urgandek kreslodan sapchib turdi.

– Nima-nima? – deb qichqirib yubordi u.

– Ha, shu bugun oldim.

Juvon qo'lida bir varaq qog'oz ushlagancha jilmayib turardi.

– O'qib ko'rsam bo'ladimi?

– Marhamat.

U xatni juvonning qo'lidan yulqib olib, stolga yozdi-da, tekislab, diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi. Men kreslodan turib borib, uning yelkasi osha qarab turdim. Mahkamalarga xos oddiygina konvert, konvertga Grevzend pochtasining shtempeli; shtempelda – bugungi yoki, to'g'rirog'i, kechagi kun ko'rsatilgan, chunki vaqt yarim kechadan og'gan edi.

– Qo'pol dastxat, – deya ming'illab qo'ydi Xolms. – Amin-manki, bu dastxat eringizniki emas, xonim.

– Ha, konvertdagi begona dastxat, ammo ichidagisi erimning dastxati.

– Konvert ustidagilarni yozgan odam sizning manzilingizni surishtirishga majbur bo'lgan.

– Buni qayoqdan bilasiz?

– Ko'rib turibsizki, konvertdagi nom rangining to'qligi bilan ajralib turibdi, chunki uning siyohi o'zi qurigan. Manzilning rangi esa ochroq, chunki unga bosma qog'oz bosilgan. Bordi-yu, konvert ustidagi yozuv birdan yozilib, uning hammasiga bosma qog'oz bosilsa, u taqdirda hamma so'zlar ham och tusda bo'lardi. Bu odam konvertga avval sizning nomingizni yozgan, bir qancha vaqt o'tgandan keyin esa tagiga manzilingizni yozib qo'ygan, bundan shu xulosaga kelish mumkinki, manzil avval unga ma'lum bo'lgan emas. Albatta, bu arzimaydigan narsa, ammo mening kasbimda arzimaydigan narsalardan ko'ra



muhimroq narsa bo'lmaydi. Xatni bir ko'rib beray-chi... Ha! Ichiga bir narsa solingan ekan.

- Ha, uzuk bor ekan. Uning muhrli uzugi.
- Bu eringizning dastxati ekanligiga aminmisiz?
- Uning dastxatlaridan biri.
- Dastxatlaridan biri?
- Shoshilib yozadigan vaqtidagi dastxati. Odatda, u butunlay boshqacha yozadi, ammo uning bu dastxati ham menga yaxshi tanish.

- «Azizim, tashvishlanma. Hammasi yaxshilik bilan tugaydi. Bir xato yuz berdi, buni tuzatish uchun biroz vaqt kerak bo'ladi. Sabr bilan kut. Nevill»... Kitobdan yirtib olingan bir varaq qog'ozga qalam bilan yozilgan, qog'ozda hech qanday shartli belgilar ham yo'q. Hm!.. Bugun Grevzenddan boshmal-dog'iga bir narsa tekkan odam jo'natgan. Ha!.. Agar yanglish-masam, konvertni yelimlagan odam tamaki shimadi... Siz bu eringizning dastxati ekanligiga aminmisiz, xonim?

- Aminman. Bu xatni Nevill yozgan.
- Xat shu bugun Grevzenddan jo'natilgan. Nima ham derdik, missis Sent-Kler, bulutlar tarqalmoqda, zotan, men xavf-xatar bartaraf bo'ldi deb aytolmayman.

- Har qalay, u tirik ekan, mister Xolms!
- Bu bizni chalg'itib noto'g'ri izga solib yuborish uchun ishlatilgan makkorona qalloblik bo'lmasa bo'lgani. Uzukka ishonish amri mahol. Uzukni undan tortib olgan bo'lishlari mumkin.

- Ammo bu uning o'z, o'z dastxati-ku!
- Durust. Bordi-yu, xat dushanba kuni yozilib, bugungina jo'natilgan bo'lsa-chi?

- Shunday bo'lishi ham ehtimol.
- Bu muddat ichida ko'p narsalar sodir bo'lgan bo'lishi mumkin.

- O, meni quvonchimdan mahrum qilmang, mister Xolms! Bilaman, unga hech narsa bo'lgan emas. Biz u bilan shu qadar yaqinmizki, agar uning boshiga chindan ham kulfat tushsa, men

albatta sezgan bo'lardim. G'oyib bo'lishidan bir kun oldin u bexosdan barmog'ini kesib oldi. Shu payt men yemakxonada, u yotoqxonada edi, unga bir narsa bo'lganini darrov sezib oldiga yugurib chiqdim. Menga shunday arzimagan bir narsa ham ta'sir qilsa-yu, nahotki meni, uning o'lganini bilmay qolgan, deb o'ylasangiz!

— Men ko'pni ko'rgan tajribali odamman, ba'zan ayollarning bevosita ziyrak tuyg'ulari har qanday mantiqiy xulosalardan qimmatliroq bo'lishini bilaman. Bu xat ham, albatta, sizning haq ekanligingizni tasdiqlovchi muhim shohid bo'lib turibdi. Biroq agar mister Sent-Kler hayot ekan, agar u sizga xat yozishga qodir ekan, nima sababdan hozir yoningizda emas.

— Bilmadim. Bunga aqlim ham bovar qilmayapti.

— Dushanba kuni jo'nab ketayotib, sizni biron narsa deb ogohlantirganmidi?

— Yo'q.

— Siz uni Suondem-lenda ko'rganingizda juda taajjublandingizmi?

— Juda. Deraza ochiqmidi?

— Ha.

— Sizni derazadan turib chaqirishi mumkinmidi?

— Ha.

— Holbuki, payqashimcha, u allanarsa deb qichqirib yuboribdi-ku, shundaymi?

— Ha.

— Siz, u meni yordamga chaqiryapti, deb o'yladingizmi?

— Ha, u menga qo'llarini siltadi.

— Balki u kutilmagan narsani ko'rganidan qichqirib yuborgandir. Sizni ko'rib qolganidan taajjublanib chapak chalib yuborgandir.

— Ehtimol.

— Nazaringizda uni derazadan tortqilab olib kelishganday bo'ldimi?

— U birdaniga g'oyib bo'lib qoldi...



– U o‘zini orqaga tashlagan bo‘lishi mumkin. Siz xonada undan boshqa hech kimni ko‘rmadingizmi?

– Hech kimni. Ammo o‘sha badbashara tilanchi Nevillning o‘sha yerda bo‘lganiga iqrор bo‘ldi-ku. Laskar bo‘lsa pastda, zinapoyaning oldida turardi.

– Juda to‘g‘ri. Ko‘rgan bo‘lsangiz, eringiz odatdagiday kiyinganmidi?

– Yoqasi ham, galstugi ham yo‘q edi. Bo‘ynida hech narsa yo‘qligini aniq ko‘rdim.

– U siz bilan Suondem-len haqida hech gaplashganmidi?

– Hech qachon...

– Siz uning afyun chekishini ko‘rsatadigan biron belgini ko‘rganmidingiz sira?

– Hech qachon.

– Minatdorman, missis Sent-Kler. Bu men to‘la-to‘kis bilmoqchi bo‘lgan asosiy nuqtalar. Endi biz ovqatlanib, kirib dam olamiz. Negaki ertaga ko‘p yelib-yugursak ajab emas.

Bizning ixtiyorimizga ikkita karavot qo‘yilgan, keng, qulay xona berilgan edi, men darrov yota qoldim, chunki tungi ovoragarchiliklar charchatib qo‘ygan edi. Ammo Sherlok Xolms bironta yechilmagan masala bo‘lsa uni o‘ylab, faktlarni taqqoslab, ularni turli nuqtarlardan ko‘zdan kechirib to hal qilmaguncha yoki o‘zi yanglish yo‘lda turganiga qanoat hosil qilmaguncha bir necha kecha-kunduzlab, hatto haftalab uxlayolmas edi. Men tez orada uning tun bo‘yi uxlamay o‘tirib chiqmoqchi ekanini payqadim. U pidjagi bilan nimchasini yechdi-da, keng-kovul ko‘k xalatini kiyib, karavot, kushetka va kreslolardagi yostiqlarni bir yerga uya boshladi. Bu yostiqlardan u o‘ziga sharqcha divanga o‘xshagan bir narsa yasadi-da, uning ustiga chiqib, chordana qurib o‘tirdi, oldiga bir quti tamaki bilan gugurt qo‘yib oldi. Chirog‘ning xira yorug‘ida og‘zidagi eski trubkasidan pag‘a-pag‘a moviy tutun taratib shiftga faromushgina ko‘z tikkancha sassiz, harakatsiz o‘tirganini ko‘rdim, shu‘la uning burgut taqlid qiyofasini yoritib turardi.



Men uyquga ketayotganimda qanday o'tirgan bo'lsa, xona-
ga ertalabki quyosh nuri tushgan paytda uning tuyqusdan qich-
qirib yuborishidan uyg'onib ko'zimni ocharkanman, u hamon
o'shanday o'tirardi. Trubkasi hamon og'zida, tutun hamon
burqsib ko'tarilib turar, xona tamaki dudiga to'lgan, kechqurun
ko'rganim bir quti tamakidan esa hech narsa qolmagan.

– Uyg'ondingizmi, Uotson? – deb so'radi u.

– Ha.

– Aylanib kelishni xohlaysizmi?

– Jonim bilan.

– Bo'lmasa kiyining. Hali uydagilarning hammasi uyquda.
Ammo otboqarning qayerda yotishini bilaman, hozir bizga ara-
vani qo'shib beradi.

Shunday derkan kulib qo'ydi; ko'zlari charaqlar, u men ke-
cha ko'rgan tund kishiga sira ham o'xshamas edi.

Kiyinayotib soatga qaradim. Hali uydagilarning hammasi
uxlab yotganiga taajjublanmasa ham bo'ladi: to'rtdan yigirma
besh daqiqa o'tgan edi. Kiyinib bo'lishim bilan Xolms kirib,
otboqar otni qo'shganini aytdi.

– Men o'zimning bir nazariyamni tekshirib ko'rmoqchiman,
– dedi u botinkasini kiyayotib. – Siz, Uotson, qarshingizda
Yevropada yashab turgan eng buyuk tentaklardan birini ko'rib
turibsiz! Men ko'rsichqondek gumroh ekanman. Meni shunaqa
bir tepish kerak ekanki, bu yerdan Chering-krossga borib
tushishim kerak ekan! Ammo endi bu jumboqning kalitini
topdim, shekilli.

– Qani o'sha kalitingiz? – deb so'radim jilmayib.

– Vannaxonada, – deb javob berdi Xolms. – Yo'q. Haz-
illashayotganim yo'q, – deya davom ettirdi u gapini, mening
ishonqiramay qarab turganimni payqab. Allaqachon vannaxo-
naga kirib, uni olib mana bu chamadon-chaga yashirib qo'ydim.
Borib ko'raylikchi, do'stim, bu kalit qulfga to'g'ri kelarmikin.

Biz mumkin qadar ohista qadam bosishga harakat qilib,
zinapoyadan pastga tushdik. Tashqarida ertalabki quyosh
yorqin nur sochmoqda edi. Darvoza oldida bizni kolyaska



kutmoqda, otboqar esa qo'shilgan otning jilovidan tutib turar edi. Biz ekipajga chiqib, London yo'li bo'ylab g'izillagancha ketdik. Ahyon-ahyonda poytaxtga sabzavot olib borayotgan aravalardan o'tib ketardik, ammo atrofdagi bog'lar jimjit – hamma yoq sehrlangan shahardagidek uyquda.

– Ba'zi jihatlardan olib qaraganda bu mutlaqo boshqacha ish, – dedi Xolms, otni choptirarkan. – Iqror bo'lay, men ko'r-sichqondek gumroh ekanman, aqlning hech kirmaganidan kech kirgani ham durust ekan.

Biz shaharga Serri tomondan kirib bordik. Derazalarda hozirgina uyg'ongan odamlarning uyquli yuzlari ko'rina boshladi. Biz Vaterloo ko'prigi orqali daryodan o'tib, o'ngdagi Vellington-stritga burilib, Bau-stritga borib yetdik. Sherlok Xolmsni politsiya boshqarmasida yaxshi tanir edilar, biz yaqinlasharkanmiz, ikki konstabl uni qo'llarini chakkalariga olib borib qutlashdi. Ulardan biri otning jilovini ushladi, ikkinchisi esa bizni ichkariga boshlab kirdi.

– Navbatchti kim? – deb so'radi Xolms.

– Inspektor Bredstrit, ser.

Toshtaxta yotqizilgan yo'lakdan qarshimizga to'la-to'kis forma kiygan, to'ladan kelgan novcha politsiyachi chiqib keldi.

– Ha, Bredstrit! Ahvollaringiz qalay? Men siz bilan gaplashmoqchi edim, Bredstrit.

– Marhamat, mister Xolms. Mening xonamga kira qoling.

Xona idoraga o'xshardi: stolda yozuvlar olib boriladigan kattakon daftar, devorda telefon.

Inspektor stulga o'tirdi:

– Xizmat, mister Xolms?

– Sizdan mister Nevill Sent-Klarning g'oyib bo'lishi haqidagi ishga aloqasi bor tilanchi to'g'risida so'ramoqchi edim.

– Uni qamoqqa olib, so'roq qilish uchun bu yerga olib keldik.

– Bilaman. U shu yerdami?

– Kamerada.



– To‘polon qilayotgani yo‘qmi?

– Yo‘q, o‘zini osoyishta tutyapti. Ammo bu yaramas shu qadar kir-yag‘irki!

– Kir-yag‘ir?

– Ha. Qo‘lini yuvishga arang ko‘ndirdik, yuzi bo‘lsa misgarning yuzidek qop-qora. Tergov tugasin-chi, turma vannasiga bir karra tushishi bor! Agar siz uni bir ko‘rsangiz, mening fikrimga qo‘shilardingiz.

– Men uni ko‘rishni juda istardim.

– Rostdanmi? Bu qiyin ish emas. Orqamdan yuring. Chama-donchangizni shu yerda qoldirishingiz mumkin.

– Yo‘q, uni o‘zim bilan olaketaman.

– Durust. Bu yoqqa marhamat qiling.

U yopiq turgan eshikni ochib, aylanma zinapoyadan bizni pastdagi devorlari oqlangan yo‘lakka olib tushdi. O‘ng va chap tomonlarda qator-qator ketgan eshiklar.

– Uning kamerasi – o‘ngdan uchinchisi, – dedi inspektor. – Mana shu yerda.

U eshikning yuqori qismidagi taxtachani ohista surib, tynukdan qaradi.

– Uxlab yotibdi, – dedi u. – Uni yaxshilab ko‘rib olishingiz mumkin.

Biz panjaradan mo‘raladik. Mahbus asta-sekin va og‘ir nafas olgancha qattiq uxlardi. Uning yuzi bizga ko‘rinib turardi. Bu o‘rta bo‘y bir erkak bo‘lib, hamma gadoylarga o‘xshab rasvo kiyingan: juldur pidjagining yirtiqalaridan rangdor ko‘ylagining uvadallari chiqib turardi. U darhaqiqat, g‘oyat kir-yag‘ir, hattoki yuzini qoplab turgan qalin kir qatlami ham uning badbashara qiyofasini yashirolmasdi. Ko‘zi yaqinidan engagigacha serbar chandiq tushib kelgan, ustki labidagi qiyshiq tirtiqtan uchta tishi irjayib ko‘rinib turibdi. Bir tutam sap-sariq sochi peshonasi bilan ko‘zlariga tushib turardi.

– Juda chiroyli-ya, nima dedingiz? – dedi inspektor.

– U yuvinishi kerak, – deb qo‘ydi Xolms.



– Men buni ilgariroq payqagan edim, shu sababdan kerakli asboblarni ola kelganman.

U chamadonchani ochdi-da, bizni hayratda qoldirdi, undan kattagina bir ishqalagich oldi.

– He-he, hazilkash ekansiz-ku! – deb kulib yubordi inspektor.

– Mumkin bo‘lsa, bizga eshikni ohista ochib bersangiz, biz uni birpasdaa ajabtovurgina odam bashara qilib qo‘yamiz.

– Xo‘p bo‘ladi, – dedi inspektor. – Bo‘lmasa u chindan ham bizning turmamizga isnod keltiryapti.

Inspektor eshikni ochdi. Uchalovimiz kameraga sharpa chiqarmay kirdik. Mahbus qimirlab qo‘ydi-yu, lekin darhol yana ham qattiqroq uxlab qoldi. Xolms qumg‘onning oldiga borib, ishqalagichini ho‘lladi-da, mahbusning yuziga ikki marta kuch bilan ishqaladi.

– Sizlarni Kept grafligidagi Li qishlog‘ida yashaydigan mister Nevill Sent-Klerga tanishtirishga ruxsat etgaysizlar! – deb xitob qildi Xolms.

Men bunaqa hodisani umrim bino bo‘lib ko‘rmagan edim. Mahbusning yuzi daraxtning po‘stlog‘i ko‘chib tushgandek shiliniib tushdi. Oftobda kuyish natijasida paydo bo‘lgan qo‘ng‘irlik yo‘qoldi. Yuzini qiyalab kesib o‘tgan mudhish chandiq ham, labining tirtig‘i ham g‘oyib bo‘ldi. Tishlarining xunuk irjayib turishi ham barham edi. Xolmsning bir qo‘l harakati bilangina malla paxmoq sochlari ham yo‘qoldi, qarshimizda sochlari qop-qora, terisi nozik, rangsiz, g‘amgin, latif bir kishi paydo bo‘ldi-qoldi, hali uyqusi to‘la yozilmagan bu odam ko‘zlarini ishqab bizga taajjub bilan tikilgancha to‘shakda o‘tirardi. Qo‘qqisdan u nimalar sodir bo‘layotganini anglab qoldi-yu, dodlaganicha boshini yostiq ostiga tiqdi.

– Yo rabbiy, – deb qichqirib yubordi inspektor, – yo‘qolgan odamning o‘zginasi-ku! Men uni bilaman, suratini ko‘rganman!

Mahbus taqdirga tan berishga majbur bo‘lgan odamdek umidsiz bir qiyofada bizga o‘girildi.

– Bo‘lar ish bo‘ldi! – dedi u. – Sizlar meni bu yerda nega ushlab turibsizlar?

– Mister Nevill Sent-Klerni o‘ldirganingiz uchun... Tuf-e! Endi sizni odam o‘ldirishda ayblash mumkin emas. Sizni o‘zingiz o‘zingizga suiqasd qilmoqchi bo‘lganingizda ayblashlari mumkin, – dedi inspektor kulimsirab. – Yigirma yetti yildan beri politsiyada xizmat qilaman, ammo bunaqa hodisani sira ham ko‘rgan emasman.

– Modomiki, men mister Nevill Sent-Kler ekanman, demak, jinoyat sodir bo‘lmagan, binobarin, men qonunga xilof ravishda qamoqqa olinganman.

– Jinoyat qilinmagan-u, ammo katta xatoga yo‘l qo‘yilgan, – dedi Xolms. – Siz xotiningizga siringizni aytmay chakki qilgansiz.

– Gap xotinimda emas, bolalarimda, – dedi qizishib mahbus. – Men ularning otalaridan or qilishlarini istamagan edim. Yo rabbiy, qanday sharmandalik! Endi nima qilaman?

Sherlok Xolms uning yoniga, karavotga o‘tirib, muloyimlik bilan kiftiga qoqib qo‘ydi.

– Agar siz bu ishingizning sudda ko‘rilishiga yo‘l qo‘ysangiz, el og‘ziga tushib ketishdan qocholmaysiz, albatta, – dedi u. – Bordi-yu, agar siz politsiyani hech qanday gunohingiz yo‘qligiga ishontirolsangiz, unda gazetalar hamma narsadan bexabar qoladi. Inspektor Bredstrit sizning bergan shohidliklaringizni yozib olib, uni tegishli ma’murlarga topshirishi mumkin, u taqdirda ish sudgacha borib yetmaydi.

– O, sizdan g‘oyatda minnatdorman! – deya qichqirib yu-bordi mahbus. – Badbaxt sirim ochilib bolalarimni isnodga qo‘ymaslik uchun men qamoqqa ham, xatto o‘lim jazosiga ham jon-jon deb rozi bo‘lardim! Mening sarguzashtimni birinchi eshitayogan sizlar...

Otam Chesterfildda muallim edi, u yerda to‘la-to‘kis bilim oldim. Yoshligimda ko‘p sayohat qildim, sahnada o‘ynadim, nihoyat, Londondagi kechki gazetalardan birining muxbiri bo‘lib



qoldim. Bir kuni redaktorimga poytaxtdagi tilanchilik haqida bir sidra ocherklar zarur bo'lib qoldi. Ularni men yozadigan bo'ldim. Mening hamma sarguzashtlarim xuddi shundan boshlandi. Ocherklarim uchun zarur bo'ladigan faktlarni topish maqsadida tilanchilarga o'xshab kiyinib gadoychilik qila boshladim. Artistlik vaqtimdayoq grim qila bilish mahoratim bilan mashhur edim. Endi shu mahoratim ish berib qoldi. Men aft-basharamni bo'yadim, odamlarning ko'proq rahmlarini keltirish uchun yuzimga chandiq chizdim, teri tusidagi malham yopishtirib labimni tirtiq qilib biroz do'rttaytirib qo'ydim. Keyin ustimga juldir kiyim, boshimga yasama soch kiyib Sitining eng gavjum joyiga o'ltirib oldim-da, gugurt sotish bahonasida xayr so'ray boshladim. O'rnimdan qo'zg'almay yetti soat o'tirdim, kechqurun uyga qaytib kelgach, yigirma olti shillingu to'rt pens topganimni ko'rib g'oyatda hayratlandim.

Men ocherklarimni yozdim, bu voqea esimdan ham chiqib ketdi. Ammo biroz vaqt o'tgandan keyin menga veksels ko'rsatishdi. Unga binoan men oshnam uchun yigirma besh funt pul to'lashga kafil bo'lgan edim. Bu pulni qayoqdan olishga aqlim ham yetmay turgan edi, birdan miyamga ajoyib bir fikr kelib qoldi. Olg'udordan ikki haftacha kutib turishini iltimos qilib, ishxonamdan ta'til oldimda, uni Sitida xayr so'rab o'tkazdim. O'n kun mobaynida zarur mablag'ni to'plab, qarzni to'ladim. Endi o'zlaringiz o'ylab ko'ringlar, aft-basharangga bo'yoq chaplab, oldingga kepkangni tashlab boshqa hech ish qilmay har kuni ikki funtdan pul topishing mumkinligini bilganingdan keyin shu ikki funt badaliga bir hafta ishlashing osonmi?

G'ururim bilan boylik orttirishga bo'lgan hirsim orasidagi kurash uzoq davom etdi, ammo pulga o'chligim nihoyat yengib chiqdi. Gazetadagi ishimni tashlab, kun sayin vaqtimni allaqachon ko'z ostiga olib qo'ygan muyushda o'tkazadigan bo'ldim, o'zimning badbashara qiyofam bilan odamlarning rahmini keltirib, cho'ntaklarimni esa chaqa bilan to'ldirib, kun



sayin vaqtimni o'zimga allaqachon sinashta bo'lib qolgan joyda o'tkaza boshladim.

Sirimdan birgina kishi – Suondem-lendagi men borib joylashgan razil buzuqxonaning egasigina voqif edi. Har kuni ertalab men u yerdan ayanchli tilanchi qiyofasida chiqar, har kuni kechqurun u yerda bashang kiyingan janobga aylanardim. Laskarga bergan xonalari uchun saxiylik bilan haq to'lardim, chunki uning sirimni hech qanday sharoitda ham hech kimga aytmasligiga amin edim. Tez orada men yirik mablag' jamg'ara boshladim. Londonda yiliga yetti yuz funtdan pul topadigan bironta ham tilanchi bo'lmasa kerak, men bo'lsam undan ham ko'p topardim! Men o'tkinchilarning tasodifiy tanbehlariga hazilomuz javob qaytarish mahoratini egallab, tez orada butun Sitida dong chiqardim. Tanga aralash penslar yomg'iri surunkasiga yog'ilib turardi. Ikki funtdan kam pul topgan kunlarimni muvaffaqiyatsiz kunlar deb hisoblardim. Boyiganim sari turmushim ham ma'mur bo'lib borardi. Shahar tashqarisidan ijaraga uy oldim, uylandim, ammo mening aslida nima ish bilan shug'ullanayotganimni hech kim bilmasdi. Sevikli xotinim meni, sitida uncha-muncha ishlari bor, deb bilardi. Ammo bu ishlarning qanday ishligidan uning zarracha ham xabari yo'q edi.

O'tgan dushanba kuni ishimni tamomlab xonamda kiyinayotib derazadan mo'ralarkanman, birdan qo'rqib ketdim. Xotinim ko'chaning o'rtasida menga tik qarab turibdi. Hayratdan qichqirib yubordim, yuzimni yashirish uchun qo'llarimni ko'tardim, sherigim laskarning oldiga yugurib borib, oldimga hech kimni kirgizmasligini yolvorib iltimos qildim. Pastdan xotinimning ovozi kelayotganini eshitdim, ammo uning bu yoqqa chiqib kelolmasligini bilardim. Darhol yechinib tilanchilikda kiyadigan juldur kiyimlarimni ustimga ilib, yasama sochni kiydim-u, basharamga bo'yoq chapladim. Bu qiyofada meni hatto xotinim ham taniyolmasdi. Shundan keyin miyamga, xonamni tintib qolishsa, unda kiyimlarim meni fosh

MOVIY KARBUNKUL²¹

Mavludning uchinchi kuni bayram bilan tabriklagani oshnam Sherlok Xolmsning oldiga kirdim. U qizil xalat kiyib kushetkda yotar, o'ng tomonida tamaki joylangan bir necha trubka, chap tomonida esa bir dasta g'ijimlangan ertalabki gazetalar turar edi, ularni hozirgina ko'zdan kechirgan bo'lsa kerak. Kushetkaning yonida bir stul, uning suyanchig'iga anchagina kiyilgan, bir necha joyi teshilgan faqirona namat shlyapa osilgan. Xolms, aftidan, bu shlyapani juda diqqat bilan tekshirgan bo'lsa kerak, chunki stulda pintset bilan lupa yotardi.

– Band ekansiz, – dedim men. – Xalal bermasam deb qo'rqaman.

– Sira ham xalal bermaysiz, – deb javob berdi u. – Men tadqiqotlarimning natijalari haqida suhbatlashsam bo'ladigan o'rtog'im borligidan xursandman. Ko'rib turibsizki, bu jo'ngina bir narsa, – u bosh barmog'i bilan eski shlyapani nuqib ko'rsatdi, – lekin bu hatto ibrat bo'lishga arzigulik ba'zi bir maroqli hodisalar bilan bog'liq.

Men kresloga o'tirib, gurillab o't yonayotgan kaminga qo'limni tutib isina boshladim. Kun qattiq sovuq, derazalarni qalin jimjimador muzli qirov qoplagan.

– Garchand, bu shlyapa juda ko'rimsiz tuyulayotgan bo'lsa ham, u bironta qonli voqea bilan bog'liqqa o'xshaydi, – deb qo'ydim men. – Aftidan, u qandaydir mudhish sirlarni ochishda kalit bo'lib xizmat qiladi, siz uning yordamida jinoyatchini fosh qilib jazolashga muvaffaq bo'lasiz.

²¹ Karbunkul – shaffof qimmatbaho tosh, odatda qizil bo'ladi.



– Yo‘q, yo‘q, – dedi u, – bu jinoyat emas, to‘rt million odam bir necha kvadrat milyadan iborat masofada ur-yiqit bo‘lib yuradigan joyda hamisha yuz berib turishi mumkin bo‘lgan juda mayda, kulgili epizod. Odamlar istiqomat qiladigan bunday bahaybat ari uyasida har qanday murakkab faktlar bo‘lishi mumkin, ular g‘oyatda sirli ko‘rinsalar-da, zamirida hech qanday jinoyat bo‘lmasligi mumkin. Biz bunday hodisalar bilan bir necha bor to‘qnash kelganmiz.

– Bo‘lmasam-chi, – deb xitob qildim men. – Men qalamga olgan so‘nggi olti epizodning uchtasi zamirida hech qanday g‘ayri qonuniy narsa yo‘q.

– Mutlaqo to‘g‘ri. Bu arzimlas hodisaning ham zararsiz bo‘lib chiqishiga shubhalanmayman. Siz xat tashuvchi Petersonni taniysiz-a?

– Ha.

– Bu o‘lja o‘shaniki.

– Ya‘ni uning shlyapasimi?

– Yo‘q, yo‘q, buni topib olgan. Egasi noma‘lum. Siz bunga eski bir buyum sifatida emas, jiddiy masala sifatida qarang. Dastlab sizga shlyapaning bu yerga qanday qilib kelib qolganini gapirib beraman. U mavludning birinchi kuni xuddi hozirgi paytda Petersonning oshxonasida qovurilayotgan ajoyib, semiz g‘oz bilan birga paydo bo‘ldi. Bu shunday yuz berdi. Mavlud kuni ertalab soat to‘rtida Peterson, o‘zingiz bilgan olijanob va sof vijdonli bu odam Totenxem-Koortrod ko‘chasida ziyoratdan uyiga qaytib kelayotgan ekan. Gaz fonar yorug‘ida oldinda allaqanday bir novcha kimsaning oppoq g‘ozni orqalaganicha sal-pal gandiraklab ketayotganini ko‘ribdi. Guj-stritning muyulishida unga bezorilar yopishibdi. Ulardan biri uning shlyapasini tushirib yuboribdi. Notanish odam o‘zini himoya qilaman deb hassasini o‘qtalغان ekan, bexosdan orqasidagi magazin vitrinasiga tegib ketibdi. Oyna chil-chil bo‘libdi. Peterson notanish odamni himoya qilgani yuguribdi, oynani sindirib qo‘yganidan sarosimaga tushgan sho‘rlik o‘ziga qarab yugurib kelayotgan odamni ko‘rishi bilan g‘ozni tashlabdi-yu,



ura qochib, Totenxem-Koortrod orqasidagi qing'ir-qiyshiq tor ko'chalarga kirib g'oyib bo'libdi. Peterson formada ekan, qochoqni shu narsa qo'rqitib yuborgan bo'lsa kerak. Peterson paydo bo'lishi bilan bezorilar ham qochib ketgan, xat tashuvchi jang maydonida yolg'iz o'zi qolgan, u mana shu g'ijim shlyapa bilan ajoyib mavlud g'ozidek o'ljani qo'lga kiritgan...

– ... va Peterson ularni, albatta, egasiga qaytarib bergan.

– Bizning oldimizda turgan jumboq shundan iborat-da, azizim. O'sha notanish odam kim-u, qayerda yashaydi? Rost, g'ozning chap oyog'iga bog'lab qo'yilgan bir parcha qog'ozga: «Missis Genri Beyker» deb yozib qo'yilgan, «G. B.» harflar bu shlyapaning astarida ham bor. Ammo shaharda bir necha ming Beyker, shu jumladan bir necha yuz Genri Beyker yashayotgani uchun yo'qolgan buyumni ulardan birontasiga qaytarib berish oson emas.

– Xo'sh, keyin Peterson nima qilibdi?

– U mening hatto eng arzimaydigan jumboqlarni ham yechishga ishqibozligimni bilgani uchun g'ozni ham, shlyapani ham to'ppa-to'g'ri menga olib kelibdi. G'ozni biz to bugun ertalabgacha saqladik, shundan keyin kun sovuqligiga qaramay, uni yeya qolish durust, degan qarorga keldik. Peterson uni olib ketdi, rosa yayragan bo'lsa kerak, menda esa mavlud oqshomida yeyman, degan ne'matidan ajralgan notanish kishining shlyapasi qoldi.

– U gazetada e'lon bermabdimi?

– Yo'q.

– Uning kim ekanligini qayoqdan bilasiz?

– Faqat mulohaza qilib ko'rib.

– Shu shlyapaga qarab mulohaza qilibmi?

– Albatta.

– Hazillashyapsiz! Bu eski, dabdala namatdan nimani bilib olish mumkin o'zi?

– Mana lupam. Uni olib bu shlyapaga mening uslubimni tatbiq qilishga harakat qilib ko'ring. Bu uslubimni siz tuzukkina bilasiz. Bu shlyapaning egasi to'g'risida siz nima deya olasiz?

Men yirtiq shlyapani olib, uni xafsalasizlik bilan qo'limda aylantirdim. Oddiygina g'ildirak qora shlyapa. Dag'ar, juda ko'p kiyilgan. Shohi astari bir vaqtlar qizil bo'lgan, hozir esa aynib ketibdi. Fabrika markasini topolmadim, ammo, Xolms aytganidek, ichdan yon tomonidagi «G. B.» harflari ko'rinib turardi. Qaytarmasida shlyapani tortib turadigan rezinka o'tkaziladigan teshikni ko'rdim, ammo rezinkasi yo'q edi. Ummun, shlyapa yirtiq, kir-yag'ir, dog' bosgan edi. Darvoqe, bu dog'larni yashirish uchun ustidan siyoh ham surtilgan ekan.

– Men unda hech narsa ko'rmadim, – dedim shlyapani Sherlok Xolmsga qaytarib.

– Yo'q, Uotson, siz hamma narsani ko'rib turibsiz. Ammo ko'rib turgan narsalaringiz ustida bosh qotirgingiz kelmayapti. Siz mantiqiy xulosalar chiqarishda juda jur'atsizlik qilasis.

– Unda, mumkin bo'lsa, bu shlyapani ko'zdan kechirganda o'zingiz qanday xulosalar chiqarganingizni aytib bersangiz.

Xolms shlyapani qo'liga olib, uning yolg'iz o'zigagina xos bo'lgan sinchkov nazar bilan ko'zdan kechira boshladi.

– Albatta, undagi ko'pgina narsalar uncha ravshan emas, – deb uqtirdi u, – ammo ba'zi narsalarni aniq aytish mumkin, ba'zi narsalarning esa ehtimoldan xoli emasligini anchagina qat'iyat bilan taxminlash mumkin. Masalan, shunisi mutlaqo ayonki, uning egasi juda aqlli odam, uch yil muqaddam puli ko'p bo'lgan, hozir esa boshiga qora kunlar tushgan. U hamisha tadbirli bo'lgan, hamisha ertangi kuni g'amini yegan, hozir esa o'ziga qaramay qo'ygan. Chunki uning davlati ham kamaygan, biz u bironta halokatli nuqsonga – ehtimolki, ichkilikka duchor bo'lib qolgan deya olamis. Ehtimolki, shu sababdan xotinining ko'ngli qolgan bo'lsa ham ajab emas...

– Azizim. Xolms!

– Ammo u har qalay, o'z fazilatlarini bir qadar saqlab qolgan, – deb so'zini davom ettirdi Xolms, mening xitobimga e'tibor bermay. – U uyida o'tirib qolgan, ko'chaga kamdankam chiqadi, sport bilan mutlaqo shug'ullanmaydi. Bu o'rta yoshlardagi odam, sochlariga oq oralagan, sochmoy surtadi,



sochini yaqinda oldirgan. Qolaversa, qat'iy aminmanki, uning uyida gaz chiroq yo'q.

– Hazillashyapsiz shekilli, Xolms.

– Aslo. Nahotki bularning hammasini gapirib berganimdan keyin ham, ularni qanday qilib bilganimni tushunmasangiz!

– Meni merov desangiz ham mayli, ammo e'tirof etishim kerakki, sizning fikrlaringizni kuzatib borishdan ojizman. Masalan, uning juda aqlli ekanligini siz qayoqdan bildingiz?

Xolms javob berish o'rniga shlyapani boshiga kiydi. Shlyapa peshonasini yashirib qansharigacha kelib tushdi.

– Hajmining kattaligini ko'ryapsizmi? – dedi u. – Shunday kattakon kallaning ichida hech narsa yo'q, deb bo'lmaydi-ku.

– Xo'sh, uning kambag'al bo'lib qolganini qayoqdan bildingiz bo'lmasa?

– Bu shlyapaning olinganiga uch yil bo'lgan. Chetlari bukilgan tekis qaytarma o'sha vaqtlarda juda rasm bo'lgan edi. Shlyapaning sifati yaxshi. Mana bu ipak tasmani, ajoyib astarini ko'ring. Agar bu odam uch yil muqaddam shunday qimmatbaho shlyapani sotib olishga qodir bo'lib, shu vaqtgacha boshqasini sotib olmagan ekan, mutlaqo ravshanki, uning ishlari orqaga ketgan.

– Xo'p mayli, bu borada haqliga o'xshaysiz. Ammo uning tadbirkor odamligini, hozirgi paytda esa ruhiy tushkunlikka tushganini qayoqdan bildingiz?

– Tadbirkorligi – mana, – dedi u rezinka o'tkaziladigan teshikni ko'rsatib. – Rezinkani hech vaqt shlyapa bilan birga qo'shib sotishmaydi, uni alohida sotib olish kerak. Modomiki, bu odam rezinka sotib olib, uni shlyapasiga taqib berishlarini buyurgan ekan, demak, u shlyapasini shamol uchirib ketmasligining tadbirini ko'rgan. Ammo rezinka uzilib ketgan, u yangisini olib taqmagan, shunga qarab aytish mumkinki, ilgari u o'ziga, ust-boshiga oro berib yurgan, hozir esa hafsalasiz bo'lib qolgan, ya'ni o'ziga e'tibor qilmay qo'ygan. Biroq, ikkinchi tomondan, u shlyapadagi dog'larni yashirmoqchi, ularni siyoh bilan bo'yamoqchi bo'lgan, demak, u izzat-nafsini hali uncha yo'qotgan emas.



– Bularning hammasi rostga o‘xshaydi.

– Uning o‘rta yashar odam ekanligi, sochiga oq oralagani, sochini yaqinda oldirgani va sochmoy surkashi – bularning hammasi shlyapasining astarini diqqat bilan ko‘zdan kechirilsa ayon bo‘ladi-qoladi. Lupadan sartaroshning qaychisi qirqqan sochlar yopishib qolganligi ko‘rinib turibdi. Sochlardan moy hidi kelyapti. E’tibor bering, unga yopishgan gard ko‘chaga xos kulrang, qumoq emas, uyga xos qo‘ng‘ir, momiqnamo. Demak, shlyapa ko‘pincha uyda osilib turgan. Uning ich tomonidagi nam asoratlari shundan dalolat beradiki, egasi unar-unmasga terlab ketaveradi, chunki, harakat qilmay qo‘ygan.

– Xotining ko‘ngli qolganini qayoqdan bildingiz?

– Shlyapa bir necha haftadan beri tozalanmagan. Bordi-yu, azizim Uotson, sizning shlyapangiz aqalli bir haftadan beri tozalanmaganini, xotiningiz shu ahvolda ko‘chaga chiqishinigizga izn berganini ko‘rsam, sizdan ham xotiningizning ko‘ngli qolib baxtsizlikka uchrabsiz-da, deb xavotir olgan bo‘lardim.

– Balki u bo‘ydoqdir?

– Yo‘q, u uyiga g‘ozni xuddi xotining ko‘nglini olish uchun olib ketayotgan bo‘lgan. Parrandaning oyog‘iga bog‘langan qog‘ozni eslang-a.

– Hamma narsaga javobingiz tayyor. Ammo uning uyida gaz yo‘qligini qayoqdan bilishingiz mumkin?

– Shlyapaga tomgan bir-ikki yog‘ tomchisi tomgani – tasodif. Ammo men ularning beshdan kam emasligini ko‘rarkanman, bu odamning o‘qtin-o‘qtin shamdan foydalanib turishidan shubhalanmayman – aftidan u kechalari bir qo‘lida shlyapasini, bir qo‘lida yog‘i erib oqayotgan shamni ushlagancha, zinapoyadan chiqib tushsa kerak. Har qalay, gazdan yog‘ tommaydi... Endi mening fikrimga qo‘shilarsiz?

– Ha, bularning hammasi oddiygina gap, – dedim kulib. – Ammo siz gapirib bergan narsada jinoyat asari yo‘q. Hech kim zarar ko‘rmagan g‘ozini yo‘qotgan odamdan boshqa. Demak, siz behuda boshingizni qotirgansiz.

Sherlok Xolms javob berish uchun og‘iz juftlagan ham ediki, shu payt eshik lang ochilib, xonaga sarosimaga tushgan,



hayajonlangan xat tashuvchi Peterson otilib kirdi. Uning yonoqlari lovillab yonardi.

– G‘oz-chi, g‘oz, mister Xolms! – nafasi tiqilib qichqirdi u.

– Xo‘sh, unga nima bo‘ldi? Unga jon kirib, oshxonaning derazasidan uchib chiqib ketdimi?

Xolms Petersonning hayajonlangan yuziga yaxshilab razm solish uchun kushetkada yotgan joyida o‘girildi.

– Buni qarang, ser, xotinim uning bo‘takasidan topgan narsani qarang!

U qo‘lini cho‘zdi, biz uning kaftida no‘xatdan kichikroq chaqnab turgan moviy toshni ko‘rdik. Tosh shu qadar shaffof ediki, uning qoramag‘iz kaftida xuddi elektr uchqunidek chaqnab turardi.

Xolms hushtak chalib yuborib, kushetkaga o‘tirib qoldi.

– Xudo haqi, Peterson, – dedi u, – siz xazina topibsiz! Ishonamanki, buning nima ekanligini payqayotgandirsiz?

– Brilliant, ser! Qimmatbaho tosh! U oynani moy kesgandek kesadi!

– Bu qimmatbaho toshgina emas – bu xuddi o‘sha qimmatbaho tosh.

– Bu nahotki grafinya Morkarning moviy karbunkuli bo‘lsa? – deb qichqirib yubordim men.

– Mutlaqo to‘g‘ri. Men uning qanaqaligini bilaman, chunki, so‘nggi kunlarda har kuni «Tayms»da bu to‘g‘ridagi e‘lonlarni o‘qirdim. Bu dunyoda monandi yo‘q tosh, uning chinakam bahosini tusmollabgina aytish mumkin. Uni topgan odamga va‘da qilingan ming funt miqdoridagi mukofot asli bahosining yigirmadan bir ulushini ham tashkil qilmasa kerak.

– Ming funt! Yo rabbiy!

Xat tashuvchi o‘zini kresloga tashlab, ko‘zlari ola-kula bo‘lib goh menga, goh Xolmsga tikilardi.

– Mukofot o‘z yo‘li bilan-u, ammo mening shunday charoslarim borki, – dedi Xolms, – grafinya ba‘zi mulohazalarga ko‘ra bu toshni qaytarib olish uchun bor davlatining yarmini beradi.



– Yanglishmasam u «Kosmopoliten» mehmonxonasida yo‘qolgan edi, shekilli, – dedim men.

– Juda to‘g‘ri. Yigirma ikkinchi dekabrda, bundan rop-pa-rosa besh kun muqaddam. Bu toshni o‘g‘irlashda kavsharchi Jon Xornerni ayblashgan edi. Unga qarshi qo‘yilgan dalillar shu qadar jiddiyki, ish sudga oshirilgan. Darvoqe, menda bu ish haqida gazeta hisoboti bor edi, shekilli.

Sherlok Xolms gazetalarni uzoq titkilab, nihoyat, bittasini oldi-da, ikki buklab, quyidagilarni o‘qidi:

*«KOSMOPOLITEN» MEHMONXONASIDAN
QIMMATBAHO NARSALAR O‘G‘IRLANDI*

Yigirma olti yashar kavsharchi Jon Xorner mazkur oyning yigirma ikkisida grafinya Morkarning qutichasidan uning «moviy karbunkul» nomi bilan mashhur bo‘lgan qimmatbaho toshini o‘g‘irlashda ayblandi. Mehmonxonaning bosh xizmatkori Jeyms Raydarning shohidlik berishicha, o‘g‘irlik sodir bo‘lgan kuni u Xornerni grafinya Morkarning pardozxonasida ko‘rgan. Xorner u yerda kamin panjarasining ko‘chib ketgan simini kavsharlayotgan ekan. Rayder biroz vaqt xonada Xorner bilan birga bo‘lgan, ammo keyin uni chaqirib qolishgan. Qaytib kelib Xornerning g‘oyib bo‘lganini, stol g‘aladoni sindirilganini ko‘rgan, keyinchalik ma‘lum bo‘lishicha, grafinya o‘z odatiga ko‘ra qimmatbaho toshini olib yuradigan kichkina saxtiyon quticha pardo stolchasida yotganmish, ichida hech narsa yo‘q emish. Rayder shu zahotiy oq shovqin ko‘targan. O‘sha kuni kechqurunoq Xorner qamoqqa olingan, ammo toshni uning yonidan ham, xonasidan ham topisholmagan. Grafinyaning joriyasi Keterin Kyuzek shohidlik berishicha, u Rapdarning jon holatda qichqirganini eshitib, xonaga yugurib kirgan va u ham toshning g‘oyib bo‘lganini ko‘rgan. «B» okrugining politsiya inspektori Bredstrit Xornerni qamoqqa olishga farmoyish bergan, Xorner qattiq qarshilik ko‘rsatgan va qizishib gunohsiz ekanligini isbotlashga tirishgan. Ammo Xorner ilgari ham o‘g‘irlik qilgani uchun sudlanganligi sababli, sudya bu ishni ko‘rib chiqishdan bosh tortib, uni maslahatchilar sudiga



oshirgan. Shu vaqt davomida qattiq tashvishlanayotganligi ayon ko'rinib turgan Xorner bu qarorni eshitib behush bo'lib yiqilgan, uni sud zalidan olib chiqib ketganlar.

– Hm! Politsiya bergan ma'lumotning bori shu, – dedi Xolms o'ychanlik bilan, gazetani bir chetga qo'yarkan. – Bizning endigi vazifamiz – tosh qanday qilib grafinyaning qutichasidan g'ozning bo'takasiga o'tib qolganini aniqlash. Qo'rqyapsizmi, Uotson, bizning oddiy, jo'ngina mulohazalarimiz birdaniga diqqatga sazovor bo'lib qoldi. Ular biz taxmin qilganimizdan ko'ra foydaliroq chiqib qoldi. Mana bu tosh... Bu tosh g'ozning qornida, g'oz esa mister Genri Beykerning qo'lida edi, u manavi dabdala shlyapaning egasi, men sizga uning kimligini ta'riflab beraman deb g'oyatda diqqatingizni oshirib yubordim. Xo'sh, endi biz bu jentlmenni qidirib topish bilan jiddiy shug'ullanib, uning bu sirli hodisada qanday rol o'ynaganligini aniqlashimiz kerak. Uni qidirib topish uchun biz avval eng oddiy bir yo'lni qo'llab ko'ramiz: kechki gazetalarning hammasida e'lon bostiramiz. Bu yo'l bilan maqsadimizga erisholmasak, unda boshqacha usullarni qo'llayman.

– E'londa nima deyiladi?

– Menga qalam bilan bir parcha qog'oz bering. Mana bunday deymiz: «Guj-stritning muyulishidan g'oz bilan qora namat shlyapa topib olindi. Mister Genri Beyker ularni bugun kechqurun 6.30 da Beyker-stritdagi 221-B raqamli uyga kelib olib ketishi mumkin». Qisqagina va lo'nda.

– G'oyatda. Lekin u e'lonni o'qirmikin?

– Albatta. U hozir hamma gazetalarni kuzatadi, chunki u kambag'al odam, mavludga atab olingan g'oz uning uchun bir dunyo boylik. U oynaning singanini eshitib va Petersonning yugurib kelayotganini ko'rgach, hech narsani o'ylamay qochib qolgan. Keyin esa behuda qo'rqib, g'ozini tashlab qochgani-ga achingan, albatta. Gazetada biz uning nomini tilga olamiz. Har bir tanishi e'lonimizni darrov unga ko'rsatadi... Bo'lmasa, Peterson, tezroq e'lonlar byurosiga yuguring, shu satrlarni kechki gazetalarda e'lon qilishsin.

– Qaysilarida, ser?

– «Glob», «Star», «Pell-Mell», «Sent-Jenms Gazett», «Ivning Nyuz», «Stendard», «Iko» va esingizga kelgan boshqa gazetalarning hammasida bostiring.

– Xo‘p bo‘ladi, ser. Bu toshni nima qilay?

– E, ha! Toshni men olib qolaman. Sizga minnatdorchilik bildiraman. Qaytishingizda, Peterson, yo‘lda g‘oz sotib olib, menga tashlab keting. Axir biz u jentlmenga hozir sizning oilangizdagilar maza qilib yeyayotgan g‘ozning o‘rniga boshqa g‘oz berishimiz kerak-ku.

Xat tashuvchi chiqib ketdi, Xolms esa toshni olib, uni yorug‘ga solib ko‘ra boshladi.

– Alomat tosh! – dedi u. – Tovlanib, chaqnashini qarang. Har qanday qimmatbaho toshga o‘xshab bu ham jinoyatchilarni xuddi ohanrabodek tortadi o‘ziga. Chinakam iblisning tuzog‘i, katta, ko‘hna qimmatbaho toshlarning har bir qirrasini qanday bo‘lmasin bir qonli yovuzlik haqida rivoyat qiladi. Bu toshning topilganiga hali yigirma yil ham bo‘lgan emas. U G‘arbiy Xitoydagi Amoy daryosining sohilidan topilgan, shunisi bilan diqqatga sazovorki, unda karbunkulning bir xossasidan tashqari hamma xossalari mujassam: uning rangi qizg‘ish yoqut tusli emas, moviy. Yaqinda topilganiga qaramay, mudhish voqealarga aloqador qirq gran²² keladigan bu tiniq shaffof ko‘mir tufayli ko‘pdan-ko‘p talonchilik sodir bo‘lgan, ikki odam o‘ldirilgan, bir odam o‘zini o‘zi o‘ldirgan, kimningdir ustidan oltingugurt kislotasi quyib yuborishgan. Shunday chiroyli bir matoh odamlarni turma bilan dorga surgaydi, deb kim ham o‘ylashi mumkin. Bu toshni po‘lat sandig‘imga solib qulflab qo‘yaman, grafinyaga, menda saqlanyapti, deb yozaman.

– Siz, Xorner gunohsiz, deb o‘ylaysizmi?

– Hech narsa deyolmayman hozircha.

– Bu ishda Genri Beykerning qo‘li bormi?

– To‘g‘rirog‘i, Genri Beykerning bu ishga sira ham daxli yo‘q, o‘ylaymanki, agar bu g‘oz boshdan-oyoq oltindan bo‘lgan

²² G r a n – 0,0622 grammga teng eski o‘lchov birligi.



taqdirda ham o'sha tosh narxidan bir necha bor arzon turishi xayoliga ham kelmagan. Agar Genri Beyker bizning e'lonimizni eshitib kelsa, bu narsani tez orada, albatta, bilib olamiz.

– Ungacha siz hech qanday tadbir ko'rolmaysizmi?

– Yo'q, hech narsa qilolmayman.

– Unday bo'lsa, men bemor-larimning oldiga jo'nay, kechqurun esa tayinlagan vaqtingizda yana kelaman. Men bu chigal ishning nima bilan tugashini bilmoqchiman.

– Kelsangiz minnatdor bo'lardim. Men yettida ovqatlana-man. Ovqatga kaklik tortilsa kerak. Darvoqe, boyagi voqealar-dan keyin, missis Xadonga, uning bo'takasini yaxshilabroq qa-rang, desakmikan?

Men biroz tutilib qoldim. Beyker-stritga yana yetib kel-ganimda soat olti yarimlardan oshib qolgan edi.

Eshikka yaqinlasharkanman, shotlandcha qalpoq kiygan, kiyimining tugmalarini tomog'igacha qadab olgan novcha odamni ko'rdim. Xuddi men yaqinlashishim bilan unga eshikni ochishdi, biz Xolmsning xonasiga birga kirib bordik.

– Agar yanglishmasam, mister Genri Beyker bo'lsangiz kerak? – dedi Xolms kreslodan turib, mehmonni oddiygina, xushhol qiyofada qarshi olarkan, ba'zan shunday qiyofaga kira oladigan odati bor edi. – Marhamat, olovga yaqinroq o'tiring, mister Beyker. Kechqurun sovuq zo'raydi, nazarimda, yozdan ko'ra qishga yo'qroqsiz deyman... Uotson, ayni vaqtida keldin-giz-da... Bu sizning shlyapangizmi, mister Beyker?

– Ha, ser, meniki.

Beyker kallasi katta, aqlli, yalpoq basharali, qo'ng'ir cho'qqi soqolli, yelkalari bukik jussador odam edi. Burni bilan yonoqlaridagi qizil dog'lar, uzatgan qo'lining ohista qaltirashi uning ichkilikka moyil ekanligi haqidagi Xolmsning taxminini tasdiqlardi. Egnida tugmalari qadalgan, sarg'ayganroq syurtuk, yenglaridan chiqib turgan ozg'in bilaklarida ich kiyimi borligidan asorat ham ko'rinmasdi. U salmoqlab, bo'g'iq ohangda gapirar, turmushning achchiq-chuchugini totgan ziyoli odamning didini berar edi.



– Biz shlyapa bilan g‘ozni bir necha kun saqlab turdik, – dedi Xolms, – chunki shu paytgacha gazetalarda o‘z manzilingizni ma’lum qilib e’lon berib qolarsiz deb kutdik. Bilmadim, nega bunday qilmadingiz.

U xijil bo‘lib, kulib qo‘ydi.

– Bir vaqtlardagidek shillinglarim uncha ko‘p emas, – dedi u. – Menga yopishgan bezorilar shlyapamni ham, g‘ozni ham olib ketishgandir deb pulni bekorga isrof qilgim kelmadi.

– Mutlaqo tabiiy. Darvoqe, g‘ozingizni pishirib yeyishga to‘g‘ri kelib qoldi.

– Pishirib yeyishga to‘g‘ri kelib qoldi?

Mijozimiz qattiq hayajonlanganidan o‘rindan turib ketdi.

– Agar uni pishirib yemaganimizda baribir buzilib qolar edi, – deya davom ettirdi so‘zini Xolms. – Ammo o‘ylaymanki, anavi bufetda turgan g‘oz yangigina so‘yilgan, vazni ham o‘shancha, g‘ozingizning o‘rnini bossa kerak.

– O, albatta, albatta! – deb javob berdi mister Beyker yengil nafas olib.

– Lekin parrandangizning patlari, panjalari bilan bo‘takasi bizda qoladi, bordi-yu, siz...

Beyker samimiy qahqahlab kulib yubordi.

– Boshimdan o‘tgan sarguzashtdan xotira sifatida olib ketarmidim, – dedi u. – Rostini aytsam, marhum qadrdonimning bebaho xoki menga nima ish berishini bilmayman! Yo‘q, ser, ruxsatingiz bilan butun diqqat-e’tiborimni o‘sha bufetda turgan ajoyib g‘ozga qarata qolsam.

Sherlok Xolms men bilan tez ko‘z urishtirib olib, sezilar-sezilmas kiftini qisib qo‘ydi.

– Mana sizning shlyapangiz, mana g‘ozingiz. – dedi u. – Darvoqe, siz bu g‘ozni qayerdan olganingizni menga aytol-maysizmi? Men bu borada uncha-munchaga aqlim yetadi, rostini aytsam, bunaqa bo‘rdoqisini kam ko‘rganman.

– Bajonidil, ser, – dedi Bepker, u o‘rnidan turib yangi g‘ozini qo‘ltiqlab oldi. – Biz bir nechagina ulfatmiz, muzey yaqinidagi «Alfa» mayxonasiga borib turamiz, biz, bilasizmi,



muzeyda kun-uzun kun bo‘lamiz. Bu yil mayxonamizning xo‘jayini Vindiget «g‘oz klubi»ni tashkil qildi... u – juda ajoyib odam. Har birimiz haftasiga bir necha pensdan to‘lab, mavludga bittadan g‘oz olamiz. Men o‘z hissamni to‘la-to‘kis to‘lab bo‘lganman. Qolgani o‘zingizga ma‘lum. Sizdan g‘oyat minnatdorman, ser, mening yoshimdagi badavlat odamning shotlandcha qalpoq kiyib yurishi noqulay-ku axir.

U bizga kulgili, tantanavor taqlidda ta‘zim qilib chiqib ketdi.

– Genri Beyker vaji tamom, – dedi Xolms, uning orqasidan eshikni berkitarkan. – Mutlaqo ayonki, qimmatbaho tosh uning yetti uxlab tushiga ham kirgan emas. Qorningiz qalay, Uotson?

– Uncha och emas.

– Unda men tushlik ovqatni kechga qoldirib, vaqtni o‘tkazmay darhol ishga tushishni taklif etaman.

– Jonim bilan.

Sovuq bir kecha bo‘lgani uchun palto kiyib, bo‘ynimizga sharf o‘rashga majbur bo‘ldik. Bulutsiz ochiq osmonda yulduzlar xiragina jimirlab turar, o‘tkinchilarning nafasidan chiqayotgan hovur bir talay to‘pponchalardan otilgan o‘qning dudiga o‘xshar edi. Ko‘chalar bo‘ylab odimlarimiz aniq eshitalardi. Biz Uimpol-strit va Garli-stritdan borib, Vigmor-strit orqali Oksford-stritga o‘tdik va chorak soatdan so‘ng Xolbornga olib boradigan ko‘chalardan birining muyulishidagi oddiygina «Alfa» mayxonasi yaqinidagi Blumsberiga yetib bordik. Xolms mayxonaga kirib oq peshgir tutgan qizil yuzli mayxonachiga ikki krujka pivo buyurdi.

– O‘ylaymanki, pivongiz ajoyib bo‘lsa kerak, g‘ozlaringizdan qolishmasa kerak,a? – dedi Xolms.

– G‘ozlaringizdan?

Mayxonachi taajjublangandek edi.

– Ha. Yarim soatcha burun g‘oz klubingizning a‘zosi mister Genri Beyker bilan suhbatlashgan edim.

– Ha, ha, tushundim. Ammo, bilasizmi, ser, g‘ozlar meniki emas.

Shunaqami? Kimniki bo'lmasa?

Yigirma to'rtta g'ozni Kovent-gardendagi bir savdogardan sotib olgan edim.

Yo'g'-ey? Men ulardan ba'zilarini taniyman. Kimdan sotib olgan edingiz?

U odamning oti Brekinrij.

E-yo'q, Brekinrijni tanimayman. Xo'p, sizning salomatligingiz va muassasangizning ravnaqi uchun, mezbbon! Tuningiz xayrli bo'lsin!

Endi mister Brekinrijning oldiga boramiz, – dedi Xolms, sovuqqa chiqib paltosini tugmalarkan. – Shuni unutmangki, Uotson, zanjirimizning bir uchida faqat g'ozgina bo'lib, ikkinchi uchiga bir odam kishanlanganki, agar biz uning gunohsiz ekanligini isbotlamasak, unga yetti yillik zahmatli surgun tahdid qilib turibdi, ehtimol, bizning qidirishlarimizdan aybdor xuddi o'shaning o'zi degan xulosa chiqsa-da, ammo harqalay, kalavaning uchi politsiyaning qo'lga ilinmay, tasodifan bizning qo'limizga tushib qoldi. Biz uni tutib, qanday xunuk oqibatlariga olib bormasin, oxirigacha boramiz. Shunday qilib, jamubga burilib, ilgari qarang yuramiz.

Biz Xolborndan o'tib, Endell-strit bo'ylab bordik-da, allaqanday pastqam ko'chalar orqali Kovent-garden bozoriga chiqdik. Eng katta do'konlardan biriga: «Brekinrij» deb yozib qo'yilgan edi. Ot yuzli basavlat bakenbardli do'kondor bir bolaga darchalarni yopishga yordam bermoqda edi.

Xayrli kech! Sovuq rosa zabtiga olyaptimi, – dedi Xolms.

Savdogar bosh qimirlatib, do'stinga savol nazari bilan qaradi.

G'ozlarni sotib bo'lganga o'xshaysiz-a, – deya gapini davom ettirdi Xolms, bo'sh turgan marmar peshtaxtani ko'rsatib.

Ertaga ertalab besh yuzta desangiz ham olishingiz mumkin.

Ertaga boshimga uramanmi!

Hov anavi chiroq yonib turgan do'konda uncha-muncha qolgan bo'lsa kerak.

Ha, ammo meni sizga yuborishgan edi-da.



– «Alfa»ga, mister Vindigetga sotilgan, o'n ikki shillingdan». Xo'sh, endi nima deysiz?

Sherlok Xolms qattiq achingandek ko'rindi. Cho'ntagidan bir soveren pul olib, uni peshtaxtaga uloqtirdi-da, shart burilib xafa bo'lgandek indamay tashqariga chiqdi. Bir necha qadam yurgach, u fonar ostida to'xtadi-da, odatdagidek quvnoq va sassis kulib yubordi.

– Bordi-yu, cho'ntagida shunday qizil dastro'moli bilan shunday mo'ylovi bor odamni ko'rsangiz, unga istagan garovingizni taklif etib, undan har qanday ma'lumotni bilib olishingiz mumkin, – dedi u.

– Qat'iy aytamanki, u bilan garov bog'lashib qo'lga kiritgan shunday mufassal ma'lumotlarni yuz funt sarflaganimda ham hech qachon ololmasdim undan. Shunday qilib, Uotson, nazarimda, sirli ipning chigalini oxi-rigacha yozgandekmiz. Endilikda hal qilishimiz kerak bo'lgan birdan-bir narsa shuki, o'sha missis Okshot degannikiga hozir boramizmi, yoki bu ishni ertalabgacha qoldiramizmi? Anavi qo'polning so'zlaridan ko'rinib turibdiki, bu ish bilan bizdan tashqari yana allakimlar qiziqayotganga o'xshaydi, shuning uchun men...

Biz hozir tashlab chiqqan do'kondan tuyqusdan eshitilib qolgan shovqindan Xolmsning gapi og'zida qoldi. Orqaga o'girilib qararkanmiz, chayqalib turgan chiroqning sarg'ish shu'lasida qizil basharali jikkakkina odamni ko'rdik. Brekinrij do'kon eshigida turgancha unga musht ko'rsatardi.

– O'zlaring ham, g'ozlaring ham jonimga tegdi! – deb baqirardi Brekinrij. – Hammalaringni ham jin ursin! Yana bir karra ana shu ahmoqona savollaringizni beradigan bo'lsangiz, itimga talataman. Olib keling miss Okshotingizni, unga o'zim javob beraman. Bu ishga sizning nima daxlingiz bor? G'ozlarni sizdan sotib olganmidim?

– Yo'q, ammo, har qalay, ulardan biri meniki edi, – deb nolidi haligi odam.

– Bo'lmasa, uni o'sha missis Okshotdan talab qiling!

– U sizdan so'rab bilgin degan edi.



– Menga desa Prussiya qirolidan borib so‘ramaysizmi! Jonimga tegdingiz! Bas! Yo‘qoling bu yerdan!

U qahr bilan oldinga tashlangan edi, haligi odam darhol qorong‘ilikka kirib g‘oyib bo‘ldi.

– Ana, Brikston-rodga bormasak ham bo‘ladiganga o‘xshaydi, – deya shivirladi Xolms, – qani, borib ko‘raylik-chi, bu kimsa bizga ish berib qolmasmikan.

Yop-yorug‘ do‘konlar atrofida sang‘ib yurgan bir to‘da bekorchilar orasidan o‘tib borib do‘stim haligi odamga yetib oldi-da, uning yelkasiga qo‘lini tashladi. U shartta o‘girilib qaradi, gaz fonar yorug‘ida uning rangi quv o‘chib ketganini ko‘rdim.

– Siz kim bo‘lasiz? Nima ishingiz bor menda? – deb so‘radi u ovozi qaltirab.

– Meni kechiring, – dedi muloyimlik bilan Xolms. – Anavi savdogardan nimani so‘raganingizni tasodifan eshitib qoldim. O‘ylaymanki, sizga foydam tegib qolar.

– Sizning-a? Kimsiz o‘zi? Menga nima kerakligini qayoqdan bilasiz?

– Otim Sherlok Xolms. Kasbim – boshqalar bilmaydigan narsalarni bilish.

– Ammo men bilishim kerak bo‘lgan narsa haqida siz hech narsani bilgan bo‘lishingiz mumkin emas.

– Aybga buyurmaysiz, ammo men hammasini bilaman. Siz Brikston-roddagi missis Okshotning Brekinrij degan savdogarga sotgan g‘ozlarining izlarini topishga urinib yuribsiz, Brekinrij bularni «Alfa»ning egasi mister Vindigetga, unisi esa, o‘z navbatida ularni Genri Beyker a‘zo bo‘lib turgan o‘zining «g‘oz klub»iga sotgan.

– O, ser, men uchrashish ishtiyoqida yurgan odam xuddi siz ekansiz! – deb yubordi u odam qaltirayotgan qo‘llarini oldinga cho‘zib. – Bu gaplarning men uchun nechog‘lik muhim ekanini sizga izhor qilishdan ojizman!

Sherlok Xolms o‘tib ketayotgan izvoshchini to‘xtatdi.

– Unday bo‘lsa, bu izg‘irin o‘ynagan bozor sahnidan ko‘ra, shinamgina xonada gaplashganimiz durust, – dedi u. – Ammo



yo'lga ravona bo'lishimiz oldidan, mumkin bo'lsa, shu narsani aytsangiz, men kimga imkon qadar yordam berishdek sharafiga muyassar bo'lmoqdaman?

Bu odam bir lahza ikkilanib qoldi.

– Mening otim Jon Ro-binson, – dedi u ko'zini chetga olib qochib.

– Yo'q, yo'q, asl nomingiz nima? – dedi xushmuomalalik bilan Xolms: – Kishi hamisha o'z asl nomi bilan ish ko'rgani qulayroq.

Notanish odamning rangpar yuzi qizarib ketdi.

– Unday bo'lsa, – dedi u, – mening asl nomim Jeyms Rayder.

– Mana bunisi to'g'ri. Siz «Kosmopoliten» mehmonxonasida xizmat qilasiz. Marhamat, kebga chiqing, hademay bilmoqchi bo'lgan hamma narsangizni aytib beraman.

Bu kichkina odam joyidan qo'zg'almasdi. U goh birimizga, goh ikkinchimizga tikilar, ko'zlaridagi umid o'rnini vahim egallagan edi. O'zini kulfat kutyaptimi yoki katta baxt kutyaptimi, buni bilolmaganligi ko'rinib turardi. Nihoyat, u kebga chiqdi, yarim soatdan so'ng Beyker-stritdagi mehmonxonamizga yetib keldik. Yo'lda hech kim churq etib og'iz ochmadi. Ammo hamrohimizning chuqur xo'rsinib, kaftlarini jon-jahdi bilan yumib ochishidan, uning yo'l bo'yi qanday asabiy holatda kelgani so'zsiz ham ayon edi.

– Mana, uyga ham yetib keldik! – dedi xushchaqchaqlik bilan Xolms. – Bunday havoda lang'illab turgan kamindan yaxshi narsa bormi dunyoda! Sovqotdingiz shekilli, mister Rayder. Marhamat, manavi to'qima kresloga o'tiring. Xonaki tuflimni kiyib olay, keyin darhol sizning ishingiz bilan shug'ullanishga kirishamiz. Xo'p, mana! Siz anavi g'ozlarning nima bo'lganini bilmoqchisiz-da, shundaymi?

– Ha, ser.

– To'g'rirog'i, anavi g'ozning nima bo'lganini bilmoqchisiz-a? Nazarimda, sizni ulardan birginasi, dumida qora yo'li bor oq g'oz qiziqtirgan shekilli...



Rayder hayajondan tipirchilab qoldi.

– O, ser! – deb qichqirib yubordi u. – Siz menga o'sha g'ozning qayerdaligini aytib bera olasizmi?

– U shu yerda.

– Shu yerda?

– Ha. O'zi ham ajoyib g'oz ekan. Unga qiziqib qolganingiz ham bejiz emas ekan. U o'lganidan keyin chiroyli, yarqiroq moviy tuxum qildi. Tuxum shu yerda, mening muzeyimda.

Mehmonimiz o'rnidan turib ketib, gandiraklagancha o'ng qo'li bilan kamin taxtasini ushlab qoldi. Xolms po'lat sandiqni ochib, undan xuddi mitti yulduzdek tovlanib yarqirayotgan moviy karbunkulni oldi. Rayder bu toshni talab qilib olishini ham, unga bo'lgan har qanday haq-huquqidan voz kechishini ham bilmay baqrayib turardi.

– Chuv tushdingiz, Rayder, – dedi xotirjamlik bilan Sherlock Xolms – Oyog'ingizni qattiqroq bosib turing, bo'lmasa o'tga yiqilib tushasiz. Uni o'tqazib qo'ying, Uotson. Sir boy bermay, xotirjamgina qalloblik qilishga hali chog'i kelmaydi. Unga bir qultumgina aroq bering. Ana endi sal odam bashara bo'ldi. Qo'ng'izdan ham xarob-a!

Rayder gandiraklab ketib yerga yiqilib tushishiga sal qoldi, ammo aroqdan yonoqlariga sal-pal qizillik yugurib u o'zining fosh etuvchisiga vahima bilan baqrayib tikilgancha o'rniga o'tirdi.

– Men qariyb hammasini bilaman, qariyb yetarli dalil-u isbotlarga egaman, shuning uchun siz ozgina qo'shimcha qilsangiz bas. Biroq o'sha ozgina narsani hozirning o'zidayoq gapirib berishingiz kerak bizga, toki ishda jindakkina ham noaniq joyi qolmasligi kerak. Siz grafinya Morkarning bu moviy karbunkuli bor ekanini qayoqdan bildingiz, Rayder?

– Menga buni Keterin Kyuzek aytib berdi, – deb javob berdi u titroq ovoz bilan.

– Bilaman, janobi oliylarining joriyasi. Osongina boylik orttirish vasvasasi sizdan g'olibroq kelgan, bu narsani sizdan ko'ra mu'tabarroq zotlar ham bir necha bor boshlaridan kechir-



ganlar. Siz andishani yig'ishtirib qo'ygansiz. Nazarimda, Rayder, sizdan bora-bora binoyidekkina gazanda chiqishi mumkin edi! Siz Xorner degan kavsharchining ilgari bir marta o'g'irlik qilib qo'lga tushganini, hammadan oldin undan shubhalanishlarini bilgansiz. Nima tadbir ko'rgan Grafinyaning xonasidagi kamin panjarasining simini sindirgansiz, sherigingiz Kyuzek ikkovingiz ataylab shunday bir tadbir ko'rgansizlarki, zarur ta'mir ishini Xorner bajarishiga erishgansizlar. Xorner ketgach, sizlar qutichadagi toshni yashirib, shovqin ko'targansizlar, u sho'rlikni qamoqqa olishgan. Shundan so'ng...

Shu orada Rayder birdan gilamga sirg'alib tushib, do'stimning tizzalarini ikki qo'li bilan quchoqlab oldi.

– Xudo haqi, menga rahmingiz kelsin! – deya qichqirib yubordi u. – Otam, onam buni eshitishsa adoyi tamom bo'lishadi. Men hech qachon o'g'irlik qilgan emasman! Hech qachon! Ikkinchi bunday qilmayman, ont ichaman! Bu ishni sudga oshirmang! Xudo haqi, sudga oshirmang!

– Joyingizga o'tiring, – deb jerkib berdi Xolms. – Endi yetti bukilib o'pasizmi? Sho'rlik Xornerni qilmagan jinoyati uchun aybdorlar kursisiga ro'para qilayotganingizda nimalarni o'ylagan edingiz?

– Men qochib ketishim mumkin, mister Xolms! Angliyadan bosh olib ketaman, ser! Shunda unga taqalغان ayb bekor bo'ladi...

– Hm! Biz hali bu to'g'rida gaplashib ko'ramiz. Hozircha o'g'irlikdan keyin nimalar yuz bergani haqidagi haqqoniy hikoyangizni eshitamiz. Bu tosh g'ozning bo'g'ziga qanday tushib qoldi-yu, g'oz qanday qilib bozorga borib qoldi? To'g'risini ayting, siz uchun birdan-bir najot yo'li to'g'risini aytish.

Rayder qaqragan lablarini yalab oldi.

– Men sizga bor gapni aytib beraman, – dedi u. – Xornerni qamoqqa olganlarida, yon-verimni, xonamni tintish politsiyaning yodiga kelib qolmasdan toshni olib chiqib ketganim yaxshi, degan qarorga keldim. Mehmonxonada toshni yashirib qo'yish uchun qulay joy yo'q edi. Men xizmat yuzasidan



ketayotgan bo'lib tashqariga chiqdim-da, opamning uyiga qarab yo'l oldim. U Okshot degan odamning xotini, Brikston-rodga yashaydi. U uy parrandalarini semirtirib sotish bilan shug'ullanadi. To'qnash kelgan har bir odam menga politsiyachi yoki iztopar bo'lib tuyulaverdi, salqin bir oqshom bo'lishiga qaramay, to Brikston-rodga yetib borgunimcha terga botdim. Opam mendan, nima gap, nega bunday ranging o'chgan, deb so'radi. Men, mehmonxonamizda qimmatbaho narsalar o'g'irlanganidan tashvishlanyapman, deb javob berdim. Keyin orqa hovliga o'tib tamaki chekdim-da, nima tadbir ko'rish kerakligini o'ylay boshladim.

Mening to'g'ri yo'ldan toyib jazo muddatini Pentonvil turmasida o'tkazib kelgan Modeli degan oshnam bor edi. Bir kuni u bilan uchrashib o'g'rilar haqida gaplashib qolganimizda, menga o'g'rilar o'g'irlangan molni qanday quv qilishlarini gapirib bergan edi. U meni chaqib qo'ymasligini bilardim, chunki uning ba'zi bir gunohlaridan xabardor edim, shuning uchun ham to'ppa-to'g'ri Kilburnga borib, unga uchrashmoqchi va uni sirimdan voqif qilmoqchi bo'ldim. U bu toshni qanday qilib pullashni o'rgatishi mumkin edi. Ammo u yoqqa qanday yetib olaman? Men mehmonxonadan kelayotganimda kechirgan iztiroblarimni esladim. Har bir daqiqada ushlab olib yon-verimni tintib, nimcham cho'ntagidan toshni topib olishlari mumkin edi. Devorga suyangancha oyog'imning tagida lapanglab izg'ib yurgan g'ozlarga qarab turarkanman, dunyodagi eng epchil iztoparni ham qanday qilib aldash haqida miyamga daf'atan bir fikr kelib qoldi...

Bir necha hafta burun opam menga mavlud bayramiga juda bo'liq g'oz sovg'a qilajagini aytgandi, uning hamisha so'zi ustidan chiqishini bilardim. Men o'sha g'ozni hozirning o'zi-dayoq olib, toshni uning bo'g'zida Kilburnga olib bormoqchi bo'ldim. Hovlida bir saroy bor edi. Men dumi ola kattakon, semiz bir oq g'ozni saroyning orqasiga haydab o'tdim. Uni tutib olib, tumshug'ini ochdim-da, mumkin qadar ichkariroqqa surishga harakat qilib, toshni uning bo'g'ziga tiqdim. G'oz yutin-



di, tosh uning bo'takasiga qanday qilib o'tib borganini qo'lim bilan sezib turdim. Ammo g'oz tipirchilab qanotlarini tapillata boshladi, opam nima gapligini bilgani chiqib qoldi. O'girilib unga endi javob bermoqchi bo'lib turgan edim, yaramas g'oz qo'limdan yulqinib chiqib galaga aralashib ketdi.

«Jonivorni nima qilayotgan eding, Jeyms?» – deb so'radi opam.

«Haligi... dedim men, – senga mavlud bayramiga g'oz sovg'a qilaman, deganing uchun ulardan qaysi biri semizroq ekan, deb ko'rayotgan edim».

«O, – dedi u, – biz senga atab allaqachon g'ozni tanlab qo'rganmiz. Biz uni: «Jeymsning g'oz» deb ataymiz. Hov anavi boshdan-oyoq oppoq kattakon g'oz. Hammasi bo'lib yigirma oltita g'oz, shulardan bittasi senga, bittasi bizga, yigirma to'rttasi – sotishga».

«Rahmat, Meggi, – dedim men. – Agar senga farqi bo'lmasa, menga hozir qo'limda ushlab turganimni bersang».

«Seniki bunga qaraganda uch qadoqcha vazminroq, o'zini ham senga atab yaxshilab boqqanmiz».

«Buning ahamiyati yo'q. Menga xuddi shunisi kerak, uni hozirning o'zida olib ketsam».

«O'zing bilasan, – dedi opam biroz ranjib. – Qaysi birini olmoqchi eding?» «Dumida qora yo'li bor hov anavi oqini, hov ana galaning o'rtasida turibdi». «Marhamat. So'yib olib ketaqol!»

Men shunday qildim, mister Xolms, qushni Kilburnga olib ketdim. Oshnamga hamma gapni aytib berdim – u bunaqa gaplarni bemalol aytaversa bo'ladigan odamlar toifasidan. U sillasi quriguncha qotib-qotib kuldi, keyin pichoq olib g'ozni so'ydik. G'ozning ichida tosh yo'qligini ko'rib mudhish bir xato ro'y berganini anglaganimdan keyin, yuragim orqasiga tortib ketdi. G'ozni o'sha yerda qoldirib opamnikiga g'izil-ladim, chopgancha orqa hovliga kirib bordim. Hovlida g'ozlar yo'q edi.

«G'ozlar qani, Meggi?» – deb qichqirdim.



«Savdogarga jo‘natdik».

«Qaysi savdogarga?»

«Kovent-gardendagi Brekinrijga».

«G‘ozlarning orasida men hozirgina so‘yganga o‘xshagan yana bir dumi olasi bormidi?» – deb so‘radim.

«Ha, Jeyms, dumi ola g‘oz ikkita edi, men ularni doim adashtirib yurardim». Shundan keyin men, albatta, bir gapni tushunib, o‘sha Brekinrijning oldiga qarab yugurdim. Ammo u g‘ozlarning hammasini allaqachon sotib bo‘lgan ekan, kimga sotganini sira aytgisi kelmadi. Uning menga qanday o‘da-g‘aylab berganini o‘zingiz eshitdingiz. Opam meni, aqlan ozgan, deb o‘ylayapti. Ba‘zan o‘zim o‘zimga ham jinniga o‘xshab ko‘rinaman. Mana endi... mana endi men – qabih o‘g‘riman, holbuki, o‘g‘irlyman deganim g‘animatga qo‘limni tegizmagan bo‘lsam ham, uni deb yosh umrimni xazon qildim. Yo rabbiy, meni o‘zing yorlaqa! Yo rabbiy, o‘zing yorlaqa!

U qo‘llari bilan yuzini berkitganicha titrab o‘kirib yig‘lab yubordi. Oraga uzoq jimlik cho‘kdi, uni Randerning og‘ir xo‘rsinishlari bilan do‘stimning stol qirrasini bir maromda chertishigina buzib turardi. Birdan Sherlok Xolms o‘rnidan turib, ko‘cha eshikni lang ochdi.

– Yo‘qoling! – dedi u.

– Nega, ser? O, sizni parvardigor yorlaqasin!

– Gapirmang! Yo‘qoling bu yerdan!

Bu so‘zni yana bir takrorlashga to‘g‘ri kelmadi. Zinapoyadan tez tushib borayotgan odim tovushlari gumburlab eshitildi, pastda eshik taraqladi, ko‘chadan shaxdam qadam tovushlari keldi.

– Xulosasini aytganda, Uotson, – dedi Xolms, qo‘lini sopol trubkasiga cho‘zib, – mutlaqo politsiyamizning yo‘l qo‘ygan xatolarini tuzatish uchun ishlaymayman. Bordi-yu, Xornerga xavf-xatar tahdid solayotgan bo‘lsa, unda boshqa gap edi. Ammo Rayder unga qarshi shohidlik bermaydi, ish shu bilan tinchib ketadi. Ehtimol, muttahaqqa homiylik qilayotgandirman-u, ammo, to‘g‘rirog‘i, men odamni batamom



nobud bo‘lib ketishdan saqlab qolyapman. Bu shovvoz, endi bunaqa ishlarni takrorlamaydi – u juda yurak oldirib qo‘ygan. Hayot bizni g‘alati va alomat bir jumboq bilan to‘qnash keltirdi! Bu jumboqni yechishning o‘ziyoq katta mukofot! Iltifot qilib qo‘ng‘iroqni chalib qo‘ysangiz, yangi «tadqiqot» bilan shug‘ullanardik, bunda ham bosh rolni yana parranda ijro etadi: esingizda bo‘lsin, tushlikka kaklik yeymiz.

SARG'ISH BASHARA

Erta bahor kunlaridan birida Sherlok Xolms iltimosimni yerda qoldirmay, men bilan birga bog'da sayr qilgani yo'l oldi. Qayrag'och shoxlarida ilk, sezilar-sezilmas yashil kurtaklar nish urgan, kashtanlarning yopishqoq bo'rtiklari ochilib, besh qirrali ilk yaproqlarga aylanmoqda edi. Biz bog' bo'ylab surunkasiga ikki soat aylanib yurdik, bir-biriga yaxshi sinashta ikki odamga xos odatga ko'ra churq etib og'iz ochmadik. Biz Beyker-stritga qaytib kelganimizda salkam besh bo'lib qolgan edi.

– Kechirasiz, ser, – dedi xizmatkor bola bizga eshik ocharkan.

– Bir jentlmen keldi... U sizni so'radi, ser.

Xolms menga ta'na bilan qarab qo'ydi.

– Kunduzgi sayllarning oqibati shunaqa bo'ladi! – dedi u. – O'sha jentlmen ketib qoldimi?

– Ha, ser.

– Ichkariga kirib, kutib turing, demadingmi?

– Dedim, ser, u kirdi.

– Uzoq kutdimi?

– Yarim soatcha, ser. Juda bezovta jentlmen ekan, ser. Kirganidan ketgunicha xonada u yoqdan bu yoqqa yurdi, hatto depsinib ham qo'yardi. Men dahlizda edim. Ser, shuning uchun uning gapirayotgan yo gapirmayotganini eshitolmadim. Oxiri u yo'lakka yugurib chiqib: «Axir bu odam keladimi-yo'qmi o'zi?» – deb qichqirdi. Xuddi shunday dedi, ser. «Yana biroz kutib turing», – dedim. «Mayli, kuta turaman, – dedi u, – ammo bu yerda emas, ochiq havoda, bo'lmasa bu yerda nafasim qisilib ketyapti! Hademay qaytib kelaman». Hech bir gapga ko'nmadi.



rimgina to‘q kulrang kostyum. Qo‘lida soyaboni keng jigarrang movut shlyapa. Men uni o‘ttiz yoshlarda deb taxmin qilishim mumkin edi. Aslida esa, ajab emaski, bundan kattaroq bo‘lsa.

– Afv etasiz, – dedi u sal xijil bo‘lib.

– Men taqillatishim kerak edi. Ha, albatta, taqillatishim kerak edi. Ammo men biroz xafaman, hamma gap shunda! – u sal-pal boshi aylanib turgan odamdek, peshonasini silab, stulga o‘tirdi deyishdan ko‘ra ham, o‘zini tashladi.

– Nazarimda, siz bir-ikkikechadan beri uxlamagangao‘xshaysiz, – dedi Xolms ochiqko‘ngillik bilan! – Bu narsa asabni ishdan ham, hattoki o‘yin-kulgidan ham ko‘proq qaqshatadi. Ruxsat-ingiz bilan so‘rasam, sizga bironta yordamim tegishi mumkinmi?

– Menga sizning maslahatingiz kerak, ser. Nima qilishimni bilmay qoldim, nazarimda, butun turmushim barbod bo‘lgandek.

– Menga detektiv konsultant sifatida yordam ber, demoqchimisiz?

– Bu o‘z yo‘li bilan. Ammo, bundan tashqari, men sizning fikringizni bilmoqchi edim. Siz ko‘pni ko‘rgan, turmushning achchiq-chuchugini totgan oqil odamsiz... Nima qilishim kerakligi to‘g‘risida yo‘l ko‘rsatsangiz degan edim. O, menga yo‘l ko‘rsatishingizni juda istardim!

U qisqa-qisqa, keskin, uzuq-yuluq gapirar, nazarimda, umuman g‘oyatda qiynalib gapirayotgandek, dilida bor gapini izhor qilmaslik istagini zo‘r kuch bilan bosib turgandek edi.

– Bu juda nozik masala, – dedi u. – Hech kim o‘zining oilaviy ishlarini begona odamga gapirishni xush ko‘rmaydi. Umring bino bo‘lib ko‘rmagan ikki odam bilan xotining o‘rtasidagi munosabatni muhokama qilish bu juda dahshatli narsa. Ha, bu dahshat! Ammo pichoq borib ustuxonimga taqaldi, yaxshi bir maslahatga muhtoj bo‘lib qoldim.

– Qimmatli mister Grant Monro... – deya gap boshladi Xolms.

Mijozimiz stuldan sapchib turib ketdi.

– Iya! – deb qichqirib yubordi u. – Siz mening otimni bilasizmi?



– Siz o‘zingizning kimligingizni xufiya tutmoqchi bo‘lsangiz, – dedi Xolms jilmayib, – men sizga otingizni shlyapangizning astariga yozmasligingizni yoki aqalli gaplashayotganingizda undagi yozuvni suhbatdoshingiz ko‘rmaydigan qilib ushlab turishingizni maslahat berardim. Shu narsani aytmoqchi edim-ki, do‘stim bilan men bu xonada ko‘pgina g‘aroyib sirlarni eshitganmiz, ko‘pgina bezovta ko‘ngillarga taskin bag‘ishlash baxtiga muyassar bo‘lganmiz. Aminmanki, bu gal ham shunga musharraf bo‘lamiz. Bashartiki oshiqishimiz zarur bo‘lib qolsa, menga hamma faktlarni darhol aytib berishingizni ilti-mos qilardim.

Mehmonimiz yana qo‘li bilan peshonasini siladi, uning gap boshlashi naqadar qiyin bo‘layotganini ko‘rish mumkin edi: yuzining har bir imosi, har bir harakati bu odamning pismiqlik, bosiq, mag‘rur, o‘z jarohatlarini ayon-oshkor ko‘rsatishdan ko‘ra ham uni yashirishga moyil odam ekanligini sezdirib turardi. Ammo birdan, har qanday andishani bir chetga uloqtirib tashlagandek, mushtini qahr bilan siltab, gapira ketdi.

– Faktlar shulardan iborat, mister Xolms, – dedi u. – Uylanganimga uch yil bo‘lgan. Shu vaqtgacha xotinim ham, men ham bir-birimizni juda sevardik, g‘oyat baxtiyor edik. Biz bir-birimizdan hech narsani – na o‘y-xayollarimizni-yu, na xatti-harakatlarimizni yashirardik. Ammo o‘tgan dushanbadan beri – oramizda birdan qandaydir to‘siq paydo bo‘ldi. Xotinimning o‘y-xayollarida, hayotida menga noma‘lum bo‘lgan bir narsa paydo bo‘lib qoldi. Endi xotinimning sirini ko‘chada o‘tib ketayotib meni tasodifan turtib yuborgan xotinning sirini bilganimchalik ham bilmayman. Biz bir-birimizga begona bo‘lib qoldik, men shuning sababini bilmoqchi edim... U yog‘ini aytishdan oldin, mister Xolms, diqqatingizni masalaning bir jihatiga qaratmoqchi edim. Effi meni sevadi, bunga shubhalanmasangiz ham bo‘ladi. U meni chin qalbidan sevadi, hech qachon hozirgichalik sevgan emas. Men buni bilaman. Buni his qilib turibman. Bu borada bahslashmoqchi emasman. Erkak kishida yaqin kishi uni sevishiga komil ishonch bo‘lishi



mumkin-ku axir! Ammo bizning oramizga sir tushib ola soldi, agar u ochilmasa, bizning ilgarigi aloqalarimiz o'rniga qaytib kelmaydi.

– Mumkin bo'lsa, menga faktlarni aytib bersangiz, mister Monro, – dedi Xolms biroz sabrsizlanib.

– Men sizga Effi to'g'risida bilganlarimni aytib beraman... Men Effi bilan ilk daf'a uchrashganimda u beva edi, zotan juda yosh juvon edi. U bor-yo'g'i yigirma beshda edi. Uni missis Xibron deb atashardi. Juda yoshligida Amerikaga jo'nab ketib, Atlanta shahrida yasharkan. U yerda mijozlari juda ko'p Xibron degan advokatga tegibdi. Ular bola ko'rishibdi, ammo qora bezgak epidemiyasi boshlanib, eri ham, bolasi ham o'libdi. Men Xibronning vafoti haqidagi guvohnomani ko'rganman. Ana shu baxtsizliklar tufayli u Amerikani qattiq yomon ko'rib qolib, u yoqdan qaytib kelgan, tul xolasi bilan Middleksdagi Pinner degan joyda yashay boshlagan. Men shuni eslatib o'tishim kerakki, eri o'lgach, unga durustgina meros, taxminan to'rt yarim ming funt pul qolgan, ulardan yetti foiz daromad olib turarkan. Men Effini uchratganimda uning Pinnerda yashayotganiga endigina yarim yil bo'lgan ekan. Biz bir-birimizni sevib qoldik, bir necha haftadan keyin qovushdik.

Men o'zim achitqifurushman. Bir yillik daromadim yetti yuz-sakkiz yuz funtga boradi. Shunday qilib, biz anchagina ma'mur bo'lib qoldik. Yiliga sakson funt badaliga Norberidan yaxshigina bog' ijaraga oldik. Bu yer shundoqqina shahar chekkasiga joylashgan bo'lsa-da, qishloqdan deyarli farq qilmasdi. Bog'imizdan sal yuqoriroqda ikkita uy bilan mehmonxona, dalaning narigi tomonida, chetroqda – bizga ro'parama-ro'para kottej joylashgan. Stansiyaga olib boradigan yo'lning o'rtasiga yetguncha bundan boshqa hech bir bino yo'q.

Kuz va qish oylarida men ko'pincha ish bilan shaharda bo'laman, ammo yozda kamroq band bo'laman. Biz o'zimizning shahar tashqarisidagi uyimizda ko'ngildagidekkin baxtiyor turmush kechirib turardik. Shu la'nati voqeagacha turmushimizga hech narsa dog' solmagan edi...



Sizga shuni aytishim kerakki, turmush qurganimdan keyin, xotinim bor boyligini menga topshirdi, mening qarshi turishimga ham qaramadi, chunki, bordi-yu ishlarim yurishmay qolsa, men uning pullaridan foydalanishga juda ham qiynalardim. Biroq, u soʻzini oʻtkazmay qoʻymadi. Birdan, taxminan olti hafta muqaddam u menga shunday deb qoldi:

«Jek, siz mening pullarimni olayotganingizda, xohlagan vaqtingizda keragicha olishingiz mumkin, degan edingiz».

«Albatta, – deb javob berdim men. – Bu pullar – sizniki».

«Xoʻp boʻlmasa, – dedi u. – Menga yuz funt kerak».

Men biroz taajjublandim, ammo, yangi koʻylak yoinki shunga oʻxshagan biron narsaga kerakdir-da, deb oʻyladim.

«Nimaga kerak boʻlib qoldi?» – deb soʻradim men.

«O, – deb javob berdi u sarosimaga tushib, – siz bankingiz boʻlaman, degan edingiz-ku, bankirlar boʻlsa hech qachon hech narsani surishtirishmaydi, buni bilasiz-ku».

«Agar pul sizga darhaqiqat kerak boʻlsa, uni olamiz».

«Ha, albatta, pul juda kerak».

«Nima uchun kerakligini aytmaysizmi?»

«Keyinroq aytarman, Jek, hozir emas».

Men shu javobga qanoat qilishga majbur boʻldim, zotan oʻshangacha u mendan hech narsani yashirmas edi. Men unga chekni berib, bu suhbatimizni xayolimdan chiqarib yubordim. Ehtimol, keyin sodir boʻlgan narsalarga bu hodisaning hech qanday aloqasi ham yoʻqdir-u, har qalay, uni eslatib oʻtishim zarur.

Sizga hozirgina aytganimdek uyimizning yaqinida kottej bor. Oramizni dala ajratib turadi, ammo kottejga borish uchun yoʻldan oʻtib, keyin soʻqmoqqa burilish kerak. Xuddi kottejning orqasida kichkina archazor bor, men u yerda sayr qilishni juda yoqtirardim, chunki daraxtlarni yaxshi koʻraman. Afsuski, sakkiz oydan beri kottejda hech kim yashamas, har tomondan oʻrmlab chiqqan shilvi bilan qurshalgan, eski usuldagi peshayvonli, ikki qavatli shinamgina uyning shuncha vaqtdan beri boʻsh yotganiga turib-turib achinardim. Koʻpincha bu uy



qarshisida to'xtab qolib, uning qanday shinamgina qo'rg'oncha bo'lishi mumkinligini o'ylardim.

O'tgan dushanba kechqurun sayr qilib yursam, yo'lga bo'sh furgon chiqib qoldi, zinapoya oldidagi o'tloqda esa bir uyum gilam bilan har xil buyumlar yotibdi. Aniq bildimki, kottejni nihoyat ijaraga berishgan. Men o'tib ketmoqchi ham edim-u, ammo to'xtab qoldim, odatda rasm bo'lganidek, bekorchilikdan tomosha qilib, bizga qo'shni uyda qanday odamlar yashar ekan, deb o'ylay boshladim. Uyg'a qarab turarkanman, tuyqusdan yuqori derazalardan birida meni kuzatayotgan odamning basharasini ko'rib qoldim. Bu basharada diqqatga loyiq nima borligini bilmayman-u, mister Xolms, ammo etim seskanib jimirlashib ketdi. Uzoqdan yaxishlab ilg'ab olmagan bo'lsam ham, u ko'zimga allaqanday g'ayri tabiiy, g'ayri insoniy bo'lib ko'rindi. Shu taassurot bilan yaqinroq borib, meni kim kuzatayotganini aniqlamoqchi bo'ldim. Ammo shu daqiqadayoq u odamni orqasiga, xonaning qorong'i joyiga tortib olishgandek, bashara to'satdan g'oyib bo'lib qoldi. Men nima bo'lganini payqashga tirishib besh daqiqacha turib qoldim. Bu erkak kishining basharasimidi yoki xotin kishining basharasimidi, buni aytolmayman. Juda uzoqda turgan edim. Meni hammadan ham uning murdanikidek ko'kish-sarg'ish tusi hayratga soldi. Baqraygan, karaxt bu bashara o'zining g'ayri tabiiyligi bilan jirkantirardi. Men shu qadar tashvishlanib qoldimki, yangi qo'shnilarimiz haqida mufassalroq tasavvurga ega bo'lishga qaror qildim. Zinapoyadan chiqib borib, eshikni taqillatdim. Eshikni afti-angori yoqimsiz bashara, novcha bir xotin shu zahotiyoq ochdi.

«Nima deysiz?» – deb so'radi u keskin shotlandcha talaffuz bilan.

«Men sizning qo'shningiz bo'laman, hov anavi yerda yashayman, – dedim uyim tomonga imo qilib. – Nazarimda hozir ko'chib kelganga o'xshaysizlar. Sizga biron yordamim tegmasmikan?»

«Kerak bo'lsangiz – chaqiramiz!» – dedi-da, eshikni taraqlatib yopdi.



Qo'pol javobdan achchig'im chiqib, uyga qarab ketdim. Butun kech davomida, garchand boshqa narsa to'g'risida o'ylashga tirishsam ham, xayolim derazada ko'ringan bashara bilan haligi shaddod xotinga ketdi. Xotinimga hech narsa demaslikka qaror qildim: u asabiy ayol, unar-unmasga xafa bo'laveradi, xunuk taassurotlarim bilan uni tashvishlantirishimning hojati yo'q, deb o'yladim. O'rnimga yotayotganimda, gap orasida kottejga odam ko'chib kelganligini aytdim, xolos. U hech narsa deb javob bermadi.

Odatda, men qattiq uxlayman. Oilada kechasi meni uyg'otish amri mahol deb hisoblashadi, bu narsa bizning doimiy hazil-mutoyibalarimizga sabab bo'ladi. Ammo o'sha kuni kechasi, ehtimolki, ko'rganlarimdan biroz hayajonlanganimdan bo'lsa kerak, odatdagidan ko'ra sergakroq uxladim. Ko'zim uyquda ekan, atrofimda bir narsa bo'layotgandek tuyuldi. Nima bo'layotganini asta-sekin anglay boshladim, xotinim o'rnidan turdi, yopinchig'i bilan shlyapachasini kiydi. Men uyquli ko'zim bilan norozilikmi yoki taajjub izhor qilmoqchi edim, ammo ko'zimni xiyol ocharkanman, uning sham yoritgan yuzini ko'rib hayratdan lol bo'lib qoldim. Uning chehrasida bunday ifodani hech qachon ko'rgan emasdim. Buni tasavvurimga ham keltirmagan edim. Rangi murdadek oqarib ketgan, entikib-entikib nafas olardi. Yopinchig'ining tugmasini qadarkan, uni uyg'otib yubormadimmikan, degandek karavotga o'g'rincha nazar tashlab qo'yardi. Keyin, meni uxlab yotibdi, deb o'ylab, xonadan sekingina chiqib ketdi. Bir lahzadan keyin tashqari eshikning asta g'ijirlaganini eshitdim. Turib o'tirdim-da, rostdan uyg'ongan-uyg'oyamaganligimni bilish uchun karavotning suyanchig'i ini urib ko'rdim, keyin yostiqning tagidan soatimni oldim. Soat uch edi. Shunday bemahalda xotinimning qishloq yo'lida nima ishi bor ekan?

Men biron javob topishga urinib bosh qotirgancha yigirma daqiqacha o'tirdim. O'ylaganim sayin bu narsa tobora chigal va sirli bo'lib tuyulardi. Hamon bus-butun sarosimada ekanman, tashqari eshik yana sassizgina ochilib, zinapoyadan xotinimning oyoq tovushlari eshitildi.



«Qayoqda edingiz, Effi?» – deb so‘radim u kirib kelarkan.

U butun vujudi bilan sapchib tushib. Qichqirib yubordi. Bu qichqiriq bilan titroq meni boshqa hamma narsalardan ko‘ra ko‘proq tashvishlantirdi: men bularda ta‘riflab bo‘lmaydigan jinoiy bir narsa his qildim. Xotinim hamisha shu qadar sof vijdon, halol ediki, uning o‘z xonasiga biqinib kirib kelayotganini, eri gap so‘rasa qichqirib yuborganini, titrayotganini ko‘rarkanman, a‘zoyi badanim muzlab ketdi.

«Uyg‘oqmidingiz, Jek! – deb xitob qildi u asabiy kulib. – Men, sizni hech narsa uyg‘otolmaydi, deb o‘ylardim».

«Qayoqda edingiz?» – deb so‘radim men qovog‘imni solib.

«Sizning taajjublanganligingizni payqab turibman, – dedi u. Yopinchig‘ining tugmalarini yechayotganida barmoqlari qaltirayotganini ko‘rdim. – Men ilgari, bir kunmas-bir kun shunday bo‘larman, deb hech o‘ylamagan edim. Gap shundaki, birdan nafasim tiqilib bo‘g‘ilib qoldim. Sof havoda nafas olishim kerak edi, agar tashqariga chiqmasam, hushimdan ketib qolardim. Bir necha daqiqagina eshikning oldida turdim, endi yana yaxshi bo‘lib qoldim».

Shularni aytarkan, u men tomonga biron marta ham qaramadi, ovozi esa odatdagidan boshqacha eshitildi. Uning yolg‘on gapirayotgani ko‘rinib turardi. Men unga hech nima deb javob bermay, devorga o‘girilib oldim, yuragim alam iztirobida, o‘zim esa bus-butun mudhish gumonlar, shubhalar hukmi ostida edim. Xotinim mendan nimalarni yashirayotgan ekan? U qayerda bo‘ldi ekan? Bor gapni bilmagunimcha tinchiy olmasligimni his qilardim, ammo u bir marta yolg‘on gapirganidan keyin uni so‘roqqa tutgim kelmasdi. Tunning qolgan qismini bir-biridan aql bovar qilmaydigan dalillar o‘ylab topish bilan ag‘anay-ag‘anay o‘tkazdim.

O‘sha kuni shaharga tushib kelishim kerak edi, ammo shu qadar hayajonlangan edimki, ish bilan shug‘ullanolmasdim. Xotinim ham xafadek edi. Uning menga savolomuz qarab-qarab qo‘yishidan uydirmasiga ishonmayotganimni payqab turgani, men bilan qanday muomala qilishini bilolmayotgani ayon



ko‘rinib turardi. Nonushta paytida churq etib gaplashmadik. Nonushtadan keyinoq men darhol aylangani chiqib ketdim, bor gapni sof havoda yurib o‘ylab olmoqchi edim.

Billur saroyiga borib, u yerda bir soatcha bo‘ldim, Norberiga kunduz soat birda qaytib keldim. Tasodifan kottejning oldidan o‘tayotib, kecha o‘sha yoqdan mo‘ralagan g‘alati basharani ko‘rib qolarmikanman, degan umidda derazalarga ko‘z tashlash uchun to‘xtadim. Eshik birdan ochilib, ichkaridan xotinim chiqib kelganda naqadar hayratlanganimni tasavvur etsangiz edi, mister Xolms!

Uni ko‘rarkanman, serrayib qotib qoldim, ko‘zlarimiz to‘qnashganda uning yuzida paydo bo‘lgan ifoda qarshisida mening hislarim hech narsa bo‘lmay qoldi. Nazarimda, xotinim uyga qochib kirib yashirinmoqchi bo‘lgandek tuyuldi, ammo qochish befoyda ekanligini ko‘rib, rangi o‘chib, ko‘zlari ola-kula bo‘lgancha olg‘a yura boshladi, ko‘zlarining ifodasi labidagi tabassumiga sira ham yopishmas edi.

«Voy, Jek, – dedi u, – biror yordamim tegib qolmasmikan, deb qo‘shnilarimiznikiga hozirgina kirgan edim. Menga nega bunday qarayapsiz, Jek? Mendan jahlingiz chiqayotgani yo‘qmi?»

«Xo‘sh, – dedim men. – Kechasi shu yerga kelganmidingiz?»

«Bu bilan nima demoqchisiz?» – deb xitob qildi u.

«Siz shu yerga kelgansiz, bunga aminman. Siz shunaqa vaqtda kelib ko‘radigan bu odamlar kim o‘zi?»

«Men bu yerda hech qachon bo‘lgan emasman».

«Nega yolg‘on gapirasiz? Gapingiz yolg‘on ekanligini o‘zingiz ham bilasiz-ku! – deb qichqirib yubordim men. – Gapirayotganingizda hatto ovozingiz ham o‘zgarib ketadi. Men sizdan hech qachon biron sir yashirganmidim? Hozir bu kottejga kirib, bor gapni o‘zim aniqlayman».

«Yo‘q, yo‘q, Jek!»

U o‘zining dahshatli hayajonini yashirolmay entikardi, men eshikka yaqinlasharkanman, u shartta yengimga yopishdi-da, birdan kuchga kirib ketib, meni shahd bilan chetga tortdi.



«O'tinaman, kirmang, Jek! – deb xitob qildi u. – Qasam ichaman, bir kunmas-bir kun bor gapning hammasini aytib beraman, ammo keyinchalik, keyin... Agar siz bu kottejga kir-sangiz, katta falokat yuz beradi!» Men uning qo'lidan bo'shab chiqishga urinsam u jon holatda iltijo bilan yopishib oldi.

«So'zimga ishoning, Jek! – deb qichqirdi u. – Aqalli shu galcha ishoning! Hech qachon o'kinmaysiz! Agar men sizdan biror narsani yashirayotgan bo'lsam, bu ishni siz uchun qilayo-tibman. Butun turmushimiz shu narsaga bog'liq. Uyg'a birga ketaylik, hammasi osoyish topadi, agar siz mening ko'nglimga qaramay, kottejga kirarkansiz, oramiz buziladi!»

Uning ovozi shu qadar samimiy va alamli yangradi-ki, men eshik oldida ikkilanib turib qoldim.

«So'zlaringizga bir shart bilan ishonaman, – dedim ni-hoyat. – Xohlaymanki, bularning hammasi darhol barham topsin. Siringiz ichingizda qola qolsin, ammo menga tunlari bu yoqqa qatnashni bas qilaman, sizdan yashiriqcha biror ish qilmayman, deb va'da bering. Men bo'lgan narsalarning ham-masini unutishga roziman, bu ortiq takrorlanmaydi, deb va'da bersangiz bas».

«Menga ishonishingizga shubha qilmayman! – deb xitob qildi u yengil tortib, erkin nafas olarkan. – Hammasi sizning ko'nglingizdagidek bo'ladi. Yuring, bo'ling, uyg'a yuring!»

Yengimni hamon qo'yib yubormay, u meni kottejdan nari surgab ketdi. Ketayotib orqamga qararkanman, yuqoridagi derazadan bizni kuzatib turgan o'sha odamning sarg'ish, zahil basharasini ko'rdim. Bu maxluq bilan xotinimning orasida qanday munosabat bo'lishi mumkin? Yoki men kecha ko'rgan qo'pol xotin bilan xotinim orasida qanday yaqinlik bo'lishi mumkin? Bu boshni qotiradigan jumboq edi, men buni hal qilmagunimcha tinib-tinchimasligimni bilardim. Shundan keyin ikki kunni uyda o'tkazdim. Nazarimda, xotinim shartimizni halol bajarayotganday edi, negaki, payqashimcha, u uydan tashqariga chiqmadi. Ammo uchinchi kunga borib uning diqqatini eri va burchidan chetga tortayotgan sirli bir narsaning

 Boskom vodiysining siri ta'siridan uni hech qanday qasam saqlab qololmasligi ayon bo'ldi.

Shu kuni men shaharga tushdim, ammo odatda qaytib boradigan 3. 36 dagi poyezd bilan emas, 2. 40 dagi poyezd bilan qaytdim. Uyga kirib borsam, qarshimdan vahimaga tushgan xizmatkor xotin yugurib chiqdi.

«Beka qayoqda?» – deb so'radim undan.

«Sayr qilgani chiqib ketgan shekilli».

Ko'nglimda darrov shubha tug'ildi. Uning uyda yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun yuqoriga qarab chopdim. Tasodifan derazadan qarab hozirgina men bilan gaplashgan xizmatkor xotinning daladan kottejga qarab chopib ketayotganini ko'rib qoldim. Albatta, buning boisini darhol payqadim. Xotanim o'sha yoqqa ketgan, men kelib qolguday bo'lsam, xizmatkorga darrov o'zini chaqirishni tayinlagan.

Qahri-g'azabdan qaltirab pastga yugurib tushdim-da, bu ishga batamom barham berish uchun dala tomonga qarab ketdim. Xotanim bilan xizmatkorning so'qmoqdan uyga qarab yugurib kelayotganlarini ko'rdim-u, ular bilan gaplashib qolmaslik uchun to'xtamadim. Kottejda mening turmushimga ko'lanka solgan bir sir bor! Bu sirni bilmaguncha qo'ymayman, deb ahd qildim. Hattoki taqillatib ham o'tirmasdan eshik tutqichini burdim-da, yo'lakka yugurib kirdim.

Birinchi qavat jimjit, osoyishta. Oshxonada o't ustida choydosh qaynab turibdi, katta qora mushuk savatda g'ujanak bo'lib yotibdi, ammo men ilgari ko'rgan xotindan asar ham yo'q edi. Ikkinchi xonaga yugurib kirdim, unisida ham hech kim yo'q. Shundan keyin zinapoyadan yuqoriga yugurib chiqdim, yuqoridagi ikki xonada ham hech kimni uchratmadim. Butun boshli uyda jon asari yo'q edi. Men derazasidan g'alati basharani ko'rgan xonani mustasno qilganda, bu yerdagi jihoz va rasmlar jo'ngina, bachkana edi. Bu xona qulay, shinamgina jihozlangan, xotanimning bor bo'yi bilan tushgan fotosurati kaminda turganini ko'rib qolganimda hamma shubhalarim



dahshatli, alamli qahrga aylandi. Bu suratni u mening iltimosim bilan bundan uch oygina burun oldirgan edi.

Men u yerda uy mutlaqo bo'sh ekanini aniqlash uchun qancha vaqt darkor bo'lsa, shuncha vaqt bo'ldim. Bu yerdan dilsiyoh bo'lib chiqib ketdim, hech qachon bunday bo'lgan emasdim. Uyga qaytib borsam, xotinim qarshimga chiqdi, shu qadar jahlim chiqqan ediki, u bilan gaplashmay, yonidan o'tib o'z xonamga kirib ketdim. Shunday bo'lsa ham, u eshikni yopib ulgurmasimdan orqamdan kirib keldi.

«Va'damni buzganimga qattiq achinaman, Jek, – dedi u, – agar siz bor gapni bilganingizda, aminmanki, meni kechirgan bo'lardingiz».

«Bo'lmasa bor gapni aytib bering».

«Aytib berolmayman, Jek, aytib berolmayman!»

«Toki siz bu kottejda kim yashashini, fotosuratingizni kimga berganingizni menga aytib bermas ekansiz, aslo ishonmayman», – dedim va uni tashlab ko'chaga chiqib ketdim...

Bu kecha bo'lgan edi, mister Xolms, men uni keyin ko'rmadim, bu g'alati ishdan ham ortiq xabarim yo'q. Shungacha bizning oramizda hech qanday anglashilmovchilik bo'lmagan edi, uning yolg'on gapirayotganidan shu qadar hang-mang bo'lib qoldimki, nima qilishimga ham hayronman. Bugun ertalab menga maslahat bilan yordam bera oladigan odam siz ekanligingiz miyamga kelib, oldingizga qarab yugurdim. O'zimni batamom sizning ixtiyoringizga topshiraman. Agar sizga bitta-yarimta detal aniq bo'lmasa, marhamat, so'rayvering. Ammo, dastavval nima qilishim kerakligini tezroq ayting! Bu baxtsizlikka hech chidayolmayman.

Xolms bilan men uning bu ko'z ko'rib, quloq eshitmagan g'aroyib axborotini maroq bilan tingladik. U zo'r hayajon chulg'agan kishidek qaltirab, entikib-entikib hikoya qilardi. Do'stim o'yg'a tolib, bir ozgina vaqt qo'lini iyagiga tiragancha o'tirdi.

– Ayting-chi, – dedi u nihoyat, – derazadan erkak kishining yuzini ko'rganingizga aminmisiz?



– Men uni har gal ham uzoqdan ko‘rganim uchun biron narsa deyolmayman.

– Harqalay, u ta‘bingizni tirriq qildimi?

– Nazarimda, uning tusi g‘ayritabiiy, qiyofasi g‘alati bir tarzda harakatsiz edi. Yaqinroq borsam darrov g‘oyib bo‘lardi.

– Xotiningiz sizdan yuz funt pul so‘raganiga ko‘p bo‘ldimi?

– Ikki oycha bo‘lib qoldi.

– Siz hech qachon birinchi erining suratini ko‘rganmisiz?

– Yo‘q. Uning vafotidan keyin Atlantada katta yong‘in chiqib, oilalariga tegishli hamma qog‘ozlar kuyib ketgan ekan.

– Biroq erining o‘lgani haqidagi guvohnomasi bor ekan. Bu shahodatnomani ko‘rdim, deb aytdingiz-ku.

– Ha, yong‘indan so‘ng dublikatini olgan.

– Siz uni Amerikadaligidan beri biladigan biror odami bilan hech qachon uchrashganmisiz?

– Yo‘q.

– U yana o‘sha yoqqa borib kelaman, deganmidi hech?

– Yo‘q.

– U yoqdan xat olib turarmidi?

– Bilishimcha, yo‘q.

– Tashakkur. Men bu ish ustida birozgina o‘ylamoqchi edim. Agar kottejdagilar u yerni butunlay tashlab ketgan bo‘lsalar – bu ahvolni mushkullashtiradi. Ammo, o‘ylashimcha, to‘g‘rirog‘i, u yerda istiqomat qiluvchilar sizning kelishingiz to‘g‘risida oldindan ogohlantirilgan, ular siz u yerga kirib bormasingizdan oldin chiqib ketishgan. Shunday bo‘lsa, ular ehtimolki, qaytib kelishadi, hamma narsani osongina aniqlaymiz. Ruxsatingiz bilan sizga maslahat berardimki, Norberiga qaytib, kottejning derazalarini kuzatsangiz. Agar sizda u yerda birovlar istiqomat qilib turibdi, deyishga asos tug‘ilsa, u yoqqa bostirib kira ko‘rmang, do‘stim bilan menga telegramma bering. Biz telegramma kelib tegishi bilan bir soatdan so‘ng oldingizda bo‘lamiz, ishning tagiga darhol yetamiz.

– Bordi-yu kottej haligacha ham bo‘sh bo‘lsa-chi?



– Unday bo'lsa, men ertaga yetib boraman, biz bor gapni o'sha yerda o'zingiz bilan birga muhokama qilamiz. Yaxshi boring, eldan burun ich-etingizni yeb ruhingiz tushmasin, buning uchun hozircha hech qanday asosli sabablaringiz yo'q...

– Bu rasvo bir voqea bo'lmasa, deb qo'rqaman Uotson, – dedi do'stim mister Grant Monroni eshikkacha kuzatib kelgach. – Siz bunga nima deysiz?

– Nazarimda, bu juda jirkanch ishga o'xshaydi, – deb javob berdim men.

– Ha. Bu tovlamachlik yoki men qattiq adashyapman.

– Tovlamachi kim bo'ldi ekan?

– Aniqrog'i birdan-bir shinam xonada yashab, o'sha xotinning fotosuratini kaminga qo'yib qo'ygan kishi bo'lishi kerak. Rostini aytsam, Uotson, meni nima uchundir derazadan ko'ringan sarg'ish bashara juda qiziqtirib qoldi, bu ishni sira ham e'tibordan chetda qoldirgim kelmayapti.

– Sizda birona gipoteza tug'ildimi?

– Hozircha bir taxminiy fikr. Agar u tasdiqlanmasa, men taajjublangan bo'lardim. Kottejda o'sha xotinning birinchi eri yashab turgan bo'lishi kerak.

– Nima uchun bunday deb o'ylaysiz?

– Bo'lmasa ikkinchi erining u yerga kirib qolishidan nega bunchalik qo'rqadi? Menimcha, shunday bo'lgan: u xotin Amerikada erga tekkan. Keyin u erini yomon ko'rib qolgan – faraz qilaylik, eri moxov yoki merov bo'lib qolgan... U, nihoyat, eridan qochib, Angliyaga qaytib keladi, otini o'zgartirib, o'z fikricha, yangitdan turmush boshlaydi. U bundan uch yil muqaddam erga tekkan, o'z mavqeyini mutlaqo birona behayo xotin bilib olgan. Ular xotinga xat yozib, borib seni fosh qilamiz, deb tahdid qilishgan. Ularning og'ziga urish uchun xotin yuz funt so'ragan. Shunga qaramay, ular kelishgan, eri kottejda yangi istiqomatchilar paydo bo'lganini tasodifan aytib qolganida, xotin bular uni ta'qib qilayotgan kishilar ekanligini fahmlab qolgan. Erining uyquga ketishini poylab xotin o'sha

yoqqa yugurib borgan, ulardan uni o'z holiga qo'yishlarini so'rab yalinib-yolvorgan. Hech ko'ndirolmagach, ularning oldiga ertasiga ertalab ham borgan, kottejdan chiqayotganida eri bilan to'qnash kelib qolgan. Eri undan u yerga ortiq kelmaslikka so'z olgan, ammo ikki kundan so'ng xotin o'zining mudhish qo'shnilaridan xalos bo'lishiga astoydil ishongan holda ular bilan kelishishga yana bir harakat qilib ko'rgan. Shunda ularga o'z fotosuratini bergan, buni undan talab qilgan bo'lishlari kerak. Suhbat ustida xizmatkor xotin yugurib kelib, eri uyga qaytib kelganini aytgan. Shunda eri kottejga to'ppa-to'g'ri yelib-yugurib kelishidan qo'rqqan xotin u yerdagilarni shosha-pisha orqa eshikdan, ehtimolki, qo'shni archazorga olib chiqib ketgan. Shunday qilib, mijozimiz kirib borganda uy bo'sh bo'lgan. Biroq bugun kechqurun tekshirib ko'rilganda uy hamon bo'sh turgan bo'lsa, men g'oyatda taajjublangan bo'lardim... Siz mening bu gipotezamga nima deysiz?

– Menimcha, bu taxmingina, xolos.

– Ha, ammo u hamma narsadan belgi berib turibdi. Agar izohlash qiyin bo'ladigan yangi faktlar belgi berib qolsa, mening gipotezamni qaytadan ko'rib chiqishga yetgulik vaqtimiz bor. Biz Norberidagi Jo'stimizdan biron xabar olmaganimizcha baribir hech qanday tadbir ko'rolmaymiz.

... kutishga to'g'ri kelmadi. Telegramma choydan keyinok keldi.

«Kottej band. Derazada o'sha basharani yana ko'rdim. Soat 7 dagida... olaman. Kelgunlaringizgacha hech qanday tadbir ko'rmayman».

U bizni platformada kutib turardi, biz stantsiya fonuslari yorug'ida uning rangi junda o'chganini, hayajondan qaltirayotganini ko'rdik.

– Ular hali ham o'sha yerda, mister Xolms, – dedi u. Qo'li-ni do'stimning bilagiga tashlarkan. – O'tib kelayotganimda kottejda chiroq yonib turganini ko'rdim. Biz bu ishga bata-mom barham beramiz.



– Sizning rejalaringiz qanday? – deb so‘radi Xolms, biz ikki tomoniga daraxtlar o‘tkazilgan qorong‘i yo‘ldan pastga tushib borarkanmiz.

– Men u yerga zo‘rluk bilan bo‘lsa ham kirib borib, bu uyda kim borligini o‘z ko‘zim bilan ko‘rmoqchiman. Ikkovlaringizni ham guvoh bo‘lishlaringizni iltimos qilaman.

– Qaroringiz qat‘iymi? Xotiningizning, bu sirni ochmasangiz o‘zingizga yaxshi bo‘ladi, deb shuncha yalinib-yolvorishlariga qaramasdan-a?

– Ha. Shunday qaror qildim.

– Durust. O‘ylaymanki, siz haqsiz. Gumon-u shak-shubhalardan ko‘ra har qanday haqiqat yaxshi. Eng yaxshisi – darhol o‘sha yoqqa borish. Albatta, biz qonunni buzamiz-u, ammo o‘ylaymanki, shunday qilsak arziydi.

Tun juda qorong‘i edi. Biz katta yo‘ldan ikki tomoniga g‘ildiraklar chuqur iz solgan tor so‘qmoqqa burilganimizda mayda yomg‘ir sepalay boshladi. Mister Grant Monro sabrsizlik bilan oldinga intilardi, biz ham imkonimiz boricha uning orqasidan ilgari lab borardik.

– Hov anavi chiroq yonib turgan mening uyim, – deb g‘o‘ldiradi u daraxtlar orasidan milt-milt ko‘rinayotgan shu‘lalarni ko‘rsatib. – Bu yer kottej, men ichkariga kiranman.

Biz yo‘lkaga burilib, kottejga yaqin bordik. E. . . qiya ochiq, qora yerda uzun sarg‘ish shu‘la ko‘rinmoqda. Yuqori qavatdagi bir derazadan yorug‘ nur tushib turardi. Biz parda bo‘ylab qimirlayotgan qora soyani ko‘rdik.

– Bu maxluq – o‘sha yerda! – deb xitob qildi Grant Monro. – U yerda birov borligini o‘zlaringiz ko‘rib turibsizlar! Endi qani orqamdan, hademay bor gapni bilamiz.

Biz eshikka yaqin bordik. Birdan qorong‘ilikdan xotin kishi chiqib keldi. Men uning yuzini ilg‘ayolmadim-u, iltijo bilan qo‘llarini yuqoriga cho‘zayotganini ko‘rdim, qo‘llariga yorug‘ tushdi.

– Xudo haqi, kerak emas, Jek! – deb qichqirdi u. – Men sizning kelishingizni bilgan edim. O‘zingizni bosing, jonim! Mening so‘zlarimga yana ishonib, shunday qilsangiz hech qachon o‘kinmaysiz.

– Men sizga ancha ishonib keldim, Effi, – deb javob berdi eri keskin. – Yo‘l bering, bu yerga kirishim kerak. Mana mening do‘stlarim. Bular bu ishga batamom barham berishimiz uchun menga yordamlashgani kelishgan.

U xotinini chetga surib qo‘ydi. Biz ham uning orqasidan shaxdam kirib bordik. U eshikni ocharkan, qarshisidan bir kampir yugurib chiqdi. Kampir uning yo‘lini to‘smoqchi edi, ammo Grant Monro uni chetlatdi, bir daqiqadan so‘ng biz zinapoyadan yuqoriga ko‘tarildik. Biz uning orqasidan bordik.

Bu shinamgina, yaxshi jihozlangan xona edi. Stolda ikkita sham, yana ikkitasi – kaminda yonib turardi. Burchakda stolchaga engashganicha bizga orqa o‘girib kimdir o‘tirardi. Chamasi, qizaloq bola bo‘lsa kerak. U qizil ko‘ylak va uzun oq qo‘lqop kiygan edi. U bizga keskin o‘girilib qararkan, men hayrat va dahshatdan qichqirib yubordim. Yuzining rangi g‘alati, murdanikinamo, zahil tusda, qisqasi har qanday ifodadan mahrum edi.

Sir bir lahzadayoq ayon bo‘la qoldi. Xolms kulib yubordi va qo‘li bilan bolaning qulog‘i orqasini paypasladi. Niqob tushib ketdi, ko‘z o‘ngimizda mumdek qop-qora, jajjigina negr qizcha namoyon bo‘ldi. U xushchaqchaqlik bilan jilmaygan edi, oppoq tishlari yaltirab ketdi. Hayratlanganimizdan kulgisi qistagan edi. Men uning quvonganidan qahqahlab kulib yubordim ammo Grant Monro undan ko‘zlarini uzolmay, qo‘lini ko‘kragiga bosgancha serrayib qoldi.

– Yo rabbiy! – deb xitob qildi u. – Nima gap o‘zi?

– Nima ekanligini men sizga aytib beraman, – dedi xonaga kirib kelgan mag‘rur va keskin qiyofali xonim. – Siz mening ko‘nglimga qaramasdan bor gapni ochishga majbur qildingiz – endi ikkovimiz ham taqdirga tan berishga majburmiz. Mening erim Atlantada o‘lgan, bolam tirik qolgan edi.



– Bolangiz?

Xotin bo'ynidan kichikroq kumush medalonni oldi:

– Siz buni hech qachon ochig'ligida ko'rganmisiz?

– Men, bu ochilmaydi, deb o'ylardim.

Xotin prujinachani bosdi, medalon ochildi. Uning ichida zoti muqarrar afrikaliklarga mansub bo'lgan, chehrasi g'oyatda ko'rkam va aqlli kishining portreti bor edi.

– Atlantalik Jon Xibron shu, – dedi xonim. – Yer yuzida bundan olijanobroq odam bo'lgan emas. Unga tegish uchun men hamma qarindosh-urug'larimdan ham kechganman, ko'zi ochiqligida bu ishimdan biron marta ham o'kingan emasman. Ko'rib turibsizki, yakkay-u yolg'iz bolamiz ko'proq uning zotidagi odamlarga o'xshaydi. Bu tariqa qovushishlarda ko'pincha shunday bo'ladi, jajji Lyusi otasidan ko'ra qoraroq. Ammo qora tanmi, oq tanmi, bu o'zim tuqqan qiz, arzanda bolam.

Shu so'zlar asnosida jajji qiz uning oldiga yugurib borib pinjiga kirdi.

– Men uni, – deb gapini davom ettirdi xotin, – salomatligi zaif, ob-havo sharoitining o'zgarishi unga shikast berib qo'yishi mumkin bo'lgani uchungina Amerikada qoldirib kelgan edim. Men uni bir vaqtlar bizda xizmat qilgan sadoqatli shotland xotinning tarbiyasiga topshirib kelgan edim. Qizimdan voz kechishni hech bir daqiqa ham xayolimga keltirgan emasman. Ammo siz bilan uchrashib, sizni sevib qolganimdan keyin, Jek, sizga bolam borligini aytishga qo'rqdim. Meni o'zing kechir, tangrim! Sizdan ajrab qolishdan qo'rqardim, sizga bor gapni aytishga yuragim dov bermasdi. Yo siz bilan, yo qizim bilan bo'lishim kerak edi. Qo'rqqoqlik qilib qizim bilan vidolashdim. Uning borligini sizdan uch yilgacha yashirib yurdim. Enaga menga hamisha xabar berib turdi. Men qizaloqning mutlaqo sihat-salamat ekanligidan ko'nglim to'q edi. Nihojat, bolamni g'oyatda ko'rish ishtiyoqi tug'ildi. Bu tilagimga hech bas kelolmadim. Bu narsa naqadar xatarli ekanini bilsam ham, har qalay, bolani aqalli bir necha haftaga bo'lsa ham oldi-

rib kelishga qaror qildim. Men yuz funt pulni enagaga jo'natib, unga shu kottejni aytib, bu yerga bizga bir qo'shni sifatida kelib joylashishini, munosabatlarimizni hech sezdirmasligini tayinladim. Men unga qizaloqni kunduz kunlari tashqariga chiqar may, uni derazadan ko'rib qolishi mumkin bo'lgan odamlar, qo'ni-qo'shnilar bu yerda negr bola yashar ekan, deb g'iybat qilmasliklari uchun uning yuzi bilan qo'llarini yashirishni buyurib, ehtiyotkorlikni haddidan oshirib yubordim. Bu qadar ehtiyotkorlik qilmaganim ma'qul ekan-u, lekin siz bor gapni bilib qolasiz deb, esimni yo'qotayozibman-da.

Kottejga odam ko'chib kelganini menga eng avval siz aytdingiz. Men ertalabgacha sabr qilishim kerak edi-yu, hayajonlanganimdan ko'zimga uyqu kelmadi. Nihoyat, sizning qattiq uxlashingizni bilib siqilib chiqib ketdim. Ammo mening chiqib ketganimni siz payqab qolgan ekansiz. Bu hamma ko'rgiliklarimning boshi bo'ldi. Ertasiga mening sirimni ochish hukmingizda edi, ammo siz olijanoblik qilib bundan voz kechdingiz. Uch kundan keyin esa siz uyga bostirib kirganingizda enaga bilan bola orqa eshikdan yugurib chiqib ketishga arang ulgurishdi... Ana, bor gapning hammasini bildingiz, sizdan so'rayman, endi biz – bolam bilan men nima bo'lamiz?

Xotin javob kutgancha qo'llarini ko'ksida chirmashtirdi.

Grant Monro javob bergunicha oradan har biri yildek o'n daqiqa fursat o'tdi, u shunday javob berdiki, men uni huzur bilan eslayman. U qizni ko'tarib olib o'pdida, keyin xotiniga qo'lini cho'zib, eshik tomonga qarab keta boshladi.

– Hamma gapni uyda gaplashganimiz qulayroq, – dedi u, – men uncha yaxshi odam emasman-u, Effi, ammo o'ylaymanki, siz taxmin qilganingizdan ko'ra sal tuzukroqman.

Xolms ikkovimiz ularga ergashib yo'lakdan keta boshladik, keyin Xolms mening yengimdan tortdi.

– Har qalay, – dedi u, – biz Norberidan ko'ra Londonda ko'proq ish bersak kerak.



Bu ish haqida u boshqa churq etib og'iz ochmadi, ammo kechasi allamahalda sham ko'tarib yotoqxonasiga kirib ketayotganida shunday dedi:

– Uotson, agar bir kunmas-bir kun mening o'zimga bino qo'yib yuborayotganimni yoki ish ustida keragidan kamroq bosh qotirayotganimni payqab qolsangiz, mumkin bo'lsa qulog'imga «Norberi» deb shipishib qo'ysangiz, men sizdan g'oyatda minnatdor bo'lardim.



M U N D A R I J A

MALLALAR UYUSHMASI.....	3
BOSKOM VODIYSINING SIRI	33
BESH DONA APELSIN URUG‘I.....	59
LABI TIRTIQ ODAM	83
MOVIY KARBUNKUL	112
SARG‘ISH BASHARA	137

UO'K 821.111-32

KBK 84(4BbR)

D 67

Doyl, A. Konan,

Boskom vodiysining siri [Matn]: detektiv /
A.K. Doyl. – Toshkent: «DAVR PRESS» NMU,
2019. – 160 b.

ISBN 978-9943-5535-8-3

UO'K 821.111-32

KBK 84(4BbR)

Adabiy-badiiy nashr

Artur Konan Doyl

Sherlok Xolms haqida hikoyalar

BOSKOM VODIYSINING SIRI

Muharrir

Muhayyo Rixsibekova

Badiiy muharrir

Nasiba Ergasheva

Sahifalovchi

Shahboz Sirojiddinov

Texnik muharrir

Javohir Ne'matov

Litsenziya raqami: AI № 213, 26.03.2012

Bosishga 09.08.2019 da ruxsat etildi

Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$

Bosma tabog'i 6,9. Shartli bosma tabog'i 7,6

Garnitura «Times». Ofset qog'ozi

Adadi 5000 (1-zavod 3000) nusxa. Shartnoma № 24

Buyurtma № 147

Original maket «DAVR PRESS»

nashriyot-matbaa uyida tayyorlandi.

Manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumari,

20-A mavze, 42-uy.

«SPECTRUM MEDIA GROUP» MChJ

bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Qushbegi ko'chasi, 6.

Tel.: (+99897) 216-90-14

Link: @smgprint

Marketing bo'limi: (+99894) 665-83-06

Web: www.davrpess.uz, www.kitoblar.com

E-mail: davr-pess@mail.ru



ARTUR KONAN DOYL

SHERLOK XOLMS

H A Q I D A H I K O Y A L A R

«Boskom vodiysining siri» hikoyasidagi sirli voqealar odamlarni dahshatga soladi. Unda g'aroyib uyda sodir bo'lgan qotillik siri va uydagi jihozlarning joylashuvi sizlarni hayratlantirishi shubhasiz. Faqat bugina emas, mashhur izquvarlar Sherlok Xolms va doktor Uotsonning qator jinoyatlarni fosh qilishdagi bir-biridan qiziqarli sarguzashtlari o'quvchini o'zi bilan boshlab ketadi.

Artur Konan Doylning ilmiy fantastika, sarguzasht voqealar, hayotiy dalillarga boy hikoya va qissalari joy olgan mazkur to'plam detektiv asarlarni sevib o'qiydigan kitobxonlar uchun munosib sovg'adir.



ISBN: 978-9943-5535-8-3



9 789943 553583